
O‘ZBEKISTON TARIXI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
10-sinf o‘quvchilari uchun darslik

Birinchi nashr



O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Toshkent
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI
2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K: 502.1(075.2)
KBK: 20.18ya71
S 96

S. Tilabayev, D. Kenjayev
O‘zbekiston tarixi : umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik / S.Tilabayev va boshqalar. — Birinchi nashr. — Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2022. - 192 b.

UO‘K: 502.1(075.2)
KBK 20.18ya72

ISBN 978-9943-5950-7-1

MUALLIFLAR:

S. Tilabayev, D. Kenjayev, N. Mustofoyeva, A. Zamonov, D. Rahimjonov, N. Ismatova, S. Pulatova, J. Abdullayev, B. Irzayev, K. Sagdullayev, N. Kudratova

Mas’ul muharrir
Dilshod Mutalibovich Kenjayev

TAQRIZCHILAR:

N. I. Musayev – tarix fanlari doktori, professor
Z. R. Ishanxodjayeva – tarix fanlari doktori, professor
A. A. Yermetov – tarix fanlari doktori, professor
N. Z. Hakimov – Respublika ta’lim markazi metodisti
S. N. Kushbekov – Nizomiy nomidagi TDPU akademik litseyi o‘qituvchisi

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-5950-7-1

© S. Tilabayev, D. Kenjayev va boshqalar, 2022.
© Respublika ta’lim markazi, 2022.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

KIRISH

MULOHAZA UCHUN

1. Quyi sinflarda tarix fanidan olgan bilimlaringizni tizimlashtirishga harakat qiling.
2. Qaysi tarixiy voqealar, jarayonlar, shaxslar nimasi yoki qaysi jihati bilan yodingizda qolgan? Fikringizni misollar bilan asoslang.
3. Qaysi voqealarni fahr bilan, qaysilarini esa aksincha eslaysiz?

BUGUN DARSDA

Mustamlaka va sovet davri tarixining murakkabligi va uni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari. Vatan — jonajon yurt va qadrdon zamin — eng muqaddas bebaho boylikdir.

Qo‘lingizdagi O‘zbekiston tarixi darsligi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 90-yillariga qadar sodir bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu davr Vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli yillaridir.

Mazkur darslik Vatanimiz tarixida yo‘qotishlar va talafotlarga to‘la bo‘lgan, shuningdek, ota-bobolarimizning yurt ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan qahramonona kurashlari hamda o‘zbek xalqining bunyodkorlik faoliyati va fidokorona mehnatlarini o‘z ichiga olgan davrlar haqida hikoya qiladi.

Tarix saboqlari bugungi kunda ham bizni hushyorlikka undaydi. Ilmsizlik, yangilikka intilmaslik, jahon hamjamiyatidan uzilib qolishning oqibatlari tarixiy misollar orqali yoritilgan. Shu ma’noda bugungi kunda mamlakatimizda davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta’lim sohasini rivojlantirishdir.

Darslikni o‘qish jarayonida albatta daftar tuting. Yangi atamalar va tarixiy sanalarni qayd etib boring.


IJODIY FAOLIYAT

1. Abdurauf Fitratning tarix fani haqida bildirgan fikrlaridagi «taraqqiyot va tanazzul» degan tushunchalariga misol keltiring.
2. Tarix fanining tarbiyaviy ahamiyati deganda nimani tushunasiz?



«Tarix millatlarning o‘tmishi, taraqqiyoti hamda tanazzulining sabablarini o‘rganuvchi ilmdir».
Abdurauf Fitrat

IJODIY FAOLIYAT



1712- yilda Tomas Nyukomen bug‘ mashinasini ixtiro qildi



1860-yillarda fransuz olimi Lui Paster tomonidan pasterizatsiya usuli kashf etildi

1869-yilda rus kimyogari Dmitriy Mendeleyev kimyoviy elementlarning davriy jadvalini tuzib chiqdi.





1879-yilda ixtirochi Tomas Edison (1847–1931) hozirda biz ishlatadigan xo‘jalik lampochkasini ixtiro qildi. Uning ixtirosiga Svanning tajribalari asos bo‘lib, Tomas uni yanada takomillashtirdi.



Karl fon Linde 1900- yilda ixtiro qilgan Linde sovutgichi

1. XVIII-XIX asrda jahonda buyuk kashfiyotlar amalga oshirildi. Bu kashfiyotlarning yaratilishini insoniyat qancha vaqt kutdi? Ilm-fanning qaysi sohalari rivojlandi?
2. Dunyo ilm-fanini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan ixtirolarning mualliflari kim? Ular qaysi davlatlarga mansub? Bu davlatlarning mazkur davrdagi rivojlanishi qanday darajada edi?





IJODIY FAOLIYAT

1. Rasmlarni solishtiring.

1-rasmda XIX asrdagi Parij shahri tasvirlangan. Shahar X asrda tashkil topgan.

2-rasmda XIX asrdagi Toshkent shahrining Shayxontohur dahasi tasvirlangan. Toshkentning tashkil topganiga 2000 yildan oshgan.

Har ikkala rasm XIX asrda olingan. Rasmlar asosida har ikkala shaharning rivojlanishi yuzasidan fikr bildiring. Bunda qanday bilimlar asos bo‘lganligini qayd eting.

2. Quyida berilgan manbani diqqat bilan o‘qing va yuqoridagi savollarga bergan javoblaringiz bilan bog‘lang.

«...Yoshlikdan ilmni qunt bilan o‘rganish lozimligini aytib, «Yoshlikda egallangan bilim toshga o‘yilgan naqshdur», «Ong yo‘q joyda jasorat bo‘lmaydi», «Bu dunyoda hech narsa tan-sog‘liqqa yetmas» kabi shiorlarni ko‘p eshitar edik. Milliy tarix darslaridan birida shunday deganlar: «Insonlar o‘z hayotlarini ongli ravishda tushunib turishlari uchun dunyo ilmlari ichida boshqalardan ko‘ra tarix ilmiga hojatlari ayniqsa ko‘pdur. Shuning uchun har davrning dono olimlari tarafidan bu to‘g‘rida bek (ko‘p) kitoblar yozilmish ekandur. Tarix demak, o‘quvchilarning ko‘z oldilariga qo‘yilgan bir ko‘zgu kabi bo‘lib, unga qaragan kishilar esa yuz-ko‘zlariga yuqqan yomon narsalarni ko‘rar ekanlar, albatta, undan o‘zlarini tozalaydilar.

Shunga o‘xshash, o‘tmishdagi ota-bobolarning oynaklarini keyingi bolalari qo‘llariga olib qarasalar, o‘zlarining kim ekanliklarini, endi kim bo‘lg‘onliklarini shu ko‘zguda ochiq ko‘radilar. Mehribon ona Vatanlari bosqinchi oyoqlar ostida depsalib, ingrab yotqonlig‘ini ko‘rgach, uning sabablarini tekshirishga kirishadilar. Ongsizlik o‘lim uyqusida yotgan bir millatni uyg‘otish uchun o‘tmishdagi ota-bobolarining shonlik tarixini bilishdan ortiq narsa yo‘qdir. Bu ilmdan kutilgan asosiy maqsadlar bir davlat qurilgandan so‘ngra, u qaysi ishlar bilan taraqqiy topib rivojlanmishdur, yoki inqirozga uchrab zavol topishi nima sababdan bo‘lishidur. Chunki, dunyoda o‘tgan, yo o‘tmoqda bo‘lgan yaxshi-yomon ishlar paydo bo‘lishining, albatta, sabablari bordur. Hayot olamida hech narsa sababsiz yuzaga chiqishi mumkin emasdur...»

Alixonto‘ra Sog‘uniy «Turkiston qayg‘usi».

ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI ARAFASIDA BUXORO AMIRLIGI, QO‘QON VA XIVA XONLIKLARIDAGI IJTIMOIY–SIYOSIY VA IQTISODIY AHVOL



BUGUN DARSDA

- XIX asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyo xonliklarining siyosiy, iqtisodiy holati.
- Xonliklarda davlat boshqaruvi.
- O‘rta Osiyoda Rossiya–Angliya raqobati.



MULOHAZA UCHUN

1. XIX asrga kelib O‘rta Osiyo hududlari Rossiya imperiyasi uchun qanday ahamiyatga ega bo‘lgan?
2. XIX asr o‘rtalarida jahondagi yetakchi davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy, harbiy-siyosiy holati qanday darajada bo‘lgan?
3. O‘rta Osiyodagi Rossiya–Angliya raqobatida Rossiya imperiyasi imkoniyatlarining yuqoriligi nimalarda namoyon bo‘ldi?
4. XIX asrda O‘rta Osiyodagi madrasalarda qanday fanlar o‘qitilgan?
5. Davlatning rivojida ilm-fanning o‘rni qanday ahamiyat kasb etadi? Fikringizni asoslang.



MA’LUMOT UCHUN

Buxoro amirligi chegaralari janubda Amudaryoning chap qirg‘og‘idan boshlanib shimolda Sirdaryogacha, sharqda Pomir tog‘laridan g‘arbda Xiva xonligi yerlarigacha cho‘zilgan. Davlat hududi XIX asrning o‘rtalarida Eron, Afg‘oniston, Qo‘qon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo‘lgan.

Amirlikning markaziy qismi Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi hisoblangan. Shu bilan birga hududiy jihatdan viloyat va tumanlarga bo‘linib, ularni amir tomonidan tayinlangan beklar boshqargan. Amirlik tarkibida 40 ta viloyat bo‘lgan.

Buxoro amirligining aholisi soni 2 million atrofida bo‘lgan.



IJODIY FAOLIYAT

1. Buxoro amirligi hududini zamonaviy xaritadan aniqlang.
2. Buxoro nomi bilan bog‘liq 5 ta tarixiy fakt keltiring.

MA’LUMOT UCHUN

Xiva xonligi XIX asrning ikkinchi yarmida janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo‘lgan.

Xonlikning ma’muriy markazi Xiva shahri hisoblangan. Xiva xonligida Xiva, Kat, Yangi Urganch, Hazorasp, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli kabi bekliklarning markazlari bor edi. Xiva xonligi 18 ta beklik, 2 ta noiblikka bo‘lingan va ularni xon tomonidan tayinlangan beklar va to‘ralar boshqargan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligida aholi soni 800 ming kishidan ortiq bo‘lib, asosan o‘zbeklardan tashkil topgan.

Qo‘qon xonligi 15 ta beklikka bo‘linib, ularni, asosan, xonning qarindoshlari va yaqinlari orasidan tayinlangan kishilar boshqargan.

IJODIY FAOLIYAT

1. Berilgan ma’lumotdan foydalanib Xiva va Qo‘qon xonligining taxminiy xaritasini chizing.
2. Xiva va Qo‘qon xonligi hududini zamonaviy xaritadan aniqlang.

MA’LUMOT UCHUN

Qo‘qon xonligi. XVIII asrning boshlarida Buxoro amirligidan Farg‘ona vodiysi va Sirdaryoning quyi qismigacha bo‘lgan hududlar ajrab, mustaqil davlat – Qo‘qon xonligi tashkil topadi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi, shimolda Qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo‘lgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko‘lob, Darvoz, Sho‘g‘non singari tog‘li o‘lkalarni o‘z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to‘qnashuvlar bo‘lib turgan. Xonlikning hududi Buxoro amirligi va Xiva xonliklaridan farqli o‘laroq, sersuv daryolar, so‘lim vodiylar, serhosil yerlarga boy bo‘lgan.

Qo‘qon xonligida aholi soni 3 millionga yaqin bo‘lgan.

MA’LUMOT UCHUN

XIX asrning o‘rtalariga kelib, Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari aholisining etnik tarkibi bir-biriga yaqin, asosan, o‘zbeklardan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga uchala xonlik hududlarida tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, qirg‘izlar bilan birga uyg‘urlar, yahudiylar, hindlar va boshqa elat vakillari ham yashagan.



IJODIY FAOLIYAT

Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring:

1. Uch xonlikning hududi bugungi kundagi O‘zbekistondan tashqari, ..., ..., ... va ... yerlarining bir qismini ham o‘z ichiga olgan.

Buxoro amirligi: ... ta beklik – ... mln aholi.


Xiva xonligi: ... ta beklik, ... ta noiblik – ... ming aholi.

Qo‘qon xonligi: ... ta beklik – ... mln aholi.

Xaritadan XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari hududini chegaralab bering.

2. To‘g‘ri javobni toping.

1	Buxoro amirligi	a	sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi, shimolda Qozoq xonliklari yerlari bilan, janubiy chegaralari Qorategin, Ko‘lob, Darvoz, Sho‘g‘non singari tog‘li o‘lkalarni o‘z ichiga olgan.
2	Xiva xonligi	b	chegaralari janubda Amudaryoning chap qirg‘og‘idan boshlanib shimolda Sirdaryogacha, sharqda Pomir tog‘laridan g‘arbda Xiva xonligi yerlarigacha cho‘zilgan.
3	Qo‘qon xonligi	d	Eron, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo‘lgan.





Buxoro amiri taxti

MA’LUMOT UCHUN

Buxoro amirligida oliy hukmdor ***amir*** hisoblanib, uning hokimiyati avloddan avlodga meros tarzida o‘tgan. Amirlikni cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan mang‘itlar sulolasiga mansub hukmdorlar boshqargan.

Buxoro shahri amirlikning ma’muriy markazi edi. Amirlikda ijro hokimiyati bosh vazir – ***qo‘shbegi*** qo‘lida bo‘lgan. Viloyat va tuman beklari qo‘shbegi tavsiyasi bilan tayinlangan. Moliya va xazina ishlari, soliqlar to‘planishi kabi sohalarni ***devonbegi*** idora qilgan.


Devonbegiga tashqi aloqalarni yuritish ham yuklatilgan. Unga amirlik hujjatlarini yuritishga mas’ul ***mirzaboshi*** bo‘ysungan. Amirlikda soliqlarni o‘z vaqtida yig‘ishga javobgar kishi ***mushrif*** hisoblangan.

Dodxoh lavozimini egallab turgan shaxs xalqning shikoyatlari bilan shug‘ullangan. Oliy hukmdor farmonlarini ***parvonachi*** e’lon qilgan. Shariat qoidalari va qonunlar ijrosi, sud ishlarini nazorat qilishni ***shayxulislom*** bajargan. Amir qarorgohi hisoblangan arkda taxt vorisi – valiahd tarbiyasi bilan ***otaliq*** mashg‘ul bo‘lgan. ***To‘pchiboshi*** amir qo‘shinlarining bosh qo‘mondoni bo‘lgan. Amirlikning shaharlarida tinchlik va tartibni saqlashga amir soqchilari boshlig‘i – ***mirshabboshi*** mas’ul hisoblangan. ***Ko‘kaldosh*** mamlakat xavfsizligi, amirning yaqinlari, do‘stlari va dushmanlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash bilan shug‘ullangan.

IJODIY FAOLIYAT

1. Buxoro amirligida ijro hokimiyati qanday ish bilan shug‘ullangan? Amirlikda ijro hokimiyati kimning qo‘lida bo‘lgan?
2. Dodxoh lavozimini egallab turgan shaxs qanday ishlar bilan shug‘ullangan?
3. Diniy-huquqiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi shaxs lavozimi qanday nomlangan?





MA'LUMOT UCHUN

Xiva xonligi qo'ng'irotlar sulolasi tomonidan boshqarilib, uning oliy hukmdori xon hisoblangan. Xon qarorgohi Xiva shahrida joylashgan. Bu shaharda ichki – Ichan qal'a va mudofaa devori bilan o'ralgan tashqi – Dishan qal'a mavjud bo'lgan.

Xonlikda oliy amaldor ***devonbegi*** hisoblanib, uning ixtiyorida ***qo'shbegi, mehtar, otaliqdan*** iborat kengash faoliyat ko'rsatgan.

Aholining tinchligi va osoyishtaligi bilan ***mirshabboshi,*** xonlikdagi tartib-intizom ishlariga xon qo'shinlarining bosh qo'mondoni – ***yasovulboshi,*** diniy ishlar va shariat qoidalariga rioya etilishi va amal qilinishi masalalariga ***shayxulislom,*** sug'orish inshootlari va suv ta'minoti hamda taqsimotiga ***mirobboshi*** mas'ul hisoblangan. Harbiy bo'linmalarga ***lashkarboshilar*** qo'mondonlik qilgan. Askarlik xizmatida bo'lganlar soliqlardan ozod qilingan.



Xiva xoni taxti

IJODIY FAOLIYAT

1. Xiva xonligi qaysi sulola tomonidan boshqarilgan?
2. Xonlikning davlat boshqaruvida qanday lavozimlar bolgan?

MA’LUMOT UCHUN



Qo‘qon xoni taxti

Qo‘qon xonligi minglar sulolasi tomonidan boshqarilgan va uning ma’muriy markazi Qo‘qon shahri bo‘lgan.

Eng yuqori harbiy lavozim ***amirlashkar*** bo‘lib, u harbiy ***vazir*** hisoblangan. Xonlikdagi alohida harbiy bo‘linmalarga ***mingboshilar*** rahbarlik qilgan. Ular bosh vazir vazifasini ham bajargan.


Xazina ishlari va xarajatlarini ***mehtar*** nazorat qilib borgan. ***Qozikalon***, qozilar islom dini qoidalari asosida sud ishlarini olib borganlar. ***Muhtasib*** raislar diniy ishlar, shariat qoidalariga rioya qilinishi, savdo-sotiqning to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilganlar. Xonlikdagi ichki tartib-intizom ishlari bilan ***mirshablar*** shug‘ullangan.

IJODIY FAOLIYAT

1. Buxoro amirligida sud boshlig‘i qozikalon, raiskalon hisoblangan, bu lavozim Qo‘qon va Xiva xonligida qanday nomlangan?
2. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi davlat mansablarini ayting.
3. Xonliklarda sud ishlari kimlarning qo‘lida bo‘lgan?
4. Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

№	Davlat nomi	Hududi	Aholisi	Boshqaruv	Lavozimlar





MA'LUMOT UCHUN

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida yerga egalik qilish shakllari deyarli bir xil edi. XIX asrda aholining aksariyati katta yer egalariga tegishli ekin maydonlarida mehnat qilganlar. Ular ijaraga olgan yerlari uchun hosilning bir qismini xiroj sifatida to'laganlar.

Soliq va to'lovlar mahsulot yoki pul ko'rinishida to'langan. Bundan tashqari sug'orish inshootlari, yo'llar, ko'priklar qurish va ularni ta'mirlash kabi ishlar ham bo'lgan.

Bu davrda aholidan xiroj, zakot, suv, tegirmon, tuz, mulk, tomorqa, bog' va boshqa soliqlar yig'ilgan. Xiva xonligida asosiy soliq ***solg'ut*** deb atalgan. Harbiy majburiyatda har bir erkak kishi oziq-ovqati, qurol-aslahasi bilan birga qatnashishi kerak bo'lgan. Har bir hududda aholi va ma'muriyat vakillari sug'orish sohasiga mas'ul va javobgar bo'lgan. Sug'orish ishlari bilan ***miroblar*** shug'ullanganlar.


Qo'qon xonligida aholi, asosan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Vodiy hududida yirik sug'orish inshootlari – Shahrixonsoy, Andijonsoy, Marg'ilonsoy, Yangiariq, Ulug'nor, Qoradaryo kabilar bo'lgan. Suv chiqishi qiyin bo'lgan joylarga maxsus qurilmalar – chig'irlar yordamida suv chiqarilgan.

Amudaryo, Sirdaryo suvlari turli sun'iy sug'orish tizimlari – kanallar hamda uning bo'ylariga qurilgan to'g'onlar orqali ekin maydonlariga yetkazilgan.

IJODIY FAOLIYAT


1. Aholining qanday mehnat majburiyatlari bo'lgan?
2. Soliq va to'lovlar qanday ko'rinishda bo'lgan?
3. Matnni o'qing. O'rta Osiyo xonliklarini agrar davlat deyish mumkinmi? Nima uchun?





Agrar *(lotincha – agrarius)* – yerga, dalaga oid – qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullaniladigan hududga, aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi ustun bo‘lgan joyga nisbatan qo‘llaniladi.





IJODIY FAOLIYAT

1. Nima uchun har bir hududda sug‘orish sohasiga ma’muriyat vakillari mas’ul va javobgar qilib tayinlangan?

BILASIZMI?

O‘rta Osiyo davlatlarida ko‘plab hunarmandchilik markazlari mavjud bo‘lib, ular mahalliy xususiyatlariga ko‘ra turli sohalarga ixtisoslashgan. Masalan, Marg‘ilonda atlas to‘qish, do‘ppichichilik, Rishtonda kulolchilik, Shahrixonda pichoqchilik, do‘ppichilik, duradgorlik, Chustda ham do‘ppichilik, pichoqchilik, Qo‘qonda temirchilik, duradgorlik, zargarlik, Buxoroda va Samarqandda zargarlik, Xivada me’morchilik, ganchkorlik rivojlangan.



Buxoro amirligida bu davrda kulolchilik, temirchilik, misgarlik, zardo‘zlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik sohalari ham keng tarqalgan.

Xonliklarda temir mahsulotlariga ehtiyoj katta bo‘lganligi bois metallga ishlov beruvchi mahalliy temirchilik sohasi rivojlangan. O‘rta Osiyo savdogarlari Eron, Xitoy, Hindiston, Afg‘oniston, Rossiya davlatlari va qozoq juzlari bilan savdo-sotiq qilganlar. Xorijda hunarmandlarning zargarlik mahsulotlari, shoyi va atlas matolari, kulolchilik buyumlari yuqori baholangan.









Bu davrda AQSHda Shimol va Janub o‘rtasida boshlangan fuqarolar urushi (1861–1865) tufayli Rossiyaning to‘qimachilik sanoati uchun paxta xomashyosi taqchilligi vujudga keldi. To‘qimachilik sanoati uchun xomashyo bo‘lgan paxtaning yetishmasligi O‘rta Osiyo yerlari va resurslariga ehtiyojni yanada oshirdi.

MA’LUMOT UCHUN


Har uchala xonlikda ta’lim tizimi deyarli bir xilda bo‘lgan. Madrasalarda o‘qish muddati asosan sentyabr oyining ikkinchi yarmida boshlanib, mart oyining oxiriga qadar davom etgan. Shu tariqa o‘qish mavsumi ko‘pincha 6 oy bo‘lgan. Ta’lim olish muddati ko‘p hollarda cheklanmagan. Madrasalar mudarris, imom, qozi, mirza, moliyaviy ishlarni olib boruvchi, yer-suvni taqsimlovchi singari mutaxassislarni tayyorlagan. Bu davrda ikki tilda, ya’ni o‘zbek va fors tillarida ijod qilingan. O‘rta Osiyo xalqlarining mushtarak tarixi mustahkam do‘stlik asosiga qurilgan edi.

Tarixning qaysi davrida bo‘lmasin, mahalliy aholi ma’rifatga intilib kelgan. An’anaviy ta’lim tizimida maktablar boshlang‘ich o‘quv maskanlari bo‘lib, ular shahar, qishloqlarda va ovullarda ham mavjud edi. Ular odatda, masjid, madrasa huzurida yoki xususiy hovlilarda tashkil etilgan. Maktablarda diniy bilimlar bilan bir qatorda jo‘g‘rofiya (geografiya), sanoq, savodxonlik kabi darslar ham berilgan.

Har bir xonadonda ichki va tashqi hovlilar mavjud bo‘lib, hovlilarda tashkil qilinadigan maktablarda, asosan, dastlabki xat-savod o‘rgatilgan. Agar o‘g‘il bolalarga dars beradigan domlaning ayoli ham ichkari hovlida xotin-qizlarga xat-savod o‘rgatsa, bu ayni muddao bo‘lib, domla ta’lim yangiliklarini ayoli orqali xotin-qizlarga ham yetkazib turishiga imkon bo‘lgan.

Har bir ota-ona farzandlarini yoshligidan ta’lim olish uchun maktablarga yuborilgan. O‘quvchilar dastlab «Haftiyak»ni uni tugatganlaridan so‘ng «Chor-kitob» (To‘rt kitob)ni o‘qishgan.

Madrasalar va maktablar vaqf mulkidan moliyalashtirilgan. Talabalar madrasaga maktabni tugatganidan so‘ng qabul qilingan. Ularning yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan.





MULOHAZA UCHUN

XIX asrning boshlarida Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xonliklar hududiga qiziqa boshladi. 1825-yilda Angliya mintaqaviy aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun M. Murkroftni Buxoro amirligiga yuboradi.

1832-yilda esa Buxoroga A. Byorns, 1844-yilda mayor I. Volf, 1843-yilda Xiva va Buxoroga kapitan J. Abbot yuborilgan.

O‘rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ularga Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklifi bilan Buxoroga kelgan Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari Ch. Stoddart va A. Konnoli 1842-yilda amir tomonidan qatl qilinadi.

Bunga javoban Angliya hukumati Buxoroga qarshi Afg‘oniston bilan sulh tuzib, qurollantiradi. Natijada 1855-yilda o‘zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohilidagi hududlar Afg‘oniston viloyatiga aylantirildi.



A. Byorns



J. Abbot



IJODIY FAOLIYAT

1. Ost-Indiya kompaniyasi qachon tashkil etilgan edi? Bu kompaniya nima bilan shug‘illangan?
2. Bu kompaniya nima uchun O‘rta Osiyoga qiziqish bilan qaradi?
3. Suratda tasvirlangan A. Byorns va J. Abbot nima uchun yevropaliklar libosida emas? Javobingizni jahon tarixidan olgan bilimlaringiz bilan asoslang.

BILASIZMI?

Rossiya imperiyasi tashqi siyosatida o‘z chegaralarini sharqqa tomon kengaytirish uchun dastlab Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan har tomonlama aloqalar o‘rnatishga harakat qildi.


Xalqaro doirada ingliz tovarlarining O‘rta Osiyoga kirib kelishi, Angliyaning bu hududga nisbatan qiziqishi ortib borishi Rossiya imperiyasi hukumatining istilochilik harakatlarini yanada tezlashtirdi.

XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari bir-birini qo‘llab-quvvatlamadi, aksincha, o‘zaro nizolar ularni zaiflashtirdi.

Bunday vaziyat oxir-oqibat xonliklarning istilo qilinishini osonlashtirdi.

XIX asrning o‘rtalariga kelib Angliya O‘rta Osiyoga qiziqa boshladi.

Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarini bosib olish harakatlarini tezlashtirishga sabab bo‘ldi.



Afg‘oniston Rossiya va Angliya o‘rtasida. O‘sha davr karikaturasi

Bu Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyo bilan bog‘lovchi savdo yo‘llarini to‘liq o‘z qo‘liga olishga harakat qildi.

Toshkentga olib boradigan asosiy Orenburg yo‘lida harbiy istehkomlar qurildi. 1847-yilda Sirdaryoning Orolga quyilish joyida Raim qal’asi bunyod etildi.



DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonligida boshqaruvning umumiy tomonlarini aniqlang.
2. Abdulla Qodiriy «O‘tkan kunlar» romanida «Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzuni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi «xon zamonlari»dan belguladim», – deb yozganida nimalarni nazarda tutgan? Fikringizni bayon qilishda mazkur davrga oid ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalanishingiz mumkin.
3. Ayiq, sher va odam tasvirlangan rasmni qanday izohlagan bo‘lardingiz?

ROSSIYA IMPERIYASINING O‘RTA OSIYOGA YURISHI VA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING TASHKIL TOPISHI

BUGUN DARSDA

- Qo‘qon xonligi shimoliy hududlarining bosib olinishi.
- Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugining tuzilishi.

MULOHAZA UCHUN

Jahon tarixidan olgan bilimlaringizga tayanib va QR asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. XIX asrda Rossiya imperiyasining harbiy qudrati va tajribasi qanday bo‘lgan?
2. O‘rta Osiyo xonliklarining harbiy kuchlari bilan o‘sha davrdagi Rossiya imperiyasi armiyasining farqini aytib bering.


MA’LUMOT UCHUN

Rossiya imperatori Aleksandr II 1859-yilda Qo‘qon xonligini bosib olishning davom ettirilishi to‘g‘risida bergan ko‘rsatmasidan so‘ng harbiy harakatlar kuchaydi. Buning uchun, eng avvalo, xonlikning Toshkent shahri bosib olinishi zarur edi. Toshkentni bosib olishda Oqmachit qal’asi harbiy harakatlarning tayanchiga aylandi. Imperiya qo‘shinlarining Oqmachit qal’asini bosib olish borasidagi dastlabki harakatlari (1852-yil) mag‘lubiyatga uchragach, 1853-yilda uni egallash uchun ikkinchi marta hujum boshlangan. 3 mingdan ortiq kishidan iborat rus harbiy qo‘shiniga 400 kishidan iborat qal’a himoyachilari 20 kun davomida qarshilik ko‘rsatgan. Qurshovda qolgan qal’a himoyachilari oxirgi imkoniyatlari qolgunicha jang qildilar. Kuchlar notengligi oqibatida Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan qal’a egallangan. Bu qal’aga Perovskiy forti deb nom berildi.

1864-yilda Rossiya imperiyasining uch mingdan ko‘proq qo‘shini ikki yo‘nalishda: biri




Jangdan so‘ng Oqmachit harobalari va Oqmachit qo‘mondoni Yoqub Bek



Perovskiy fortidan (Orenburg tomondan), boshqasi esa Verniy (Almati) shahri tomondan Toshkentni bosib olish uchun yo‘lga chiqdi. Ular avval Talas daryosining chap sohilidagi Avliyoota (hozirgi Taroz shahri)ni bosib oldi.



Turkiston



IJODIY FAOLIYAT

Nima uchun, eng avvalo, Toshkent shahrini bosib olish zarur, deb hisoblangan? Toshkentning strategik ahamiyati nimadan iborat edi?

MA’LUMOT UCHUN

Turkiston va Chimkent shaharlari mudofaasiga Qo‘qon xonining amirlashkari Aliquli (Alimqul) rahbarlik qildi. Kuchlar teng emas edi. O‘sha davrning zamonaviy qurollari bilan qurollangan imperiya qo‘shinlari Qo‘qon xonligiga qarashli Turkiston shahrini ishg‘ol qildi va 20 kilometrlik qal’a devori bilan o‘ralgan Toshkentni bosib olishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi.

Bu harbiy harakatlarga M. Chernyayev qo‘mondon etib tayinlandi. 1864-yil kuzida Chimkent shahri egallanib, Yangi Qo‘qon chizig‘i asosida qo‘lga kiritilgan qal’alar birlashtirildi. Natijada Raim qal’asidan Perovskiy fortigacha Sirdaryo istehkom chizig‘i, Semipalatinskdan Verniy shahrigacha Sibir istehkom chizig‘i vujudga keldi.

IJODIY FAOLIYAT

Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

1. Oqmachit qal’asini bosib olish uchun ... hujum 1853-yilda boshlanadi. ...dan ortiq kishidan iborat harbiy qo‘shinga ... kishidan iborat qal’a himoyachilari ... kun davomida qarshilik ko‘rsatdi.
2. Oqmachit – ...-yil, Chimkent, Turkiston – ... -yil bosib olindi.
3. Yangi ..., ... istehkom ...ning tashkil etildi.
4. ... otryadi Qo‘qon xonligiga qarashli Turkiston shahrini bosib oldi.
5. ... Turkiston va Chimkent shaharlari mudofaasiga ... qilishga Qo‘qon xoni tomonidan yuborilgan.
6. ...-yil kuzida ... qal’asidan ... fortigacha ... istehkom chizig‘i, ...dan ... shahrigacha ... istehkom chizig‘i vujudga keldi.

MA’LUMOT UCHUN

Toshkent O‘rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy, yirik ma’muriy va savdo-sotiq markazlaridan biri hisoblangan. Har tomondan shaharga kirish uchun qurilgan 12 ta darvozalari soqchilar tomonidan qo‘riqlangan. Shaharni mudofaa qilish uchun qurilgan devor ortida Kaykovus arig‘ining suvi bilan to‘ldiriladigan xandaqlar bo‘lgan. 1864-yil 1-oktyabrida M. Chernyayev o‘zini imperiyaga yaxshi ko‘rsatish uchun tezlik bilan Toshkentni bosib olmoqchi bo‘ldi. Lekin shahar himoyachilari Chernyayevni Chimkentga chekinishga majbur qildi.

Toshkent. Eski shahar xaritasi. XIX asr



BILASIZMI?

XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining 12 ta darvozasi bo‘lgan. Bular: Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag‘bon, Chig‘atoy, Ko‘kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog‘och, Qo‘ymas, Qo‘qon, Qoshg‘ar. Toshkent to‘rtta – Beshyog‘och, Ko‘kcha, Sebzor va Shayxontohur dahalariga bo‘linib, har bir daha o‘z oqsoqoli tomonidan boshqarilgan.



1865-yil aprel oyi oxirida M. Chernyayev boshchiligidagi harbiy qo‘shin Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan Niyozbek qal’asiga kelib, uni jangsiz topshirishni taklif qiladi, lekin qal’a himoyachilari rad javobini berib, mudofaaga o‘tadi. Qal’a to‘plardan o‘qqa tutilib, devorlari buzib tashlandi.

Oqibatda Niyozbek qo‘rg‘oni dushman qo‘liga o‘tdi. Ushbu qal’aning bosib olinishi Chernyayevga Toshkentni suv ta’minotidan uzib qo‘yish imkonini berdi. Uning buyrug‘i bilan Toshkent shahri aholisini suv bilan ta’minlaydigan Chirchiq daryosidagi to‘g‘on buzib tashlanadi.



Toshkent O‘rta Osiyoni bosib olish uchun asosiy yo‘lak, harbiy qo‘shinlarning kelgusidagi harakatlari uchun tayanch nuqta vazifasini bajara oladigan joy hisoblangan.

IJODIY FAOLIYAT

Toshkent shahri darvozalarining nomini ayting. Berilgan xaritadan foydalanib, shahar darvozalari qaysi dahalarda joylashganini ko‘rsating.

MA’LUMOT UCHUN

Toshkent shahri suvsiz qolgan bo‘lsa-da, sarbozlar va aholi shaharning har bir mahalla ko‘chasida tashkil qilingan to‘siqlarda qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Asosiy jang Kamolon darvozasidan Xadradagi markaziy bozorga boradigan ko‘chada bo‘lib, imperiya qo‘shinlari to‘rtta to‘p himoyasida bo‘lgan to‘siqdan o‘ta olishmadi.


Toshkent mudofaasida shahar himoyachilari va Qo‘qon xonligi qo‘shinlari amirlashkar Aliquli boshchiligida qarshilik ko‘rsatdi. Aliquli-ning halok bo‘lishi shahar himoyachilarini sarosimaga solib qo‘ydi.

Toshkent himoyasiga Buxoro amirligidan kechikib yetib kelgan qo‘shinlarning foydasi tegmadi. Shahar o‘t ichida qoldi. 1865-yil iyunda shahar egallandi.


IJODIY FAOLIYAT

Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring:

1. 1864-yil 1-oktyabr – Chernyayevning birinchi hujumi, ... qal’asining egallanishi.
2. 1865-yil Orenburg general-gubernatorligi tarkibida ... viloyati tashkil qilindi. Unga ... harbiy gubernator etib tayinlandi.
3. 1865-yil 6-avgustda «... viloyatini boshqarish to‘g‘risidagi Muvaqqat ...» qabul qilindi.



Toshkent shahrining 12 darvozasi kalitlari



M. Chernyayev Beshyog‘och, Ko‘kcha, Sebzor va Shayxontohur dahalarining oqsoqollarini chaqirdi. Muzokarada Toshkent qozikaloni Hakimxo‘ja, Abulqosim eshon, Solihbek dodxoh va shaharning boshqa nufuzli kishilari ishtirok etdi. Oqsoqollar shaharni «ixtiyoriy ravishda topshirish» to‘g‘risidagi sulhni imzolashga majbur qilindi.

Bunga qarshi bo‘lgan Solihbek dodxoh, Abulqosim eshon, Hakimxo‘jalar Sibirga surgun qilindi. Harbiy istilochilik yurishlari natijasida bosib olingan hududlarda Turkiston viloyati tuzilib, unga M. Chernyayev gubernator qilib tayinlandi.

Viloyat bo‘limlarining harbiy asosda tashkil qilinishidan maqsad imperiya hukumatining kelgusidagi harbiy rejalarini amalga oshirilishida Toshkent tayanch ma’muriy hudud vazifasini o‘tashi ko‘zda tutilgan edi.



Xalqaro doirada Chernyayev o‘zining bosqinchilik xatti-harakatlarini oqlash maqsadida «mahalliy oqsoqollarni Toshkent ixtiyoriy ravishda taslim bo‘ldi, toshkentliklarning o‘zlari aholi tinchligini saqlab qolish maqsadida Rossiya askarlariga shahar darvozalarini ochib berdilar», degan mazmundagi xatni imperator nomiga yozishga majburladi.



Rossiya imperiyasiga qo‘shib olingan hududlar



MA’LUMOT UCHUN

1865-yilga Turkiston viloyati tashkil qilindi. 1867-yilda bosib olingan hududlarni o‘z ichiga oluvchi Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi va Turkiston harbiy okrugi tuzildi.

Toshkent shahri general-gubernatorlikning markazi qilib belgilandi. Turkiston general-gubernatorligiga Rossiya imperatori farmoniga ko‘ra general fon Kaufman tayinlandi. U bir paytning o‘zida Turkiston harbiy okrugining qo‘mondoni ham edi.

Dastlab Turkiston general-gubernatorligi ma’muriy jihatdan ikkita viloyat: Sirdaryo (markazi – Toshkent) va Yettisuv (markazi – Verniy) viloyatlariga bo‘lingan. Sirdaryo viloyatining hududiga, asosan, 1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyatiga tegishli bo‘lgan yerlar va Qo‘qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan.

Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Olatavsk okrugi yerlari va sobiq Turkiston viloyatining bir qismidan iborat holda tashkil qilindi.

BILASIZMI?

Orenburg general-gubernatorligi O‘rta Osiyodan uzoqda joylashganligi tufayli boshqaruvda qiyinchiliklar tug‘ilayotganligi bu yerda alohida general-gubernatorlik tashkil qilinishini taqozo etardi.

IJODIY FAOLIYAT

O‘ylab ko‘ringchi, yangi general-gubernatorlik tashkil qilishdan yana qanday maqsadlar ko‘zlangan?

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Turkiston viloyati nima uchun harbiy asosda tashkil qilingan?
2. Turkiston viloyati nima sababdan Turkiston general-gubernatorligiga aylantirildi?
3. Toshkent shahrini mudofaa qilish uchun siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? Nima uchun?
4. «Toshkent mudofaasi» mavzusida badiiy hikoya tuzib ko‘ring. Tarixiy shaxslar bilan bir qatorda to‘qima obrazlardan ham foydalaning.
5. Chernyayev xalqaro doirada o‘z xatti-harakatlarini oqlashidan maqsadi nima edi? U o‘zining bu maqsadiga qay darajada erishdi?



BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGINING ROSSIYA IMPERIYASI VASSALIGA AYLANISHI

BUGUN DARSDA

- Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi janglar, 1868 va 1873-yildagi shartnomalar.
- Qo‘qon va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi harbiy yurishlariga qarshi harakatlari.
- Gandimiyon shartnomasi.
- Farg‘ona viloyatining tashkil qilinishi.

MULOHAZA UCHUN

1. Rossya imperiyasining Toshkent shahri bosib olganidan keyingi harbiy rejasi qanday bo‘lgan?
2. «Bo‘lib tashla va hukmronlik qil» deganda nimani tushunasiz?

IJODIY FAOLIYAT

Nima uchun Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Xo‘jandga hujum qilishdi? Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi xaritasidan Xo‘jand shahri joylashgan nuqtani toping. Uni Qo‘qon, Toshkent, Balx va Buxoro bilan tutashtirib fikr bildiring.



Rus qo‘shinlari ishg‘ol qilgan Xo‘jand darvozasi.

MA’LUMOT UCHUN

Rossiya imperiyasi Toshkent shahrini bosib olganidan so‘ng barcha harbiy harakatlarni Toshkent shahridan turib tashkil qildi va boshqardi. Mustamlakachilar o‘zlarining asosiy qoidasi hisoblangan «Bo‘lib tashla va hukmronlik qil» tamoyiliga asoslanib xonliklarni birlashishiga yo‘l qo‘ymadi. 1866-yil 8-mayda Rossya imperiyasi va Buxoro amirligi qo‘shinlari Yerjar qishlog‘i yaqinida to‘qnashdi. Kuchlar harbiy jihatdan teng bo‘lmaganligi uchun amir qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi. Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Buxoro qo‘shinini ta’qib qilishni to‘xtatib, avval Qo‘qon xonligi bilan Buxoro amirligi o‘rtasida joylashgan Xo‘jandga qarab yurish qildi. May oyida Xo‘jand qal’asi qamal qilindi. Qamal ikki kun davom etdi. Istilochilar himoyachilarning mudofaasini yorib o‘tib, shaharni egallashdi.

Rossiya imperiyasining Turkiston viloyati gubernatori N. Krijanovskiy Buxoro amirining vakili bilan sulh shartnomasi bo‘yicha uchrashib, 10 kun mobaynida 100 ming rubl tovon to‘lashni talab qildi.

Belgilangan muddat o‘tgach, Krijanovskiy Buxoro amiri talablarni bajarmaganligini bahona qilib, o‘z qo‘shinlariga amirlikka qarshi hujum boshlashga buyruq berdi. Gubernatorning harbiy qo‘shinlari O‘ratepani egalladi. So‘ng Jizzaxga qarshi harakat boshladi. To‘xtovsiz otishmalar ikki kecha-kunduz davom etdi. Jizzax shahri ham imperiya hukumati qo‘liga o‘tdi. Bu jangda har ikkala tomondan 6 mingdan ko‘proq kishi halok bo‘ldi. 1864–1866-yillar davomida bosib olingan hududlarni o‘z ichiga olgan Sirdaryo viloyati tashkil qilindi.

1868-yil Turkiston general-gubernatori Kaufman amir Muzaffarni general-gubernatorlik chegaralariga bostirib kirishga tayyorgarlik ko‘rishda ayblab, 4 mingdan ziyod qo‘shindan iborat harbiy otryad bilan Samarqandga bostirib kirdi.

Rossiya imperiyasi qo‘shinlari amirlik sarbozlarini miltiq va to‘pdan tinmay o‘qqa tutdi. Cho‘ponota va Zirabuloq tepaligidagi janglarda Buxoro amiri qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi.

Kaufman Samarqand bekligini Rossiyaga berish, «harbiy xarajatlarni» to‘lash va 1865-yildan buyon Turkiston o‘lkasida qo‘lga kiritilgan barcha narsalarni Rossiya mulki deb e’tirof etish sharti bilan sulh tuzishni taklif qildi. Amir Muzaffarga yozgan maktubi javobsiz qoldi.

Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Kitob begi Jo‘rabek va Shahrisabz begi Bobobek boshchiligida Samarqandda kurash olib borildi. Mudofaachilar 1868-yil 2-iyunda Rossiya imperiyasi qo‘shinlari garnizoni joylashgan qal’aga hujum qilishdi. Lekin garnizonchilarga yordamga qo‘shimcha kuchlar yetib keldi, shundan so‘ng himoyachilar Samarqanddan chiqib, tog‘ tomonga chekinishga majbur bo‘lishdi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga qarshi urush boshlashga nima bahona bo‘ldi?
2. Jizzaxning bosib olinishini qanday izohlaysiz?
3. Xo‘jand va O‘ratepa shaharlarining bo‘ysundirilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Xaritadan 1864–1866-yillarda bosib olingan hududlarni ko‘rsating.



MA’LUMOT UCHUN

Rossiya imperiyasi tomonidan yangi bosib olingan hududlarda Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bo‘limlaridan iborat Zarafshon okrugi tuzildi.

Zirabuloq jangidan keyin amir Muzaffar o‘z mag‘lubiyatini tan olib, Kaufmanning Turkiston general-gubernatorligi yangi chegaralari haqidagi taklifini qabul qilishga majbur bo‘ldi.

Shu bilan Rossiya imperiyasi istilochilik yurishlarining ikkinchi bosqichi yakunlandi. Bu tarixga «Zirabuloq shartnomasi» nomi bilan kirdi.

Kaufman 1868-yil 23-iyunda Samarqandda amir Muzaffar bilan Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirgan shartnomani imzoladi.

Buxoro bilan Rossiya imperiyasi 1873-yilda amirlikka o‘z vakilini tayinlash huquqini beruvchi yangi shartnomani imzoladi. P. Lessar Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakili etib tayinlandi. Natijada imperiya hukumati Buxoro amirini o‘z ta’sir doirasiga kiritib, undan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalandi.

Zirabuloq shartnomasiga ko‘ra Toshkentdan Samarqandgacha bo‘lgan barcha bosib olingan hudud – Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent, Jizzax, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on shaharlari Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o‘tdi.

1869–1870-yillarda Rossiya imperiyasi Tashqi ishlar vazirligi Angliya bilan Afg‘oniston va O‘rta Osiyodagi chegaralarni belgilash to‘g‘risida muzokaralar olib bordi. Natijada chegaralar Amudaryo bo‘ylab Panj tumanidan o‘tkazilishiga kelishildi. Buxoro amirligi va Eron o‘rtasidagi chegara 1881-yil 10-dekabrda Eron shohi bilan Tehrondagi Rossiya elchisi imzolagan maxfiy shartnomada belgilandi.

1885–1887-yillardagi muzokaralar natijasida chegaralarni belgilash bo‘yicha ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg‘oniston o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilashni nihoyasiga yetkazdi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Kaufman nima uchun Samarqandga yurish qildi?
2. Zirabuloq jangida amir qo‘shinlari nima uchun mag‘lubiyatga uchradi?
3. Samarqandda xalq harakatlariga kimlar boshchilik qildi?
4. 1868-yilgi shartnomaga ko‘ra amirlikning qaysi hududlari Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o‘tdi?
5. 1873-yildagi shartnomaning mohiyatini aytib bering.

MA’LUMOT UCHUN

Rossiya imperiyasining keyingi harakatlari Xiva xonligini bosib olishga qaratildi. Shu orqali u Amudaryo ustidan nazoratni qo‘lga kiritishni maqsad qilib olgandi. Buning uchun Rossiya imperiyasi besh yil puxta tayyorgarlik ko‘rdi.

Kaufman boshchilik qilgan ko‘p sonli harbiy qo‘shin 1873-yil fevralda o‘zlari o‘rnashgan joylari – g‘arbda Mang‘ishloq, shimolda Orenburg, sharqda Turkiston va janubda Krasnovodsk kabi to‘rt harbiy okrugdan deyarli bir vaqtda yo‘lga chiqdi. Rossiya imperiyasi qo‘shinlari bilan Xiva xonligi qo‘shinlari o‘rtasida may oyida Hazorasp qal’asi, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Mang‘it shaharlari va Xiva shahri yaqinida janglar bo‘lib o‘tdi.

1873-yil may oyining o‘rtalariga kelib mustamlakachi hukumatning asosiy qo‘shinlari Xivaga yetib keldi. Kaufman qo‘shinlari Hazorasp darvozasi orqali xonlik poytaxtini egalladi. Kaufman Xivani bosib olganidan so‘ng xon xazinasini kontributsiya (tovon) evaziga musodara qilib, xazinadagi moddiy va ma’naviy boyliklarni Sankt-Peterburgga jo‘natdi. Kaufman Xivani egallaganidan so‘ng 1873-yil 12-avgustda Gandimiyon qishlog‘ida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II shartnoma imzolashga majbur bo‘ldi.

Xiva xonligiga qarashli Amudaryoning o‘ng sohili, unga qo‘shni yerlarning barchasi, bu joylarda yashaydigan o‘troq va chorvador aholisi bilan birga xonlik tasarrufidan chiqdi. Shartnomaga binoan Xiva xonligi 2 million 200 ming rubl miqdoridagi tovonni 20 yil davomida to‘lashi belgilandi. Xonlik xazinasida yetarli darajada pul bo‘lmaganligi uchun bu tovon aholidan yig‘ib olinadigan bo‘ldi. Gandimiyon shartnomasi Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga tobeligini, xonning davlat boshlig‘i darajasida boshqa davlatga bo‘ysunganligini ko‘rsatuvchi hujjat bo‘ldi.



Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya imperiyasining protektoratiga aylanganligi to‘g‘risida shartnoma imzolasa-da, aslida uning vassaliga aylantirilgan edi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Xiva xonligining bosib olinishidagi dastlabki harakatlar haqida gapiring.
2. Xivaga qarshi Kaufman nima uchun uzoq vaqt tayyorgarlik ko‘rdi?
3. Xivaga qarshi yurish qanday tashkil qilindi?
4. Gandimiyon shartnomasi Xiva xonligi ahvoliga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

1717-yilda A.Bekovich-Cherkasskiy, 1839-yilda V. Perovskiy boshchiligidagi qo‘shinlarning Xiva xonligiga hujumi muvaffaqiyatsiz tugagan.

MA’LUMOT UCHUN

Rossiya imperiyasi XIX asrning 50–60-yillarida harbiy istilochilik yo‘li bilan Qo‘qon xonligi hududining bir qismini bosib oldi. Bu davrda xonlik yerlari ancha qisqarib, xazinaga tushadigan daromadlar kamaydi. Rossiya savdogarlariga katta imkoniyatlar berildi. Urush natijasida ko‘rilgan zararlar xalq zimmasiga tushdi, soliq va majburiyatlar ko‘paydi. Buning oqibatida Qo‘qon xonligida ichki nizolar, xalq noroziligi kuchaydi. Ichki nizolarni bartaraf eta olmagan Xudoyorxon Makkaga haj ziyoratiga boradi va u yerdan qaytib kelayotganda Afg‘onistonda vafot etadi.

1875-yilda Xudoyorxon o‘rniga taxtga Nasriddinbek o‘tirdi. Qo‘qon xonligida siyosiy vaziyat keskinlashib, qo‘zg‘olon butun vodiyni qamrab oldi. Kaufman qo‘shinlari ham vodiyda harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Yangi xon 1875-yil 22-sentyabrda Qo‘qon xonligi taslim bo‘lganligi haqidagi shartnomani imzolaydi.


Shartnomaga ko‘ra Qo‘qon xoni tashqi siyosatda hech qanday bitimlar tuza olmasligi, ikki million rubl tovon to‘lashi, Sirdaryoning o‘ng sohilidagi yerlar – Namangan va Chust Rossiya ixtiyoriga o‘tganligi belgilangan edi. Bu yerlarda tashkil qilingan Namangan bo‘limiga general M. Skobelev boshliq etib tayinlanadi.

Nasriddinbek imzolagan shartnomadan norozi bo‘lgan aholi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Ulardan biriga Mulla Is’hoq Mullo Hasan o‘g‘li «Po‘latxon» nomi bilan rahbarlik qildi. 1875-yil oktyabr oyi boshida Po‘latxonga qarshi Skobelev boshchiligidagi harbiy qo‘shin hujum qiladi. 1876-yil fevral oyiga kelibgina harbiy qurol ustunligi bilan xonlik bosib olindi. Po‘latxon va uning tarafdorlari qatl qilindi. 1876-yil fevralda Rossiya imperiyasi hukumatining Qo‘qon xonligi tugatilganligi to‘g‘risidagi farmoni e’lon qilindi. Shu tariqa Qo‘qon xonligi hududi o‘rnida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Farg‘ona viloyati tashkil qilindi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Avliyoota, Oqmachit, Chimkent, Toshkent, Xo‘jand shaharlarining qo‘ldan ketishi Qo‘qon xonligiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
2. Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya vassaliga aylanishi Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, tashqi siyosatiga qanday ta’sir ko‘rsatdi? Fikringizni asoslang.

Po‘latxon asli ismi Is’hoq Hasan o‘g‘li bo‘lib, Qo‘qon xoni Olimxon (1801-1810) nabirasi Po‘latxon nomidan soxta xon sifatida 1873–1876-yillarda qo‘zg‘olonga rahbarlik qilgan.



BILASIZMI?


O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi to‘rt bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich – 1847–1865-yillarda Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligining shimoli-g‘arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilindi. Istilo etilgan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Turkiston viloyati tashkil etildi.


Ikkinchi bosqich – 1865–1868-yillar Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich – 1873–1879-yillar davomida Xiva xonligi yerlarining bir qismi va Qo‘qon xonligining yerlari to‘liq bosib olindi.

To‘rtinchi bosqich – 1880–1885-yillarda turkmanlar bo‘ysundirildi.



Turkiston general-gubernatorligining ma’muriy-hududiy tuzilishi



DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari mag‘lubiyati sabablarini sanab bering.
2. Yillarga mos javoblarni toping.

1	1875-yil 22-sentyabr	a	Xiva va Qo‘qon xonliklari yerlari bosib olindi.
2	1864–1885-yillar	b	Nasriddinbek Kaufman bilan shartnoma imzoladi.
3	1847–1865-yillar	c	Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi.
4	1873–1879-yillar	d	Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligining shimoli-g‘arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilindi.
5	1865–1868-yillar	e	Rossiya imperiyasining uzoq davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosqinchilik urushlari olib borildi.

TURKISTON O‘LKASIDA SIYOSIY-MA’MURIY BOSHQARUV TIZIMI

BUGUN DARSDA

- Turkiston o‘lkasining ma’muriy-hududiy bo‘linishi va boshqaruvidagi o‘zgarishlar. Boshqaruvning mustamlakachilik tartiblari.
- Mustamlakachilik boshqaruvining xususiyatlari.

MULOHAZA UCHUN


1. Egallangan xonliklarning hududlarini kimlar boshqargan?
2. Bunday siyosatdan qanday manfaatlar kutiladi?

MA’LUMOT UCHUN

Bosib olingan hududlarda mustamlakachilik siyosatining to‘liq amalga oshirilishida boshqaruv tartiblari muhim sanaladi.

Hududlarni boshqarish harbiy zobitlar qo‘liga o‘tadi. Boshqaruv tizimi *«harbiy-xalq boshqaruvi»* nomi bilan gubernator qo‘lida harbiy va fuqarolik ishlarini mujassamlashtirgan. Viloyat bo‘limlarga bo‘linib, ularning boshliqlari bir vaqtning o‘zida harbiy komendant ham hisoblangan. Bo‘lim boshliqlariga mahalliy aholi ustidan to‘liq nazorat qilish vakolati berilgan.

Rossiya imperiyasi Toshkentni bosib olgandan so‘ng, 1865-yil Aleksandr II «Turkiston viloyatini idora qilish to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizom»ni tasdiqlaydi.



Mahalliy aholidan tuzilgan posbonlar



Qozilar majlisi

MA'LUMOT UCHUN

General-gubernatorlik devoni katta vakolatlarga ega bo'lgan asosiy ijrochi organ hisoblangan. Turkiston o'lkasi ma'muriy-hududiy jihatdan viloyatlarga bo'linib, ularni o'z qo'lida fuqarolik va harbiy hokimiyatni birlashtirgan harbiy gubernatorlar boshqargan.

Viloyatlar uyezdlarga bo'linib, ular harbiy zobitlar boshqaruvida bo'lgan. Uyezdlar uchastkalarga, volostlarga, qishloq va ovullarga bo'lingan. Uchastkalarni uchastka pristavlari boshqargan. Yuqori organlar nazoratida bo'lgan mahalliy aholi vakillaridan iborat quyi boshqaruv organlari va soliq tizimi saqlab qolingan.

Boshqaruv tizimining quyi bosqichida volost boshlig'i (mingboshi), qishloq oqsoqoli, ovul boshlig'i, xalq sudyalari (o'troq aholida qozilar, ko'chmanchi aholida biylar) va ularning yordamchilari, bosh mirob, mirob, yuzboshi, ellikboshi, o'nboshi kabi lavozimlarda mahalliy aholi vakillari ish olib borgan.

1867-yildagi «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» loyihasi asosida o'troq aholi bir bosqichli tizim shaklida, ya'ni oqsoqolliklarga, chorvador aholi esa ikki bosqichli tizim ko'rinishidagi volost va ovullarga birlashtirilgan. Har bir oqsoqollik 100–200 xonadon, ovul 100–200 o'tov, har bir volost esa 1000–2000 o'tovdan iborat holda tashkil qilinishi belgilangan.

BILASIZMI?

Turkiston general-gubernatori S.Duxovskoy: «Turkiston o'lkasi boshqa o'lkalarga nisbatan tarixiy o'tmishi, etnografik xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida e'tibor berilishini talab qiladi», – degan edi.

IJODIY FAOLIYAT


1. Nima sababli Rossiya hukumati quyi boshqaruv tizimini saqlab qolgan?
2. Nima uchun S. Duxovskoy Turkiston o'lkasi alohida e'tiborni talab qiladi, deb hisoblagan?

MA’LUMOT UCHUN

Turkiston o‘lkasi bosib olingan davrdan boshlab to‘liq mustamlaka sifatida boshqaruv tartiblariga asoslangan ma’muriy-hududiy birliklar va ularning boshqaruv tartiblari joriy qilib borilgan. Imperiyaning markaziy hududlaridan O‘rta Osiyo yerlariga aholini ko‘chirib keltirish Rossiya hukumatining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan.


Ko‘chirib keltirilganlar yerlar va kerakli mablag‘lar bilan ta’minlangan. Aholini ko‘chirib keltirib joylashtirishdan yana bir maqsad bu o‘lkada mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda qo‘shimcha tayanch kuchlarga ega bo‘lish edi. Shuningdek, bu siyosat mahalliy aholini ruslashtirishga qaratilgan tadbirlardan biri bo‘ldi.

Karvon saroy




IJODIY FAOLIYAT

1. Nima uchun mahalliy aholi vakillari volost boshliqlari (mingboshilar), qishloq oqsoqollari, ovul boshliqlari, qozi, biy va ularning yordamchilari lavozimlariga tayinlangan?
2. Mazkur davrda Rossiya o‘lkalarida qanday ijtimoiy-siyosiy vaziyat yuzaga kelmoqda edi?



Oqsoqollar



Aravakashlar

MA’LUMOT UCHUN

1877-yilda Toshkentda «Shahar nizomi» joriy etilgan bo‘lib, unga muvofiq shahar boshqaruvi Dumaga o‘tgan edi. Duma a’zolarining 1/3 qismi Eski shahar, 2/3 qismi esa Yangi shahar hududidan saylangan. Bunga ko‘ra shaharning 80 minglik mahalliy aholisidan 21 nafar deputat, 3 900 kishilik, asosan ruslardan iborat Yangi shahar aholisidan esa 48 nafar deputat qatnashgan. Shahar xo‘jaligiga oid barcha ishlar Duma qo‘lida bo‘lgan. Dumaga rahbarlik qiluvchi shaxs general-gubernator tavsiyasi bilan harbiy vazir tomonidan tasdiqlangan.

1886-yil Aleksandr III tomonidan yangi «Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom» tasdiqlandi. Nizomga muvofiq Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Xo‘jand, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand uyezdlari uning tarkibiga kiritildi. Qurama uyezdining nomi Toshkent uyezdi deb o‘zgartirildi.

1886-yildagi «Nizom»ga muvofiq Turkiston general-gubernatorligining ma’muriy boshqaruvi yangi idora – Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to‘ldirilgan.

1885-yildan Buxoroda Rossiya imperatorining siyosiy agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Uning ruxsatisiz Buxoro amiri tashqi va ichki siyosatda mustaqil ish olib bora olmagan.

Vaqf yerlari (masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalarga tegishli yerlar) ayni vaqtda yashab va yerga ishlov berayotgan kishilarga ijaraga berilar edi.

Bu vaqtgacha vaqf mulkidan olingan daromadlar maktablar, madrasalar va masjid binolarini ta’mirlashga, xodimlarini moddiy ta’minlashga, diniy marosimlarni bajarishga, kerakli buyumlar olishga (gilam, joynamoz, diniy kitob) va boshqa tadbirlarga sarflangan.




Toshkent shahridagi Davlat banki bo‘linmasi

Yangi vaqf hujjatlarini tasdiqlash faqat general-gubernator roziligi bilan davlat soliqlari va majburiyatlaridan ozod qilmasdan amalga oshirilgan.

Vaqf hujjatlarini e'tirof etish, vaqf daromadlarining to'g'ri ishlatilishi ustidan nazorat qilish va ularni taftish qilish huquqi viloyat ma'muriyati ixtiyoriga o'tkazildi. Vaqf mulklarini nazorat qilish mustamlakachi hukumat vakillari qo'liga o'tishi bilan masjidlar va maktablarning moddiy ahvoli yomonlashdi.

Viloyat boshqaruvi





IJODIY FAOLIYAT

1. 1886-yildagi «Nizom» asosida an'anaviy yerga egalik qilish munosabatlariga qanday o'zgartirishlar kiritildi?
2. 1886-yildagi «Nizom» qanday oqibatlarga olib keldi?

1880–1890-yillarda mintaqaga ko'chib kelganlar hisobiga o'lkada ko'plab pravoslav jamoalari shakllanib, ular yashaydigan aholi punktlarida pravoslav cherkovlari qurilgan.



BILASIZMI?

1886-yildagi «Nizom»da hukumat tasarrufida qolayotgan bo'sh turgan davlat yerlariga rus aholisini joylashtirish muhim ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi. Ko'chirish siyosati bilan shug'ullanish o'lka ma'muriyati zimmasiga yuklatilgan. Ko'chib kelganlarga katta imtiyozlar berilgan. Ular mablag', turar joy, yer maydonlari, kreditlar bilan ta'minlangan. Ko'chib kelganlar 5 yil davomida soliqlardan ozod etilgan, keyingi 5 yil davomida soliqlarning yarmini to'lagan. Rossiyadan ko'chib kelganlar, asosan, qishloq aholisi bo'lgan. Ular uchun o'lka ma'muriyati maktab va cherkovlar qurishga mablag' ajratgan. Turkiston o'lkasida harbiy xizmatchilar yashab qolishlari va tomorqa yer olishlari mumkin bo'lgan.

IJODIY FAOLIYAT

Nuqtalar o‘rnini to‘ldirib, daftaringizga ko‘chiring:

1. 1886-yildagi «Nizom»ga ko‘ra Zarafshon okrugi ... viloyatiga aylantirildi.
2. Viloyat ... gubernatorlari, general-gubernator ... boshqaruvchisi, Turkiston harbiy ... shtabi boshlig‘i bu ...ning doimiy ... bo‘lishgan.
3. ...-yil Rossiya imperatorining ... agentligi ... yo‘lga qo‘yildi.
4. Nima uchun imperiya hukumati yerga egalik qilishni to‘liq o‘z qo‘liga olishga harakat qildi?

XIX asr oxirida Turkiston o‘lkasiga chegaradosh hududlar





XIX asr. Qozixona. Toshkent shahri.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi kimlardan iborat bo‘lgan?
2. 1886-yilgi «Nizom» bo‘yicha boshqaruvda qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
3. Rossiya imperatorining siyosiy agentligi vazifasi nimadan iborat edi?
4. Xaritadan Turkiston general-gubernatorligidagi viloyatlarni aniqlab, qaysi viloyatlarga bugungi O‘zbekistonning qaysi hududlari kirishini belgilang.
5. Har bir matndan tarixiy atamalarni ajrating va lug‘at yordamida ularning mazmunini aniqlang.
6. Mustamlakachi hukumat vaqf yerlariga nisbatan qanday siyosat olib bordi?
7. Ko‘chirib keltirilganlarga qanday imtiyozlar berilgan?

TURKISTONDA ROSSIYA IMPERIYASIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI



BUGUN DARSDA

- Turkistonda milliy ozodlik harakatlarining sabablari.
- Toshkentda «Vabo isyoni» va uning oqibatlari.
- 1892-yil 18-iyundan «Harbiy holatda deb e'lon qilingan joylar haqida Qoida»ning kuchga kirishi.
- Andijon qo'zg'oloni va uning natijalari.




MULOHAZA UCHUN

1. Xalqning milliy an'analari, tarixiy o'tmishi, etnografik xususiyatlarining tahqirlanishi qanday oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin?
2. Vabo qanday kasallik, u haqida nimalar bilasiz?



MA'LUMOT UCHUN

Rossiya sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan uy-ro'zg'or buyumlari, ayniqsa, to'qimachilik mahsulotlari bilan O'rta Osiyo bozorlarining to'ldirilishi natijasida hunarmandchilikning ko'plab turlari inqirozga uchradi. Bu vaqtga kelib iqtisodiy qiyinchiliklar, yashash sharoitining yomonligi, soliqlarning ko'pligi, mehnat majburiyatlarining og'irligidan mahalliy aholining ahvoli yomonlashib ketdi. Natijada, XIX asr oxirida mustamlakachilikka qarshi o'lkaning turli joylarida norozilik chiqishlari bo'lib turdi. Jumladan, 1878-yili Mingtepada (hozirgi Andijon viloyati, Marhamat tumani) mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi Yetimxon boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Uni mustamlakachi hukumat kuch bilan bostirdi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Nima deb o'ylaysiz, O'rta Osiyo bozorlariga Rossiya tovarlarining kirib kelishi mahalliy hunarmandlarning bozorlari kasod bo'lishiga asosiy sabab bo'ldimi? Fikringizni asoslang.
2. Rossiya imperiyasi o'lkani bosib olmaganida boshqa davlatlarning tovarlari kirib kelarmidi? Bozorning kasod bo'lishiga olib kelgan omillarni aniqlang.
3. Siz shu davrda hunarmand bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?



IJODIY FAOLIYAT

1. Mustaqil izlanib, dunyo siyosatida mustamlakachi davlatlar tomonidan mustamlaka boshqaruvining qanday yo‘nalishlari mavjud ekanligini aniqlang.
2. Sizningcha, Rossiya sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan O‘rta Osiyo bozorlarining to‘ldirilishi mahalliy bozor va ishlab chiqarilishiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

MA’LUMOT UCHUN

1879-yilning kuzida Farg‘onada, 1880-yilning noyabrida Xo‘jand va O‘ratepa tumanlarida, 1882-yilning boshlarida Namangan, 1885-yilning yozida Farg‘ona vodiysida mahalliy xalq harakatlari qaytadan avj olib, Andijonda Darvishxon boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Endi xalq norozilik harakatlari qatnashchilari o‘z usullarini o‘zgartirib, boylar va volost boshliqlarining qarorgohlariga hujum uyushtirdilar. Shu yillarda qo‘zg‘olon birin-ketin butun viloyatga yoyildi.

1892-yildan mustamlakachilar ma’murlarga qarshilik ko‘rsatgan oddiy fuqarolarni bevosita harbiy dala sudiga bera boshladilar. «Gunohkorlar»ni ochiqchasiga qatl etish orqali odamlarni qo‘rqitish endilikda mustamlakachilar quroliga aylandi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Mustamlakachilik jabr-zulmining kuchayishi, asosan, qanday ko‘rinishlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi?
2. Sizningcha, mustamlakachi hukumatning Turkistonda olib borgan siyosatining maqsad va vazifalari nimadan iborat edi?
3. Xalq hayotining qashshoqlashishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?
4. Nima uchun xalq harakatlari XIX asrning 70-yillari oxirida aynan Farg‘ona vodiysida kuchaydi?
5. XIX asrning 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlarida Turkistonning qaysi volost va uyezdlarida xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tdi?

1892-yilning mart oyida Afg‘onistonda vabo kasalligi tarqaldi. Bahor faslining oxirlariga kelib bu kasallik Samarqand viloyatining Jizzax uyezdida, iyunda esa Toshkentda ham qayd qilindi.

Toshkent shahar ma’muriyati kasallikka qarshi tadbirlar qatorida shahardagi 12 ta qabristonni yopib qo‘ydi. Shu kasallikdan vafot etgan kishilar uchun shahardan chekka joyda maxsus qabristonlar ochish va’da qilindi.

Lekin amalda shahardan tashqarida faqat bitta qabriston ochildi. Sanitariya tadbirlari xalqqa ishonarli qilib tushuntirilmadi. Bundan tashqari, shifokor-feldsherlar yetishmasligi sababli bemorlarni tekshirish ko‘pincha uchinchi yo to‘rtinchi kuni o‘tkazilar edi. Bu vaqtda aholi o‘rtasida mustamlakachi ma’murlar suvni, shifokorlar esa bemorlarni qasddan zaharlayotgani, murdalarning qabrlardan chiqarib tashlanayotgani to‘g‘risidagi mish-mish gaplar tarqaldi.

Tarixda «Vabo isyoni» (yoki «Toshotar voqeasi») deb nom olgan qo‘zg‘olon 1892-yil 24-iyunda boshlandi.

Bu voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlardan biri shunday yozgan edi: «Qo‘zg‘olonchilarning maqsadi bo‘layotgan kamsitishlarni to‘xtatishga erishish edi.

Olomon shahar boshlig‘i S. Putinsev huzuriga chora ko‘rish to‘g‘risidagi talab bilan yo‘lga tushadi. Olomonda o‘qotar qurollar ham yo‘q bo‘lib, ular taxminan 400 kishi atrofida edi».

Eski shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub olomondan qo‘rqib shahar boshlig‘i huzuriga boradi. Xalq S. Putinsevdan oqsoqolni ular ixtiyoriga berishni talab qildi. Putinsev esa muzokara o‘rniga kuch ishlatishni afzal ko‘rdi.

Bu esa norozilikni kuchaytirib yubordi. Putinsev odamlarini tor-mor etib, o‘zini esa kaltaklashdi. Toshkent oqsoqolining uyiga o‘t qo‘yishdi. S. Putinsev va uning mirshablarini do‘pposlagan xaloyiq mahkamani ham ostin-ustun qildi. Qo‘zg‘olonni bostirish uchun kazaklar polki va bir rota askar chaqirildi.





IJODIY FAOLIYAT

1. XIX asrning 90-yillarida mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan «Vabo isyoni»ning asl ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sabab va oqibatlarini daftaringizda jadval ko‘rinishida ifodalang. Fikringizni sinfda kichik taqdimot ko‘rinishida himoya qiling.
2. «Vabo isyoni» voqealari mustamlakachi ma’muriyatni qanday islohotlar qilishga majbur qildi?

MA’LUMOT UCHUN

O‘lkadagi norozilik harakatlari kuch bilan bostirildi, qo‘zg‘olon ishtirokchilari jazolandi.

Toshkentdagi qo‘zg‘olondan so‘ng o‘lkada *mirshablik holati* joriy etildi.

Turkiston general-gubernatori «kuchli muhofazada» deb e’lon qilingan joylarda majlis yig‘inlarini tarqatish, savdo-sanoat korxonalarini yopish, istalgan odamni surgun qilish, jarima solish va yana boshqa huquqlarni oldi. «Favqulodda muhofazada» deb e’lon qilingan joylarda esa butun hokimiyat general-gubernator yoki u tayinlagan bosh noib qo‘liga o‘tishi belgilandi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Turkistonda mustamlakachi hukumat siyosatining asosiy yo‘nalishida nimalar yaqqol ko‘rinadi?
2. O‘lkada Turkiston general-gubernatoriga qanday maqsadda keng vakolatlar berildi?



MA’LUMOT UCHUN



1886-yilgi «Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ga ko‘ra Rossiyadan ko‘chib kelganlar uchun yer fondi tashkil etildi.

1891-yilda Rossiyadan Farg‘ona viloyatiga ko‘plab aholining ko‘chirib keltirilishi va joylashtirilishi yer taqchil va aholi zich yashaydigan vodiyning ahvolini nihoyatda yomonlashtirib yubordi. Shubhasiz, imperiya hukumatining bunday harakatlari mahalliy aholi noroziligining yanada ortib borishiga sabab bo‘ldi.

Imperiya hukumati tomonidan o‘lkadagi vaqf mulklari qisqartirildi. Vaqf mulklariga tegishli yerlarni tugatishga qaratilgan chora-tadbirlar esa vaqf yerlarining katta qismi davlat mulkiga aylantirilishiga olib keldi.

Bu keng xalq ommasining keskin noroziligini keltirib chiqardi.





IJODIY FAOLIYAT

1. 1898-yil Andijon qo‘zg‘oloni boshlanishiga sabab bo‘lgan omillar nimalardan iborat? Fikringizni ko‘chirish siyosati bilan mantiqiy bog‘lab, xulosangizni daftaringizga asoslab yozing.
2. Sizningcha, mustamlakachilikka qarshi qo‘zg‘olonlar Turkiston o‘lkasining deyarli barcha hududlarida muttasil davom etishining sabablari nimalardan iborat bo‘lgan?

MA’LUMOT UCHUN



Hibsga olingan Dukchi eshon

1898-yilda mahalliy xalqlarning mustamlakachilarga qarshi qaratilgan Andijon qo‘zg‘oloni boshlandi. Qo‘zg‘olonga Dukchi eshon (Muhammad Ali) rahbarlik qildi.

Dukchi eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar ikkiga bo‘linib, ularning biriga Ziyovuddin maxsum boshchilik qildi.

Qo‘zg‘olonchilarning safi kengayib bordi. Ular Andijondagi harbiy kazarmaga hujum qildilar. Ammo harbiy kuchlar bilan bo‘lgan to‘qnashuv oqibatida qo‘zg‘olonchilar chekinishga majbur bo‘ldilar.

General-gubernator N. Korolkov qo‘zg‘olonchilarni batamom yo‘q qilishga qaratilgan jazo ekspeditsiyasiga shaxsan rahbarlik qildi. Dukchi eshon va uning safdoshlari jazolandi.

1898-yilda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon mahalliy aholining o‘z jonlarini xavfga qo‘yib, mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash olib borishlari mumkinligini ko‘rsatdi. Ular qo‘llariga qurol olib, toptalgan haq-huquqlari, orzu-umidlari uchun jang qildilar.

Garchi 1898-yilgi qo‘zg‘olon tor-mor etilgan bo‘lsa-da, mahalliy xalqlarning mustaqillik va ozodlik uchun kurashlarini to‘xtata olmadi. Mustamlakachilikka qarshi qo‘zg‘olonlar Turkiston o‘lkasining deyarli barcha hududlarida davom etdi.

Eshon – dindorlar orasida obro‘ qozongan diniy rahnamo unvoni.
Dukchi (forscha – yig, duk) – charxning yigirilayotgan ip o‘ralib boradigan qismi. Duk yasovchi hunarmand dukchi deyilgan.





Qo‘lga olingan qo‘zg‘olonchilar, 1898-yil

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Andijon qo‘zg‘oloni boshlanishi sabablarini sanab bering.
2. Qo‘zg‘olonning shafqatsiz bostirilganligini qanday dalillarda ko‘rish mumkin?
3. Bu qo‘zg‘olonning ahamiyati nimada?
4. Turkistonda mustamlakachilikka qarshi qo‘zg‘olonlarni xronologiya tartibida daftaringizga yozing.
5. «Vabo isyoni» deb tarixda nom olgan qo‘zg‘olonda xalq vakillarining asosiy talablari nimalardan iborat edi?
6. Dukchi eshon qo‘zg‘olonining mag‘lubiyati sabablarini tahlil qiling.
7. Bilimingizni sinab ko‘ring, to‘g‘ri javobni toping.

1	1879-yilning kuzida	a	Tarixda «Toshotar voqeasi» deb nomlangan qozg‘olon boshlandi.
2	1880-yilning noyabrida	b	Afg‘onistonda vabo kasalligi tarqaldi.
3	1892-yil 24-iyunda	c	Rossiyadan aholi Farg‘ona viloyatiga ko‘plab ko‘chirib keltirildi.
4	1892-yilning martida	d	Xo‘jand va O‘ratepa tumanlarida xalq qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tdi.
5	1891-yilda	e	Farg‘onada mahalliy aholi ishtirokida xalq qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tdi.

BIRINCHI JAHON URUSHINING BOSHLANISHI VA UNING TURKISTONGA TA'SIRI


BUGUN DARSDA

- Birinchi jahon urushining Turkistonga ta'siri.
- Mardikorlikka safarbarlikning e'lon qilinishi.
- Xalq norozilik harakatlari.

MULOHAZA UCHUN

1. Jahon urushi atamasiga ta'rif bering.
2. Birinchi jahon urushi qachon va qanday sabablarga ko'ra boshlandi?
3. Bu urushda qaysi davlatlar qatnashdi? Bu davlatlarning maqsadlari nimalardan iborat edi?
4. Rossiyaning mustamlakalariga bu urush qanday ta'sir ko'rsatdi?

XX asrning boshlarida jahondagi yirik davlatlarning o'zaro munosabatlari keskin ko'rinish oldi. Oqibatda 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushida bir tomondan Rossiya, Angliya va Fransiya – Antanta, ikkinchi tomondan Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya boshchiliklarida tuzilgan harbiy ittifoqlar (jami 38 davlat) qatnashdi.



MA'LUMOT UCHUN

Rossiya imperiyasi Birinchi jahon urushida ishtirok etishi munosabati bilan ommaviy safarbarlik e'lon qildi. Safarbarlik Rossiyaning mustamlakalariga, jumladan, Turkistonga ham tegishli edi. Unga ko'ra, Turkiston o'lkasidan urushga 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan aholining yevropalik qismi vakillari chaqirildi.

Ishchi kuchi sifatida erkaklarning urushga olinishi oilalarning asosiy boquvchisidan ajralishiga va ularning og'ir ahvolga tushishiga sabab bo'ldi. Mahalliy aholidan arzon mehnat kuchi sifatida foydalanishga harakat qilindi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Rossiya imperiyasi tomonidan Birinchi jahon urushi masalasidagi ommaviy safarbarlik nima sababdan aholining yevropalik qismi hamda mahalliy qismi uchun alohida tarzda olib borildi?
2. Turkiston aholisi uchun Birinchi jahon urushiga ommaviy safarbarlik qanday natijalar bilan yakunlandi?




MA'LUMOT UCHUN

1914-yilda Turkistonda favqulodda muhofaza holati e'lon qilindi. Bu holat Turkiston aholisi uchun noodatiy bo'lganligi uchun turli ziddiyatlar kelib chiqa boshladi.

Davlat moliyasi inqirozga yuz tutdi. Talafotlar o'rnini to'ldirish va harbiy xarajatlar o'sishini qoplash maqsadida Turkistonda paxtaga o'zgarmas davlat narxi joriy etildi. Narxlar umumiy o'sishi sharoitida bu narx paxtakorlarning hosil yetishtirishdagi xarajatlarini qoplay olmas edi.

Favqulodda holat tartibini buzganlar 50 so'mgacha jarima to'laydigan yoki 3 oygacha qamoq jazosiga hukm qilinadigan bo'ldi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Birinchi jahon urushida Rossiya, Angliya va Fransiya davlatlaridan iborat ittifoq – Antantaga birlashishiga sabab bo'lgan omillarni «Jahon tarixi» darsligida olingan bilimlaringizga tayanib asoslang.
2. Nega mahalliy aholi Birinchi jahon urushida harbiy xizmatga jalb qilinmadi?
3. Erkaklarning urushga yuborilishi o'lka hayotiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
4. Urushning Turkiston o'lkasidagi aholi turmush sharoiti, narx-navo, qishloq xo'jaligiga ta'siri bo'ldimi? Javobingizda ushbu davrda yashagan insonlarning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini inobatga oling.

IJODIY FAOLIYAT

1. Sizningcha, 1914-yilda Turkistonda favqulodda muhofaza holati e'lon qilinishiga qanday omil sabab bo'ldi va bu holat mahalliy aholi uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
2. Birinchi jahon urushi Rossiya iqtisodiyotining qaysi jihatlarini ko'rsatib berdi?

MA'LUMOT UCHUN

Urush ketayotgan joylardagi vayronagarchiliklarni tugatish, mudofaa inshootlarini qurish, urushga oziq-ovqat va qurol-yarog'larni tayyorlash va ularni joylarga yetkazish ishlari katta muammoga aylandi. Bu ishlarni amaliy boshqarish va tashkil qilish umuman izdan chiqib ketdi.

Yuzaga kelgan muammoni hal qilish uchun imperiya Turkiston, Sibir va Kavkazdagi tub aholidan front orqasidagi ishlarda foydalanishga qaror qiladi. Natijada erkaklar front ortidagi ishlarni bajarishga safarbar qilina boshlandi.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. «Shum bola» filmini ko'ring va davrdagi ijtimoiy jarayonlarga baho bering.
   1) Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar.
   2) Xalqning turmush tarzi.
   3) Aholining Birinchi jahon urushiga munosabati.
2. Nima uchun mardikorlikka qarshi harakatlarning keng ommaviy tus olishidan mustamlaka hukumati, o'lka va viloyat ma'murlari xavotirga tushdi?
3. 1914-yilda Turkistonda favqulodda muhofaza holatini e'lon qilishdan maqsad nima edi?



TURKISTONDA 1916-YILGI QO‘ZG‘OLONNING BOSHLANISHI



BUGUN DARSDA

- 1916-yildagi mardikorlikka qarshi qo‘zg‘olon.
- Jizzax qo‘zg‘oloni.
- Qo‘zg‘olonning oqibatlari.



MULOHAZA UCHUN

1. «Mardikor», «mardikorlik» deganda nimani tushunasiz?
2. Rossiya imperiyasiga mardikorlar nima uchun kerak edi?



MA’LUMOT UCHUN

Turkiston mahalliy aholisining front ortida ishlash uchun mardikorlikka olinadiganlari soni viloyatlar bo‘yicha taqsimlandi. Masalan, Farg‘ona viloyatida xonadonlarning har beshtasidan bir kishi mardikorlikka olingan. Bu mahalliy xalqning kuchli e’tirozlariga sabab bo‘ldi.

Mardikorlikka boradiganlarning ro‘yxatini tuzishda Turkiston mahalliy ma’muriyati vakillari adolatsizliklarga yo‘l qo‘ydilar. Hatto oilada bir nechta erkak bo‘lishiga qaramasdan badavlat xonadon vakillari pora evaziga ro‘yxatga kiritilmagan. Lekin kambag‘al oilalardan garchi bir erkak bo‘lsa ham, u ro‘yxatga olindi. Bunday nohaqliklar xalq ommasining noroziligini yanada kuchaytirgan.

Mahalliy aholi o‘rtasida mardikorlikka olishga qarshi keng ommaviy chiqishlar boshlanib ketdi. Samarqandning Urgut qishlog‘ida, keyinchalik, Siyob, Mahalla, Xo‘ja Ahror, Angorda, 1916-yilning iyulida Dahbedda norozilik chiqishlari bo‘lib o‘tdi. Namoyishchilar mahalliy boshqaruv vakillarini kaltaklab, ro‘yxatlarni yirtib tashlaganlar.



IJODIY FAOLIYAT

1. Turkistonda mardikorlikka olishga qarshi qo‘zg‘olon qanday yakunlandi?
2. Qo‘zg‘olon boshlanishiga nima sabab bo‘lgan?
3. Qo‘zg‘olonchilarning maqsadlari nima edi?
4. «Mardikorlikka ro‘yxatga olishdagi adolatsizlik» deganda nimani tushundingiz?



IJODIY FAOLIYAT

1. Jizzax qo‘zg‘oloni qay holatda boshlandi?
2. Qo‘zg‘olon rahbarlari kimlar edi va ular qanday yo‘l tutishdi?
3. Jizzax qo‘zg‘oloni qanday bostirildi?
4. Qo‘zg‘olonchilarning yengilishiga nimalar sabab bo‘lgan?

MA’LUMOT UCHUN

1916-yil Jizzaxda mardikorlikka qarshi ommaviy qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Tez orada u boshqa shaharlarga, jumladan, Toshkent, Samarqand va ko‘plab atrofdagi qishloqlarga yoyildi. Jizzax shahrida Damin kulol boshchiligida hunarmandlar mardikorlikka olish bo‘yicha ro‘yxatni talab qilib qishloq oqsoqoli huzuriga bordilar.

Oqsoqol ro‘yxatni bermay, to‘plangan odamlarni haqorat qildi. Bu holat aholining keskin noroziligini keltirib chiqardi. Shundan keyin ketmon, tayoqlar bilan qurollangan qo‘zg‘olonchilar Jizzaxning yangi shahar qismiga yo‘l oladi.

Jizzax qo‘zg‘oloni ishtirokchilari mustamlakachi ma’muriyatga tegishli bo‘lgan harbiy, ma’muriy binolar va boshqa joylarga hujum qildilar. Turkistonda harbiy holat e’lon qilindi.

Bu vaqtda mustamlakachi hukumat qo‘zg‘olonni bostirish va uning ishtirokchilarini jazolash choralarini ko‘rdi.

Qo‘zg‘olon rahbarlari va faol ishtirokchilari qo‘lga olinib, o‘lim jazosiga hukm etildi. Qo‘zg‘olon ko‘tarilgan qishloqlarga o‘t qo‘yildi. Ularning oila a’zolari ham jazoga tortildi.

Qo‘zg‘olonda ishtirok etgan, unga xayrixoh bo‘lganlar qo‘lga olindi. Hukumatga yordam bermagan aholi uylaridan cho‘lga haydab yuborildi.



MA’LUMOT UCHUN

Qo‘zg‘olonchilar mustamlakachi hukumatga qarshi oddiy ish qurollari bilan jang olib bordi. Bundan tashqari, ularning aksariyati dehqonlar, hunarmandlar bo‘lganligi va harbiy sohadan mutlaqo bexabar ekanligi qo‘zg‘olonning mag‘lubiyatga uchrashiga sabab bo‘ldi.

Qo‘zg‘olon bostirilgach, xalq boshiga juda katta musibatlar tushdi. **Birinchidan,** aholisi qo‘zg‘olonda qatnashgan Jizzax atrofidagi qishloqlar yondirib yuborildi, oqibatda ko‘pchilik uy-joysiz qoldi.

Ikkinchidan, qo‘zg‘olon yoz faslida bo‘lib o‘tganligi bois ekinzorlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari nobud bo‘ldi. Bu esa oziq-ovqat taqchilligi, narx-navoning ko‘tarilishi tirikchilik qilishning qiyinlashishiga olib keldi.

Uchinchidan, qo‘zg‘olon aholi orasida ko‘plab qurbonlar bo‘lishiga olib keldi.

Turkiston aholisining mardikorlikka safarbar qilinishi mahalliy aholining ko‘plab olilalarini boquvchisiz qoldirdi.

IJODIY FAOLIYAT

Nuqtalar o‘rnini to‘ldirib, daftaringizga ko‘chiring:

Birinchi jahon urushi ... boshlandi va unda ... davlatlar ishtirok etdi. Birinchi jahon urushi vaqtida ... aholi vakillari mardikorlikka olindi. Jizzax qo‘zg‘oloni ... yilda boshlandi.




1916-yil qo‘zg‘oloniga qarshi otlangan qurolli kuchlar



MA’LUMOT UCHUN

1916-yilgi qo‘zg‘olonlar mustamlakachi hukumatni qattiq sarosimaga soldi. Bu qo‘zg‘olon Turkiston xalqlarining o‘z huquqlarini poymol qilishlaridan qattiq norozi bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Mustamlaka hukumati ba’zi choralar ko‘rishga, yengilliklar yaratishga va aholi bilan murosa qilishga majbur bo‘ldi. 1916-yilgi qo‘zg‘olon butun mustamlakachilik davomida Turkistondagi eng yirik qo‘zg‘olon sifatida tarixda «Jizzax fojiasi» degan nom bilan muhrlandi.



DARSDAN SABOQ CHIQARIB

Berilgan matnni o‘qing va javob bering.

1. «G‘alla yetishmay qimmatchilik bo‘la boshladi». *Qahatchilik* va *qimmatchilk* deganda nimani tushundingiz?
2. «To‘rt yil davom etgan muhorabaning ko‘b nimarsalarga zarari tegdi. Jannatdin nishona bo‘lg‘on buyuk Turkiston qit’asida g‘alla yetishmay qimmatchilik bo‘la boshladi. Hozir emdi qimmatchilik dahshatli qahatlikka aylanmakda...» Miyon Buzruk. Muallif fikrini izohlang.
3. 1916-yilgi qo‘zg‘olonlar boshlanish va yengilish sabablarini sanab bering.
4. 1916-yildagi qo‘zg‘olonlar qanday oqibatlarga olib keldi?

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASRNING BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI

BUGUN DARSDA


- Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli.
- Soliq va majburiyatlar.
- Xalq qo‘zg‘olonlari.
- Hunarmandchilik.
- Savdo-sotiq munosabatlari.

MULOHAZA UCHUN

1. Rossiya imperiyasi istilosi natijasida amirlik taqdiri nima bo‘lgan edi?
2. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi qanday asosda tashkil qilingan edi?

MA’LUMOT UCHUN

XIX asr oxirida Buxoro amirligida Buxorodan tashqari Chorjo‘y, Kitob, Shahrisabz, Denov kabi shaharlar amirlikning yirik savdo va hunarmandchilik markazlari hisoblangan.



Amirlik iqtisodining asosiy qismini qishloq xo‘jaligi sohasi tashkil etgan. Lekin dehqonlar har doim ham katta daromad olmagan. Ketma-ket kamhosil yillardan keyin baljuvonlik dehqonlar 1885-yilda mo‘l hosil yig‘ib olishdi. Soliq yig‘uvchilar esa nafaqat o‘sha yil uchun, balki o‘tgan kamhosil yillar uchun ham xiroj to‘lashni talab qilishdi.

Bu esa dehqonlarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Bunday soliq undirishni adolatsizlik deb bilgan dehqonlar uni to‘lashdan bosh tortdilar. Amaldorlar zo‘ravonligi va zulmi qo‘zg‘olonga sabab bo‘ldi. Qo‘zg‘olon 1885-yil iyul oyining oxirgi kunlarida ko‘tarilgan. Dehqonlar va amir Muzaffar lashkari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi. Tayyorgarlik ko‘rmagan va mehnat qurollari bilan ko‘chaga chiqqan dehqonlar mag‘lubiyatga uchradi. Qo‘zg‘olonchilar qo‘lga olinib, qatl etildi. 1888-yil Ko‘lob viloyatida boshlangan dehqonlarning norozilik harakatlari ham amir tomonidan bostirildi.



IJODIY FAOLIYAT

1. O‘ylab ko‘ringchi, nega bu davrda Buxoro amirligining markaziy shaharlari tarkibida Samarqand mavjud emas edi?
2. Ko‘lob bekligidagi qo‘zg‘olonni boshlanishiga nimalar sabab bo‘ldi?
3. Sizningcha, qo‘zg‘olonning oldini olish mumkinmidi?

MA’LUMOT UCHUN

Buxoro amirligida bu davrda ham xalq hunarmandchiligi rivojlanishdan to‘xtamadi. Buxoro gilamlariga nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham talab katta bo‘lib, amirlik savdogarlari ularni ko‘p miqdorda xorijga sotar edilar.

Ichki va tashqi bozorlarda Buxoro ip-gazlama matolari, ko‘nchilik, zardo‘zlik, kumush va oltin kandakorlik buyumlari, bo‘yoq va sovun mahsulotlari, ustalarning oltin va kumushdan yasagan buyumlari Sharq va G‘arbda xaridorgir bo‘lgan.



MA’LUMOT UCHUN

Buxoro amirligida azaldan rivojlanib kelgan o‘ziga xos ko‘rinishdagi hunarmandchilik mavjud bo‘lgan. Zargarlar yasagan mahsulotning barchasi nozik naqshlar bilan bezatilardi. Buxoro kulolchilik buyumlari bozori ham chaqqon bo‘lib, kulollar butun amirlik shaharlarida faoliyat olib borgan. Hunarmandlar daromadining aksariyat qismi behisob soliqlarni to‘lashga ketardi. Shu bois ular o‘z ustaxona va korxonalarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun qo‘shimcha mablag‘larga ega emasdi.

Buxoro amirligi hududi katta foyda keltiruvchi tranzit savdo uchun ham qulay bo‘lgan. 1888-yil amirlik hududi orqali dastlabki temiryo‘l o‘tkazildi. Buxorodan 15 kilometr masofada Yangi Buxoro stansiyasi qurilishi boshlab yuborildi. Bu yerda amir saroyi va Rossiya siyosiy agentining qarorgohi ham barpo etildi. Endilikda Buxoro amirligi temiryo‘l orqali Toshkent, Orenburg va Moskva bilan bog‘landi. Buxoroda Rossiya davlat banki bo‘limi, paxta tozalash zavodi, Yevropa namunasidagi mehmonxona barpo etildi. Eski Buxorodagi qo‘shbegi uyi va Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qarorgohi ilk paydo bo‘lgan telefon aloqasi bilan bog‘langan edi.



Yangi Buxorodagi (Kogon) temiryo‘l stansiyasi

IJODIY FAOLIYAT

Rossiya imperiyasi amirlik hududidan temiryo‘l o‘tkazishdan qanday manfaatlarni ko‘zlagandi?



Matolar sotish do‘koni



Buxorodagi maktab

BILASIZMI?

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida ta’lim tizimi o‘tgan asrlardan qolgan an’anaga muvofiq boshlang‘ich (maktablar) va yuqori (madrasa) bosqichlaridan iborat edi. Boshlang‘ich ta’lim muassasalarida asosan arab tili va alifbosida savod chiqarish, islom asoslarini egallash, axloqiy tarbiyaga urg‘u berilgan. Ularning moddiy asosini vaqf mulklari, ayrim shaxslardan tushgan xayri-ehsonlar tashkil etgan.

Bu davrda Buxoroda 350 ga yaqin an’anaviy (boshlang‘ich) maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Maktabxonada o‘qishga qabul qilish yoshi Buxoroda 5 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan davrni tashkil etgan. Ta’lim jarayoni esa 7–10 yilgacha davom etgan.

O‘g‘il bolalar maktablarining aksariyati masjidlar qoshida tashkil etilgan. Qizlar maktabida o‘qitish o‘g‘il bolalar o‘qiydigan masjidlar huzuridagi maktabxonadagi o‘qitishdan bir muncha farq qilgan. Bu yerda darslar tushlikkacha davom etgan. Qizlarning o‘qishi 7 yoshdan boshlanib, 13 yoshda tugar edi. Odatda qizlar uylarida ta’lim olishgan.



Madrasa talabalari



Buxorodagi rus-tuzem maktabi, 1898-yil

BILASIZMI?

O‘rta Osiyoda maktablar sonining ko‘pligini ko‘rgan rus olimi A. Middendorf musulmon aholisining ommaviy savodxonligini xalq ta’limi bo‘yicha Rossiya hukumatiga namuna sifatida ko‘tsatgan.

Maktabda sinflarga bo‘lish degan gap yo‘q, hamma o‘quvchi qizlar bir xonada bo‘yra ustida o‘tirib dars qilishardi... Biri alifbe o‘qisa, ikkinchisi «Haftiyak» o‘qir, uchinchisi «Qur’on» o‘qisa, to‘rtinchisi «Chahor kitob» o‘qir, beshinchisi «Hikmat» o‘qisa, oltinchisi Mashrabni o‘qirdi...

Bir kunda asosan ikki-uch soat o‘qilar, qolgan vaqt qizlar otinning xizmatini qilishardi...

«Haftiyak»ni bitirib Qur’onga o‘tmoqchi bo‘lsa, yoki Qur’onni bitirib «Chahor kitobi»ga o‘tmoqchi bo‘lsa, qizning ota-onasi otinga, uning eriga albatta bosh oyoq sarpo qilib kelishi shart edi.

Kibriyo Qahhorovaning
«Chorak asr hamnafas» kitobidan.

Maktabda o‘qiyotgan o‘quvchining muvaffaqiyati uchun ota-onasi domla (otinoyi)ga non, don (g‘alla) yoki pul bergan. Bundan tashqari, «bo‘yra puli», «ko‘mir puli», «supurgi puli» kabi «to‘lovlar» ham bo‘lgan. Har payshanba kuni keltiriladigan «payshanbalik noni» maktabdor domlaning asosiy haqi hisoblangan.

DARSDAN IJOBIY SABOQ CHIQARIB

1. Buxoroda soliqlarning oshib ketishiga nima sabab bo‘ldi? Soliqlarni oshirmasdan davlatni boshqarish mumkinmidi?
2. Ta’lim tizimi haqida qanday ma’lumotga ega bo‘ldingiz?
3. Ta’lim sohasining mamlakat rivojida qanchalik ahamiyati bor?

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASRNING BOSHLARIDA XIVA XONLIGI

BUGUN DARSDA

- Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli.
- Soliq va majburiyatlar.
- Xalq qo‘zg‘olonlari.
- Hunarmandchilik.
- Savdo-sotiq munosabatlari.

MULOHAZA UCHUN

1. Xiva xonligi qachon tashkil topgan?
2. Xiva xonligida davlat boshqaruvi qanday asosda tashkil qilingan edi? Buxoro amirligi va Xiva xonligining bir-biriga o‘xshash va o‘ziga xos tomonlari nimadan iborat edi?

MA’LUMOT UCHUN


Xiva xonligida 1873-yildan so‘ng hosildor yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o‘tishi oqibatida xonlik ma’muriyati sarf-xarajatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini yangi soliqlarni joriy etish yoki ilgari mavjud bo‘lganlarini oshirish yo‘li bilan qoplay boshladi.

Dehqonlar mehnati yer unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan. Xonlikda g‘alla yetishtirish qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i hisoblangan. Shu davrdan boshlab Rossiya bilan savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida paxta yetishtirishga ixtisoslashuv ham jadal kechdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida uy hunarmandchiligi hanuz saqlanib kelayotgan edi. Unda ip yigirish va to‘quvchilik, oyoq kiyimlar, gilamlar, kigizlar va boshqalar tayyorlanardi.

Har bir dehqon xo‘jaligi yordamchi daromad manbayi bo‘lgan uy hunarmandchiligi bilan shug‘ullanar edi. Deyarli har bir qishloqda ko‘nchi, etikchi, bo‘zchi, bo‘yoqchi, juvozchi va boshqalar faoliyat ko‘rsatishgan.

O‘rta Osiyoning Rossiya, qozoq juzlari, Kavkaz, Eron bilan savdo munosabatlari rivojlanishi ichki savdo-sotiqni ham jonlantirdi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi tovar-pul munosabatlarining o‘sishiga





Xiva xonligi vakillari Nikolay II taxtga chiqishi marosimida

imkoniyat yaratdi. Buning natijasida shaharlar qishloqlarga nisbatan jadal rivojlanib, yangi shaharlar vujudga keldi, eskilarining rivojlanish jarayoni tezlashdi.

Bu mamlakat iqtisodiy hayotida shaharlarning ahamiyati ortishiga olib keldi. XX asr boshlariga kelib Xiva, Yangi Urganch, Qo‘ng‘irot, Toshhovuz, Gurlan singari shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlarga aylandi. Bog‘ot, Mo‘ynoq, Taxta singari yangi shaharlar vujudga keldi. Shaharlarda mahalliy va Rossiya qo‘shma korxonalarining idoralari, sanoat korxonalari joylashgan edi. Rossiya imperiyasi va mahalliy kapital hamkorligi vujudga keldi. Mahalliy tadbirkorlar faoliyati, milliy kapital namoyandalarining sarmoyalari daromadi Rossiya bozori mahsulotlariga bevosita bog‘langan edi. Ular ikki davlat o‘rtasida bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun qo‘shma bank uyushmalarini tuzishga harakat qilishdi.



Xiva naqqoshlari



Ipak ishlab chiqarish

MA’LUMOT UCHUN

Xiva xonligida XIX asrning ikkinchi yarmida butun qoraqalpoq urug‘larini boshqarish, soliqlarni undirish, harbiy xizmatni o‘tash majburiyatlariga doir ishlarni tartibga solish maqsadida **beklarbegi** lavozimi joriy etilgan.

Qoraqalpoq hunarmandlari, asosan, ro‘zg‘or uchun zarur buyumlarni tayyorlash bilan shug‘ullangan. Ehtiyojdan ortgan buyumlar esa bozorga chiqarilgan. Ular o‘tovlarning atrofini o‘rash uchun matolar, tuya junidan guldor namatlar to‘qigan. Ularning xalq amaliy san’atida o‘tovlar uchun o‘ymakor eshiklar, uy-ro‘zg‘or buyumlari yasash, gilam to‘qish, kashtachilik rivojlangan. Qoraqalpoqlarda yog‘och va suyakka ishlov berish borasida qo‘li gul ustalar ko‘p bo‘lgan.

Qoraqalpoq urug‘larini biy va uning oqsoqollari boshqargan. Urug‘ biylarini Xiva xonlari tayinlab, uni tasdiqlovchi yorliq bergan. Xiva xonining ishonchini qozongan biylarning vakolatlari kengaytirilib, ularga alohida muruvvat ko‘rsatilgan.



BILASIZMI?

XIX asrning o‘rtalarida Yangi Urganchda 15 ta masjid va ikkita madrasa bo‘lgan. Gurlanda 6 ta masjid va 2 maktab, Shohobodda 2 ta maktab va 2 masjid, Shovotta 4 ta masjid va 1 madrasa, Xazoraspda 10 ta masjid, Qutlug‘ Inoq madrasasi faoliyat yuritgan.

Xiva xonligida masjid imomi o‘zining bevosita vazifasidan tashqari soliq to‘lovchilar hisobini yuritish, soliq yig‘ish, ba’zan esa suv taqsimoti bilan ham shug‘ullanar edi.

Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylantirilgandan so‘ng Xiva saroy kutubxonasidan 300 dona qo‘lyozma, 18 dona Qur’oni karim, 50 dan ortiq nodir kitoblar Kaufman tomonidan musodara qilingan.

Rossiya imperiyasi tomonidan Amudaryo bo‘limidagi qoraqalpoqlarga nisbatan jabr-zulm kuchayishi oqibatida Biybozor va Nukus volostida mustamlakachilarga qarshi Bobo Go‘klan boshchiligida xalq qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tadi.



Qoraqalpoqlar shayqaltasi





DARSDAN IJOBIY SABOQ CHIQARIB

1. Xiva xonligida soliqlarning oshib ketishiga nima sabab bo‘ldi? Soliqlarni oshirmasdan davlatni boshqarish mumkinmidi?
2. Ta’lim tizimi haqida qanday ma’lumotga ega bo‘ldingiz?
3. Ta’lim sohasining mamlakat rivojida qanchalik ahamiyati bor?
4. Rossiya imperiyasi bosib olganidan so‘ng qoraqalpoqlar hayoti va turmushida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?

XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLAR MADANIYATI




BUGUN DARSDA

- Qoraqalpoqlarda ta’lim.
- Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi.
- Berdaq (1827–1900) — qoraqalpoq shoiri.



MULOHAZA UCHUN

1. Adabiyot fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering.
   - Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi namunalaridan misollar keltiring.
   - Qoraqalpoq folklorida qanday g‘oyalar aks etgan?
2. «Qirq qiz» dostonining mazmuni nimadan iborat?



MA’LUMOT UCHUN

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarda bir qancha madrasalar bo‘lib, ularning eng kattalari Qoraqum eshon va Tosh madrasalari edi. Qoraqum eshon madrasasi XIX asr o‘rtalarida qurilgan. Dastlab u masjid vazifasini bajargan. Tosh madrasa esa 1841-yil Mang‘it hokimi Xo‘janiyoz tomonidan qurdirilgan. Madrasada ta’lim ikki bosqichli bo‘lib, birinchi bosqichda arab tili grammatikasi o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi bosqichda diniy-huquqiy bilimlar o‘qitilgan.

XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarda 318 ta maktab, Qoraqum Eshon, Qalila oxun, Egambergan oxun, Oybit eshon, Eshonqal’a kabi madrasalar tashkil etilgan. Bundan tashqari qoraqalpoqlar Buxoro va Xiva shaharlarida ta’lim olganlar.

XIX asr oxirida *Kunxo‘ja (1799–1880), Otash Olshinboy (1788–1875), Ajiniyoz (1824–1878)* kabilarning nomlari keng tanildi. Ular o‘z taqdirini xalqi taqdiri bilan bog‘lagan kishilar edi. Masalan, Kunxo‘ja o‘z ijodida ovullarning oddiy ahlini, ularning kundalik mehnati va turmushini kuyladi.

U adolatsiz tartiblarni qattiq qoralaydi. Ajiniyoz Qasiboy o‘g‘li (taxallusi – Zevar) Mo‘ynoqdagi maktabda, so‘ngra Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida o‘qigan. Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchilardan bo‘lib oxund (o‘qimishli, ilmli kishi; xalq dostonlarining mahoratli kuychisi) darajasiga erishgan. O‘zbek, qozoq, turkman tillarini yaxshi bilgan. Shoir-

ning «Bo‘zatov» dostonida qoraqalpoq xalqining hayoti, ayniqsa, ularning ko‘chib yurish jarayoni bilan bog‘liq voqealar katta mahorat bilan tasvirlangan. Ajiniyoz adabiy merosidan bizga 100 ga yaqin she’rlar va dostonlar yetib kelgan. Uning she’rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari kuylangan. «Qiz Mengesh bilan aytishuv» dostoni esa xalq orasida mashhur bo‘lgan.

Berdaq (1827–1900) Orolbo‘yida tug‘ilgan. Ovul maktabida, so‘ngra Qoraqum eshon madrasasida o‘qigan. 20 yoshidan she’rlar yoza boshlagan va yarim asr davomida turli mavzularda o‘lanlar to‘qigan.

Berdaq o‘z ijodini xalqi uchun o‘lmas asarlar yaratishga bag‘ishladi. She’rlaridan biri ham «Xalq uchun» deb nomlangan. Uning she’rlarida zulmni qoralovchi tuyg‘ular, jo‘shqinlik ustuvor bo‘lgan.


XX asr boshlariga kelib qoraqalpoq adabiyotidagi demokratik an’analarni yangi avlod vakillari Umar, Sariboy, Qulmurot, Sodiq kabilar davom ettirdilar.



Berdaq haykali

Kunxo‘ja – ... Zevar – ...
Berdaq – ... Madrasalar – ...





MA’LUMOT UCHUN



Qoraqalpoq oilasi




Qoraqalpoq bolalari

Qoraqalpoq xalqining og‘zaki ijodi chuqur mazmunga egaligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Xalq ma’naviy madaniyatining yuksak darajasi ajdodlardan avlodlarga yetkaziladigan xalq dostonlarida, termalarida, shuningdek, musiqali o‘lanlarda saqlanib qolgan. Ular orasida maqollar, hikmatlar, laparlar, nasihat qo‘shiqlarda ifoda etilgan «otalar so‘zi» alohida ajralib turar edi. Qoraqalpoqlar o‘z to‘y-marakalarini qo‘shiqsiz, dostonlarsiz, tarixiy hangomalarsiz o‘tkazmaganlar. Bayramlar va urug‘ning boshqa tadbirlarida «Qirq qiz» va turkiylarning boshqa dostonlari kuylangan.

Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida kulgi qahramoni bo‘lgan O‘mirbek laqqi obrazi orqali razillik, yomonlik, yovuzlik, zolimlik kabi salbiy illatlar hajv yo‘li bilan fosh etilib, mehnatsevarlik, ezgulik, qahramonlik ulug‘langan. Xalq orasida qoraqalpoq folklorining doston yo‘llari mashhur edi. Doston qahramonlik haqida she’riy asar bo‘lib, unda xalq baxt-saodati va farovonligi yo‘lida mard botirlarning buyuk jasoratlari madh etilgan. Mashhur bo‘lgan dostonlar orasida esa qoraqalpoqlarning «Qirq qiz» dostoni alohida ajralib turadi.

Dostonda Sarkub hukmdori Olloyor o‘z qizi Guloyimga Muyeli degan hosildor yerlarni tortiq qilgani haqida aytiladi. Bu joyda Guloyim va uning qirq kanizagi mustahkam bir qal’a barpo etishadi. Dushmanlar Sarkub yerlariga hujum qilib, Guloyimning otasini o‘ldirishadi. Sarkub mulklari talanadi, sarkubliklarning ko‘pi asir olinib haydab ketiladi. Guloyim va uning kanizaklari dushmanga qarshi kurashga kirishadi, qoraqalpoqlarni asirlikdan ozod qiladi va ona yurtga ozodlikni qaytaradi. Bu ishda Guloyimga uning oshig‘i xorazmlik bahodir Arslon yordam beradi. Dostonning bosh g‘oyasi – yuksak vatanparvarlik hissi va ona Vatanga, xalqqa fidoyilarcha muhabbatdir. «Qirq qiz» dostoni bugungi kunda xalq og‘zaki ijodining durdonalaridan biri sanaladi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Nuqtalar o‘rniga tegishli ma’lumotlarni kiriting.

   O‘mirbek laqqi – ... Guloyim – ...

   «Qirq qiz» – ... Doston – ...

2. «Qirq qiz afsonasi — hurlik, erk va sadoqat timsoli» degan fikrni vatanparvarlik, jasurlik, birdamlik bilan bog‘lab ta’riflang.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Qoraqalpoqlarda xalq ijodiyoti qaysi shakllarda rivojlandi?
2. Qoraqalpoqlarning eng mashhur «Qirq qiz» dostoni mazmunini aytib bering.
3. Ajiniyozning ijodi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Berdaqning tarixiy dostonlarini sanab bering.

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI

BUGUN DARSDA

- Turkistonda ta’lim.
- Jadidchilikning shakllanishi.
- Milliy taraqqiyparvarlik harakati.

MULOHAZA UCHUN

Quyi sinflarda olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering:

1. Markaziy Osiyo xonliklarida ta’lim tizimi qanday bo‘lgan?
2. «Ta’lim rivojlansa – jamiyat rivojlanadi» degan fikrni o‘rganilayotgan davr bilan bog‘lab tushuntiring.
3. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni bosib olganidan so‘ng ta’lim tizimida qanday o‘zgarish bo‘ldi?

MA’LUMOT UCHUN

Har bir jamiyatdagi o‘zgarishlarda shu jamiyatning yetakchi shaxslari, ayniqsa, ziyolilarining o‘rni katta bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos ilg‘or g‘oyalarni ilgari suradi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo‘llarini topishga harakat qiladi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar o‘z xalqlarini ma’rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko‘tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar.

«Jadid» so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, «yangi» degan ma’noni anglatadi.





MA’LUMOT UCHUN

XIX asr oxirlarida jadidchilik harakati yuzaga keldi. Buning natijasida yangi usul maktablari tashkil qilinib, ta’limni rivojlantirish orqali mustaqillikka erishish mumkin degan g‘oyalar ilgari surilgan.

XX asr boshlarida ko‘plab jadid adabiyotlari, gazeta va jurnallarning ommaviy nashr etilishi, mamlakat aholisining bunga ehtiyoji borligi va savodxon bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ziyolilar xalq orasida ilg‘or g‘oyalarni tarqatishda maorif tizimini asosiy vosita deb bildilar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati vujudga keldi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Ta’im sohasining mamlakat rivojiga qanchalik ta’siri bor?
2. Nima uchun Rossiya imperiyasi bosib olgan hududlarida o‘z ta’lim muassasalarini tashkil etishga jiddiy yondashdi?
3. Mahalliy ziyolilar xalq orasida ilg‘or g‘oyalarni tarqatishda maorif tizimini nima uchun asosiy vosita deb bildilar?
4. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibiga qaysi hududlar kirgan?
5. Buxoro amirligi va Xiva xonligini Rossiya imperiyasining vassaliga aylanishi qanday oqibatlarga olib keldi?

Qrim-tatar ma’rifatparvari bo‘lgan **Ismoil G‘aspirali** (1851–1914) butun turkiy xalqlar o‘rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini o‘rgangan edi.

Jadidchilk g‘oyalarining keng yoyilishida «Tarjimon» gazetasi muhim o‘rin tutdi. Ismoil G‘aspiralining 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining keyingi rivojiga turtki bo‘ldi.



IJODIY FAOLIYAT

Nima uchun jadidlar Buxoroda davlatning ichki boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, siyosiy-ma’muriy tuzumni o‘zgartirish lozimligini ko‘tarib chiqishdi? Fikringizni asoslang.

IJODIY FAOLIYAT

1. Nima uchun jadidchilk g‘oyalarining keng yoyilishida «Tarjimon» gazetasi muhim o‘rin tutdi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, jadidlar o‘z g‘oyalarini tarqatishda gazetalardan foydalanishni maqsad qilib qo‘yishgan bo‘lsa, aholining savodi qanday bo‘lgan?

MA’LUMOT UCHUN

Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi 1893-yilda faoliyat ko‘rsata boshladi. Keyinchalik, bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi. Jadidlar ma’rifatparvarlik yo‘lida Qrim ziyolilari tajribalarini o‘rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg‘or g‘oyalaridan ham foydalandilar.

O‘rta Osiyodagi milliy taraqqiyparvarlik harakati hududiy xususiyatlariga ko‘ra Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlariga bo‘linadi. Turkiston jadidchiligining asosiy tarkibini ziyolilar tashkil qilib, ular Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning oldingi saflarida turdilar.

Buxoroda jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi, asosan, mayda do‘kondorlar, o‘qituvchilar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi.

Buxoro jadidchiligi ayrim mutaassib mullalar, yangilik va islohotlarni xush ko‘rmaydiganlar oqimi qarshiligiga uchradi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati siyosiy tashkilot sifatida shakllana boshladi.

MA’LUMOT UCHUN

Xiva xonligida jadidchilik ikkita oqimdan iborat bo‘lib, uning o‘ng oqimi Bosh vazir Islomxo‘ja boshchiligida xonlikdagi savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini birlashtirdi. Mazkur oqim o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o‘tkazilishini maqsad qilib qo‘ydi. So‘l oqim esa qozikalon Bobooxun Salimov rahbarligida sarmoyadorlar, hunarmandlar va boshqa tabaqa vakillarini birlashtirib, yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligiga erishmoqchi bo‘ldilar.



Turkistonda taraqqiyparvarlik harakatining rivojlanishi ikki bosqichda bo‘ldi. Birinchi bosqichda ma’rifatparvarlikdan boshlangan. Bu harakat 1917-yilga kelib o‘zining ikkinchi bosqichida – siyosiy ko‘rinishdagi harakatga aylandi.



IJODIY FAOLIYAT

Xiva va Buxoro jadidchiligining o‘xshash va farqli tomonlari nimada? Fikringizni asoslang.



Buxorodagi eski maktab

1909-yildan yangi usul maktablarini ochish uchun maxsus ruxsatnoma olinishi belgilanadi. Bu bilan maktablar ro‘yxatga olib borilgan va ro‘yxatdan o‘tmagan maktablarning faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘yilmagan.

MA’LUMOT UCHUN

Turkistonda bu davrdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari hamda mahalliy mutaassib ruhoniylarning qarshiligiga qaramay, jadidlar ma’rifatparvarlik harakatlarini matbuot, noshirlik va teatr sohalarida davom ettirdilar. 1898-yilda Qo‘qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini ochdi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochib, ko‘plab o‘quvchilarning yangi usulda ta’lim olishlariga erishdilar.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Ismoil G‘aspirali – ... 1884-yilda ... 1893-yilda ...
2. Turkistonda jadidchilik harakati qachon vujudga keldi?
3. Jadidchilik harakatining vujudga kelishiga qanday omillar turtki bo‘ldi?
4. Ismoil G‘aspirali va uning faoliyati to‘g‘risida nimalarni bilib oldingiz?
5. Jadid maktablarini kimlar tashkil qilgan?

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARI VA ULARNING FAOLIYATI

BUGUN DARSDA

- Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalari.
- Jadidlar harakatining milliy xususiyatlari.

MULOHAZA UCHUN

1. Jadidchilik harakatining yetakchilari haqida nimalarni bilasiz?
2. Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi filmlarni ko‘rganmisiz?
3. QR kod orqali berilgan filmlarni ko‘ring. Filmda sizning e’tiboringizni nima tortdi? Filmlar voqealari asosida davrga baho bering.



MA’LUMOT UCHUN

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab yangi usuldagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surganlar. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi.

JADIDCHILIK HARAKATI RAHBARLARI

XIVA



Polvonniyoz hoji Yusupov




Bobooxun Salimov



Abdurauf Fitrat


BUXORO




Sadriddin Ayniy



Fayzulla Xo'jayev



Abdulla Avloniy




Munavvarqori Abdurashidxonov




Mahmudxo‘ja Behbudiy



Abduqodir Shakuriy



SAMARQAND



Saidahmad Siddiqiy-Ajziy




TOSHKENT



FARG‘ONA



Hamza Hakimzoda Niyoziy



Abdulhamid Cho‘lpon



Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev



Is’hoqxon Ibrat



A. Avloniy tashkil etgan «Turon» teatri truppasi

Turkiston jadidlarini birlashtirishda «O‘rta Osiyo jadidlarining otasi» deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) ning xizmati katta bo‘ldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo‘lboshchisi bo‘lgan. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiy tashabbusi bilan uning otasi sharafiga «Behbudiya kutubxonasi» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) – Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ‘ibotchisi bo‘lgan. Munavvarqori maktablar uchun «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» kabi darsliklarni yaratdi.

Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug‘ildi. U maktab va madrasada ta’lim olib, o‘z zamonining ma’rifatli va chuqur bilimga ega insonlaridan biriga aylandi. Avloniy o‘lkada ta’lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, 1907-yil «Shuhrat» gazetasiga asos soldi. O‘zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklarni yaratdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma’rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do‘konlari ochdilar.

MA'LUMOT UCHUN

Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlikni qoralaganlar.

Turkiston taraqqiyparvar sarmoyadorlari yoshlarni chet ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqqa foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg'urgan jadidlarni qo'llab-quvvatladilar.

Andijonlik Mirkomil Mirmo'minboyev o'z hisobidan ana shu ishga katta miqdorda mablag' ajratgan. 1908-yilda Buxoroda Abduvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Hamidxo'ja Meqriy, Ahmadjon Abdusaidov va boshqalar «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») jamiyatini tashkil qilib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani Turkiyaga o'qishga yuborganlar.

«...Maktab va madrasa bir millatning hatto bani odamning darajali taraqqiy va taoliysi deb bo'ladur. Faqat taraqqiy va taoliyni maktab va madrasalarni ko'pligi ila bo'lmayincha, balki nizom va tartiblik bo'lub, yaxshi idora etilmog'i ila bo'ladur. Dunyoda mavjud millatlar taraqqiyni ibtidoiy maktablardan boshlarlar. Haqiqatan taraqqiy va taoliy uchun birinchi yo'l va asosul-asos maktabdur».

Mulla Rahimxonning
«Masala». maqolasidan.
«Izhor ul-Haq» jurnali. 1918-yil



Mirkomil Mirmo'minboyev (o'ngda) tijoratchi do'sti bilan




«Tarbiyai atfol» jamiyati ishtirokchilari

IJODIY FAOLIYAT

1. Jadidlar o'z faoliyatlarini nimaga qaratdilar? Nima uchun?
2. Taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan qanday darsliklar tayyorlangan?
3. «Tarbiyai atfol» jamiyatining maqsadi nima edi?
4. QR kod orqali ko'rib, mazkur davrdagi ta'lim tizimi bilan tanishing. Ta'lim sohasining rivojlanishida qanday to'siqlar bo'lgan? Fikringizni asoslang.

«Agar bizlarning maktablarimiz boshqa millat maktablari kabi bir nizomga qo‘yilib yaxshi muallimlik vazifasini lavozimicha ado qilurlik kishilardin muallimlar tayin qilinsa edi, ma’sum avlodlarimiz ruhiy hayotiga, dunyo va oxiratni saodatig‘a birinchi sabab o‘ladurg‘on ilm va maorifdin bu darajada mahrum o‘lmagiga sabab o‘lmas eduk».

Munavvarqori Abdurashidxonov



MA’LUMOT UCHUN

XX asrga kelib mamlakatda bir tomondan turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida tartib va iqtisodiy munosabatlar vujudga kelayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan mamlakat hududiga turli g‘oyaviy oqimlar kirib kela boshladi.

Mustamlaka davrida sha’riy masalalarni hal qilish, hanafiylik mazhabini sofligicha keyingi avlodga yetkazish masalasi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Shu maqsadda 1917-yili 10-avgustda Toshkent shahrida *«Fuqaho jamiyati»* tashkil topdi.

Ushbu jamiyat to‘rt qozi va ular yonidagi muhrdor, a’lam va muftiylardan iborat bo‘lib, u fuqarolar ijtimoiy-maishiy hayotlarida duch kelishi mumkin bo‘lgan masalalarni shar’iy yo‘l bilan hal qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. «Fuqaho jamiyati»ning nashri bo‘lgan «Izhor ul-Haq» jurnalidagi bir maqolada: *«Tahzib va tasfiyai axloq degan narsa maktablarimizda hech yo‘q. Muddati tahsil ko‘b uzoq bo‘lgani uchun ko‘b kishilar bolalarini 8-15 yil maktabga qo‘yolmaydurlar, chunki qudrat va iste’dodlari yetmaydur. Ham maktablarimizga intizom yo‘qdur. Shuning uchun maktabda yurgan aziz, gavhari noyob bolalarimizdan o‘n besh yo sakkiz nafardan ikki yo uch nafari ahli savod bo‘lib chiqadurlar», — deyiladi.* Maqolada maktablarda faqat kitoblarni yodlatish, savod chiqarish bilan jamiyatni rivojantirib bo‘lmasligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga har bir maktab va madrasada qat’iy intizom va tartib bo‘lishi zarurligi aytilgan.

IJODIY FAOLIYAT

1. «Qat’iy intizom va tartib bo‘lishi zarur», – deganda nimani tushundingiz?
2. Ta’limning samaradorligi qat’iy intizomga bog‘liqmi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

«Islomiyatning avvalgi asrlarindagi musulmonlar oila tarbiyasig‘a ahamiyat berib, erkak va qiz bolalarini o‘qita boshladilar. Xotunlar huquqini rioya etdilar. Va shul soyada maorif va madaniyat yo‘lig‘a qadam qo‘yib, ulug‘ bir quvvat hosil etdilar. Ozgina vaqtda dunyoning qismi a’zamini o‘zlarig‘a qaratdilar. Ul asrlarda islom dunyosinda erlar qatorinda xotunlardan ham qancha olima va shoira, muharrira, xatiba, adiba va faqihalar yetishgan edi».

Hoji Muin, «Oila tarbiyasi» ,
«Mehnatkashlar tovushi» gazetasi, 1918-yil.

Delegat (lotincha – yuborgan) – biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil.

IJODIY FAOLIYAT

Hoji Muin «Oila tarbiyasi» maqolasida nimani tanqid qilgan? Jamiyatni rivojlantirish uchun qanday tavsiya berilgan?


MA’LUMOT UCHUN

Jadidlar ko‘plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, Germaniyaga o‘qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib, yurt va millat uchun xizmat qilishi g‘oyalarini ilgari surdi. Ularning sa’y-harakatlari bilan mahalliy aholi tomonidan yoshlarning xorijda o‘qib kelishiga ketadigan xarajatlari uchun mablag‘lar yig‘ildi.

O‘lkada savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar e’lon qilindi.

BILASIZMI?

Turkiston taraqqiyparvarlaridan biri, Toshkentning «Qoryog‘di» mahallasidan bo‘lgan Asadullaxo‘ja o‘g‘li Ubaydullaxo‘ja Rossiyada huquqshunoslik sohasi bo‘yicha ta’lim olib, birinchi oliy ma’lumotli o‘zbek advokati bo‘ldi. U buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy bilan yozishmalar olib borgan. Taraqqiyparvarlar barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash, zavod va fabrikalar qurib, mahsulotlarni o‘lkaning o‘zida ishlab chiqarishni zarur deb bildilar.



Federatsiya (lotincha – ittifoq bo‘lib mustahkamlash) – davlatlarning o‘z siyosiy mustaqilligini muayyan doirada cheklash yo‘li bilan yagona ittifoqqa birlashuvi.

IJODIY FAOLIYAT

1917-yilning fevral oyida Rossiyada qanday voqealar ro‘y bergan?

MA’LUMOT UCHUN

Turkiston taraqqiyparvarlari XX asrning boshlarida dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar. Bu davrda xorijda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning dasturlarini tahlil qildilar. Keskin vaziyatda taraqqiyparvarlar mahalliy xalqning tinchliksevarligi, bosiqligidan kelib chiqib, barcha muammolarni tinch yo‘l bilan hal etishga intildilar.

1917-yilga kelib Turkiston jadidchiligi siyosiy harakatga aylandi.



«Sadoi Turkiston» gazetasi xodimlari



MA’LUMOT UCHUN

Rossiya imperiyasi urushdan chiqqanidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo‘lsalar, fevral voqealaridan keyin ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdilar. Jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o‘lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o‘tkazish, Davlat Dumasida o‘lka aholisi sonidan kelib chiqib o‘rin ajratish, milliy matbuot erkinligini ta’minlash kabilar.

Ayni vaqtda, milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar, masalan, «Sho‘royi islomiya», «Ittifoq» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining barcha qatlam vakillarini o‘z ortidan ergashtira oldilar. Turkistonda jadidlar faoliyati mahalliy aholining ma’rifatiga, ularda milliy o‘zlikni anglashning kuchayishiga, ozodlik uchun kurashlarning ko‘tarilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jadidchilik harakati o‘lkada imperiya hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi asosiy ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ldi.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Jadidlarning dastlabki siyosiy tashkiloti qanday atalgan va uning ishtirokchilari oldiga qaysi vazifalar qo‘yilgan edi?
2. Jadidlar g‘oyalarini o‘zida aks ettirgan qanday gazeta va jurnallarni bilib oldingiz?
3. Taraqqiyparvarlarning yoshlar ta’lim olishiga qo‘shgan ulkan hissasi nimalardan iborat?
4. Jadidlar harakati Turkiston aholisi ongiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
5. To‘g‘ri javobni toping.

1	Delegat	a	lotincha – *ittifoq bo‘lib mustahkamlash* – davlatlarning o‘z siyosiy mustaqilligini muayyan doirada cheklash yo‘li bilan yagona ittifoqqa birlashuvi.
2	Jadid	b	arabcha – *«yangi»* degan ma’noni bildiradi.
3	Federatsiya	c	lotincha – *yuborgan* – biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil.

TURKISTONDA ILM-FAN VA MADANIYAT

BUGUN DARSDA

→ Tarix, tabiiy fanlarga oid ilmiy izlanishlar.

→ Adabiyot haqida.


1876-yil Toshkentda Turkiston muzeyi (hozirgi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi) tashkil etildi.

MULOHAZA UCHUN

1. Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi fikrlarini o‘qing. Nima uchun u o‘z vatani tarixini o‘rganish ziyoli, komil va odil inson bo‘lish uchun zarurat deb hisoblagan?

«Hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil bo‘lish uchun o‘z vatani tarixini o‘rganish zarur».

2. XX asrda jahon ilm-fanidagi o‘zgarishlar va Turkiston o‘lkasidagi holatni tahlil qiling. Bu davrda qanday ilmiy ixtirolar qilindi?
3. O‘rta Osiyo xonliklarining rivojlanishidagi ortda qolishiga asosiy sabablar nimalarda ko‘rinadi?



MA’LUMOT UCHUN

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilm-fan sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu muvaffaqiyatlarga erishishda jadidlarning o‘rni katta bo‘ldi. Jadidlar Turkistonda savodxon va bilimdon kishilarni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyatini yuqori baholadilar.



O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi


Tarixchi va jurnalist Mulla Olim Mahdum hoji «Tarixi Turkiston» («Turkiston tarixi») asarini yozdi. Bu asar o‘zbek tilida bosmadan chiqdi. Unda qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha Turkistonda bo‘lgan voqealar yilnomasi bayon etilgan edi.

Bu kitob o‘zbek tilidagi ilk tarixiy asar sifatida shuhrat qozondi.

XIX asrning 90-yillarida va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoning tabiiy boyliklarini o‘zlashtirish hamda maqbaralarini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqot ishlari rivojlandi.

Shunday tadqiqotlardan birida 1908-yilda Ulug‘bek rasadxonasi binosi qoldiqlari va rasadxonaga tegishli asbob-uskunalarning bir qismi topildi.

1908-yilda rasadxona binosi qoldiqlarini va rasadxonaga tegishli asbob-uskunalarning bir qismini topishga muvaffaq bo‘lindi.



Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasi (rekonstruksiya)

IJODIY FAOLIYAT

O‘lkadagi ilmiy tadqiqotlar imperiya uchun qanday ahamiyat kasb etgan? Nima uchun Rossiya imperiyasi o‘lkani har tomonlama chuqur o‘rganishga e’tibor qaratgan?



P. P. Semyonov-Tyan-Shanskiy

MA’LUMOT UCHUN

Hududni xaritalashtirish va iqlimini o‘rganish uchun Toshkentda meteorologiya stansiyasi tashkil etildi. Mutaxassislar yetishmasligi sababli uzoq vaqt davomida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlarni shakllantirish amalga oshirilmadi.

Faqat XIX asrning 90-yillarida va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoning tabiiy boyliklarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqot ishlari avj oldi. Masalan, N. A. Severs ev Pomir tog‘ tizimini o‘rganib, botanikaga va minerallarga oid namunalar to‘pladi. P. P. Semyonov-Tyan-Shanskiy Tyanshan tog‘ tizimini o‘rganib, muzlik, vulqonlar haqida qiziqarli ma’lumotlar to‘pladi.

Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati faol ish boshladi. Jamiyat nashr ettirgan «Turkistonning qishloq xo‘jaligi» jurnali sohadagi ishlab chiqarish, yerlarni sug‘orish, dehqonchilik va yerdan foydalanish borasidagi ilg‘or usullarni targ‘ib qildi. Mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan o‘ziga xos O‘rta Osiyo paxta navidagi dastlabki hosil yetishtirildi.

1871-yilda tashkil etilgan «O‘rta Osiyo Olimlar jamiyati» mablag‘ yo‘qligi tufayli 1893-yilda o‘z faoliyatini to‘xtatdi.



Bu davrda bir qator adabiyot namoyandalari yetishib chiqdi. Shulardan Muqimiy, Furqat, Zavqiy, shoira Anbar otin, Avaz O‘tar o‘g‘li, Ahmad Donish va boshqalarning ijodini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. She’rlaridagi haqqoniylik va samimiylik ularni mashhur xalq shoirlariga aylantirdi.

Anbar otin ayollarning jamiyat va oiladagi haq-huquqsiz ahvoli to‘g‘risida achchiq haqiqatlarni qalamga oldi. O‘zbek shoirlarining she’rlari keng xalq ommasi yuragiga yo‘l topdi. Ularning she’rlari asosida ko‘plab qo‘shiqlar yaratildi.

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida yangi janrlar paydo bo‘ldi. Nasrda yaratilgan asarlar ham dunyo yuzini ko‘rdi. Jadid adabiyotida 1910-yilda Abdulla Qodiriy ilk nasriy asarlarini e’lon qildi.


1870-yili Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi tashkil etildi.



MULOHAZA UCHUN

1. Anbar otin va Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning qalamiga mansub qaysi asarlarini bilasiz? Ular nimasi bilan sizning yodingizda qolgan?
2. Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotida qaysi janrni boshlab berdi va u avvalgi davr adabiyotidan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
3. QR kodda berilgan Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasini o‘qing. Hikoya asosida jamiyat hayotiga baho bering.

Xiva teatri,
Toshkent



1911–1913-yillarda Turkistonning turli shaharlarida teatrlar tashkil etildi. Adiblar ular uchun pyesalar yozishdi. Sahnada yangragan ona tilidagi nutq va teatr aktyorining harakatlari xalq ommasiga nisbatan qudratli ta'sir vositasiga aylandi.

Jadid teatrlarida spektakllarning aksariyati ochiq sahnalarda qo'yilib, ularga ko'plab tomoshabinlar tushgan. Ilk o'zbek tomoshabinlari uchun jadidlar qo'ygan pyesalar axloqiy tarbiya maktablariga aylandi.

Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yozilgan mashhur «Padarkush» pyesasida otalar va bolalar o'rtasidagi munosabat, ma'naviy qashshoqlik, mol-mulkka ruju qo'yish qanday oqibatlarga olib kelishi haqida hikoya qilingan.

O'zbek milliy teatrining shakllanishida jadidlarning o'rni katta edi. Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning: «Teatr – bu ibratxonadir», deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir.

IJODIY FAOLIYAT

1. Jadid adabiyotida o'sha davrga xos bo'lgan qanday g'oyalar yetakchilik qiladi?
2. Shu mavzu bo'yicha kichik esse yozing.

1868-yilda mustamlakachi hukumat tomonidan o'lkada rus ta'lim maktablarini tashkil etish loyihasini ishlab chiqilishi borasida ko'rsatma berilgan.

1870-yili o'lkada o'quv bo'limini tashkil etish bo'yicha maxsus komissiya Toshkent shahrida ish boshladi. 1886-yilda Toshkent shahrida Rossiya Xalq maorifi vazirligiga tegishli 9 ta, 1889-yilga kelib esa 14 ta ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan.



Gimnaziya o'quvchilari



«Turon» teatri truppasining birinchi spektakllari qo‘yilgan «Kolizey» teatri-sirki binosi, Toshkent



O‘zbekistonda XX asr boshlaridan zamonaviy futbol qoidalari asosida o‘yinlar o‘tkazilgan. 1912-yilda Qo‘qonda birinchi futbol jamoasi tuzildi.

BILASIZMI?

Xudoybergan Devonov 1878-yilda tug‘ilgan. Bolaligidan bilimga chanqoqligi va ijodiy iste’dodi bilan ajralib turgan. U arab, fors va rus tillarini o‘rgangan. Qiziquvchan o‘smir nemis tilini o‘rgana boshlagan va bu kelgusida uning taqdirini belgilab bergan.

1903-yilda Xudoybergan Devonov Xivaning minoralari va hamyurtlarini suratga ola boshlagan. Avvaliga bu diniy ulamolarning qattiq qarshiligiga uchragan. Biroq fotosuratchini har qanday yangilikka qiziqqan Muhammad Rahimxon II o‘z himoyasiga olgan. U nafaqat xon, balki iste’dodli shoir va bastakor sifatida tarixda qolgan. Hukmdor Xudoyberganga o‘zining suratini olishni buyurgan, keyin esa uni o‘z devoniga ishga taklif qilgan.



Xudoybergan Devonov




«Biz kim, Xorazm mamlakatining oliy xoqoni Muhammad Rahimxon Soniy quyidagi farmoni oliyga imzo chekdik. Xorazm maqomlari xalqning daxlsiz mulki deb e'lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan yoki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin!»

1882-yil

MA'LUMOT UCHUN

Xalq sozandalari mashhur usta-bastakorlar qo'lida ta'lim olishgan. Ko'p asrlar davomida butun Sharqda keng tarqalgan mumtoz maqomlar professional musiqaning og'zaki an'analaridagi bebaho xazinasini tashkil etgan. Maqomlar yirik turkumli og'zaki-cholg'uli (yakkaxon va cholg'uli) asarlardir. Musiqa asboblari ham nihoyatda rang-barangligi bilan ajralib turar edi. Bu borada torli-kamonchali cholg'u asboblari (g'ijjak, qo'biz, uchtor), torli-noxunli (do'mbira, dutor, tanbur, ud, rubob), torli-zarbli (chang), puflama nayli (nay, surnay), munshtuk-puflamali (karnay), zarbli-membranali (doira, nog'ora, chindovul) kabi cholg'u asboblari keng tarqalgan edi.

Sitorai Mohi Xosa







MA'LUMOT UCHUN

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida me'morchilikda ham o'zgarishlar bo'ldi, Yevropa va sharq me'morchilik ananalari uyg'unlashib ketdi.

Masalan, XX asr boshlarida Buxoroda barpo etilgan Sitorai Mohi Xosa qurilishida Usta Shirin Murodov boshchiligida bir guruh usta ganchkorlar ishlagan.


Farg‘ona vodiysida ham o‘zbek xalq me’morchiligining o‘ziga xos tarmog‘i mavjud edi. XIX asrning ikkinchi yarmida vodiy milliy me’morchiligiga Yevropa me’moriy uslubidagi binolarni qurish an’analari kirib keldi. Shunday bo‘lsa-da, XIX asr oxirlarida qurilgan Andijon jome masjidi o‘z qurilishi bilan yuksak milliy me’morchilik namunasi bo‘lib qoldi.



Toshkent ayollar gimnaziyasi

Toshkentning Yangi shahar qismida general-gubernatorlikning ma’muriy va boshqa binolari qad ko‘tardi. Ular me’moriy jihatdan g‘arb muhiti va uslubida qurilgan binolar edi.

Xorazm me’morchilik maktabining e’tiborli tomoni shundaki, peshtoqlar, shiplar, burjlar o‘ta nozik did va nafosat timsoli arabiy yozuvlar bilan bezatilardi. Xattotlar bu yozuvlarni mohirlik bilan bino bezagiga uyg‘unlashtirib yubora olganlar.




XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston tasviriy san'ati Samarqand, Qo'qon, Buxoro miniatyurachilari ijodida, ayniqsa, yorqin namoyon bo'ldi (Ahmad Donish, Abdulxoliq maxdum, S. Siddiqov). Ular tasviriy san'atning an'anaviy turlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lishdi.

XX asr boshlarida devoriy naqshlarda ilgari uchramagan manzaralar – suzib borayotgan kema, temiryo'llar va hayvonlar tasvirlaridan foydalana boshlandi.

Yog'och lavh va Xudoyorxonga tegishli Qur'on qo'lyozmasi. XIX asr





«Yusuf va Zulayho» Mirza Mir Ishoq al Buxoriy, XIX asrning oxiri – XX asrning boshi

Kumush muqovali Qur'oni Karim. XIX asr










Shirmonpaz masjidining ustunlari va shifti. XX asr. Marg'ilon



Ramziy ranglar va naqshlar zargarlikda, liboslarda, nodir toshlardan ishlangan zeb-ziynat buyumlarida ustuvorlik qilgan.





XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston aholisiga tabiblar, jarrohlar, rishtachilar (yaralarni tuzatuvchi), siniqchilar, doyalar, zulukchilar kabi an'anaviy tibbiyot vakillari tibbiy yordam ko'rsatganlar. Mahalliy aholi orasida qon oldirish va zulukdan foydalanish, shuningdek, turli xil uqalash (massaj) usullari ham keng tarqalgan edi. Davolovchi vosita sifatida margimush, simob, sulema (zaharli poroshok), kinovar (simob sulfid), temir va mis kuporosi, achchiqtosh, novshadil kabi minerallar keng qo'llanilgan.

Tabiblar o'simlik va minerallardan tayyor dorilarni bemorlarga berishdan tashqari, o'zlari ham oltingugurt va azot kislotasi tayyorlashni bilgan, shuningdek, damlamalar, kukunlar, hapdori, malham dori (maz) va plastirlar tayyorlashgan.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Mavzuda berilgan rasmlar asosida xalqimizning hunarmandchiligiga baho bering.
2. Me'morchilikdagi o'zgarishlarning o'ziga xos tomonlari haqida taqdimot tayyorlang.
3. G'arb va Sharq an'analari uslubida qurilgan inshootlar haqida ma'lumot to'plang.

TURKISTON O‘LKASI 1917-YIL FEVRAL–OKTYABR ORALIG‘IDA



BUGUN DARSDA

- 1917-yil fevral–oktyabr voqealari.
- Fevral inqilobining Turkiston o‘lkasiga ta’siri.



MULOHAZA UCHUN

1. Rossiyada sodir bo‘lgan fevral va oktyabr inqiloblariga nimalar sabab bo‘ldi?
2. Inqilobchilarning maqsadlari nimalardan iborat bo‘lgan?
3. Rossiyada bo‘lgan davlat to‘ntarishining Turkistonga ta’siri bo‘ldimi? Nima uchun?




MA’LUMOT UCHUN

Turkiston jadidlari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni, taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlik yo‘li bilan, parlament orqali erishishni mo‘ljallagan edilar. 1917-yildagi voqealar jarayoni, jadidchilik harakatining yirik nazariyotchisi Abdurauf Fitrat o‘sha paytda yozganidek, «Rusiyada bosh ko‘targan yangi bir balo – bolshevik balosi» kuchlar nisbatini butunlay o‘zgartirib yubordi. O‘zbek xalqining boshqa bir fidoyi farzandi Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan o‘rtaga tashlangan «Haq olinur, berilmas!» shiori butun millatning jangovar chaqirig‘iga aylandi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Rossiya imperatori Nikolay II taxtdan ketganidan so‘ng qanday komitet tuzildi? Bu hukumat tarixda qanday nom bilan ataladi?
2. Hukumatga kimlar rahbarlik qildi? Ular qanday g‘oyalarni ilgari surdilar?



MA’LUMOT UCHUN

Fevral inqilobi Turkiston o‘lkasi musulmon aholisini siyosiy jihatdan uyg‘otishda, demokratik o‘zgarishlarga boshchilik qilmoqchi bo‘lgan yangi kuchlarning siyosat maydoniga chiqishida muhim ahamiyat kasb etdi. Jadidlar vujudga kelayotgan milliy demokratik kuchlarning o‘zagi bo‘lishdi. Ular mintaqa tub xalqlarining taraqqiyot va mustaqillik to‘g‘risidagi o‘z g‘oyalarini Fevral inqilobi g‘oyalari bilan bog‘lab, o‘zlari e’lon qilgan tamoyillarni amalga oshirishga faol kirishdi.

1917-yil fevral oyida Rossiya imperiyasi markazida yuz bergan davlat to‘ntarishi oqibatida 15-mart kuni Nikolay II taxtdan voz kechadi. Hokimiyat boshqaruviga Muvaqqat hukumat keldi. Shu tariqa, mazkur davlatda imperiya hukmronligiga chek qo‘yildi. Ushbu keskin siyosiy o‘zgarish qaram o‘lkalar hayotiga ham ta’sir o‘tkazishi tabiiy edi. Turkiston bo‘ylab har bir shahar, uyezd, volost va qishloqda eski ma’muriyat idoralari Muvaqqat hukumat tomonidan tugatilib, o‘rniga jamoat tashkilotlari ijroiya qo‘mitalari, ya’ni jamoat xavfsizligi deb nomlangan qo‘mitalar tashkil topa boshladi.

1917-yilning mart oyida tashkil topgan «Sho‘royi islomiya» tashkilotiga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qildi. Undan 1917-yilning iyun oyida «Sho‘royi ulamo» va 1917-yilning iyul oyida «Turk adami markaziyat firqasi» («Turkiston federalistlar partiyasi») ajralib chiqqan edi. Mazkur harakatlar Turkiston manfaatlarini himoya qilishni o‘z maqsadi deb bilgan tarqoq milliy siyosiy kuchlarni jipslashtirish uchun qilingan ilk urinishlardan biri edi.

«Sho‘royi islomiya» tashabbusi bilan Toshkentda 1917-yil 16–23-aprel kunlari Butunturkiston musulmonlarining birinchi o‘lka qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda butun Turkistondan 150 ga yaqin delegat to‘plandi. 20 ga yaqin masalani ko‘rib chiqqan qurultoy o‘lkada mustamlakachilikni tugatish va musodara qilingan yerlarni mahalliy aholiga qaytarish bo‘yicha qaror qabul qilgan. Mazkur yig‘ilishda Turkistonda musulmonlar Markaziy Sho‘rosini ta’sis etishga ham kelishilgan. Bu qaror keyinchalik Milliy markaz shaklida amalga oshirildi.

Muvaqqat hukumat ishlab chiqqan yangi qonunda:

1. Rusiyaning har bir fuqarosi din masalasida hurdir.
2. To‘qqiz yoshga yetmagan bolalar ota-onasining dinida, ota-onalari ikki e’tiqodda bo‘lsa, otasining dinida deb hisoblanur.
3. Ota-onasi ma’lum bo‘lmagan bolalar vasiylarining dinida deb hisoblanur.
4. O‘n yetti yoshga har bir kishiga bir dindan ikkinchi dinga ko‘chishi uchun biror ruxsat lozim emas.
5. To‘qqiz yoshga yetmagan bola ota-onasi ko‘chgan dinga ko‘chgan hisoblanur.

Ibrohim Tohiriyning "Hurriyati diniya" maqolasidan,
Al-Isloh, 1917.

IJODIY FAOLIYAT


1. Turkiston xalqlarining asriy orzusi nima edi?
2. Turkistonliklar 1917-yil fevral inqilobidan nimalar kutgandilar?
3. 1917-yilgi fevral davlat to‘ntarishidan so‘ng Turkistonda qanday o‘zgarishlar yuzaga keldi?
4. Yangi tarixiy sharoitda Turkiston jadidlari oldida qanday dolzarb vazifalar turardi?
5. Butunturkiston musulmonlari I qurultoyi qanday masalalarga bag‘ishlangan edi?

MULOHAZA UCHUN

Turkistonda Rossiyadagi kabi ikki hokimiyatchilik emas, balki quyidagi uch hokimiyatchilik paydo bo‘ldi:

- *Birinchisi,* Rossiya Muvaqqat hukumatining vaqtli Turkiston komiteti;
- *Ikkinchisi,* Turkistondagi ishchi va askar deputatlarining mahalliy va markaziy Sovetlari;
- *Uchinchisi,* jadidlarning «Sho‘royi islomiya» tashkiloti (jamiyati) va uning joylardagi shu’balari, Toshkentda Turkiston o‘lka musulmonlari soveti (Kraymussovet) – Milliy Markaz.

1917-yil 1-noyabrda bolsheviklar Toshkentda ham sovet hokimiyatini o‘rnatdilar.



MA’LUMOT UCHUN

Rossiyaning Birinchi jahon urushidagi muvaffaqiyatsizligi, iqtisodiy inqiroz, uning oqibatida boshlangan ocharchilik ommaning noroziligini yanada kuchaytirdi. 1917-yil martdan boshlab aholi orasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni boshlagan, avombop shiorlarni o‘rtaga tashlab, ommaning e’tiborini qozongan bolsheviklar 25-oktyabrda zo‘ravonlik yo‘li bilan to‘ntarish yasab, imperiya markazida hokimiyatni egallab oldi.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Turkistonda nechta hokimiyatchilik paydo bo‘ldi? Ularning maqsadlari nima bo‘lgan?
2. 1917-yil fevral–oktyabr oylarida Rossiyada bo‘lgan davlat to‘ntarishidan kimlar ko‘proq manfaatdor bo‘lgan? Bu to‘ntarish Turkiston xalqi hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

YOSH BUXOROLIKLAR FAOLIYATI VA BUXORO AMIRLIGINING TUGATILISHI

BUGUN DARSDA

- Yosh buxoroliklar.
- Amir Olimxon islohotlari.
- Buxoro amirligining qulashi.

MULOHAZA UCHUN

1. XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Buxoroda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat qanday ahvolda edi? Xalq noroziligi harakatlarining maqsadlari nimadan iborat edi?
2. Buxorodagi mavjud vaziyatni qanday o‘zgartirish mumkin edi? O‘z munosabatingizni bildiring.

MA’LUMOT UCHUN

XX asr boshlarida Buxoro ijtimoiy hayotida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch paydo bo‘ldi. Birinchisi – Buxoroning siyosiy hayotini demokratik asosda qayta qurish, uning iqtisodini rivojlantirish, ilg‘or mamlakatlar qatoriga ko‘tarilishi uchun astoydil kurashuvchi Yosh buxoroliklar, ikkinchisi – diniy mutaassiblar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan toifa vakillari edi.

Yosh buxoroliklar o‘z faoliyatlarini 1910-yildan boshlashgan bo‘lib, bu siyosiy harakatning tashkil etilishiga yosh turklarning «Ittihodi va taraqqiy» partiyasi katta ta’sir ko‘rsatgan edi. Abduvohid Burhonov, Usmon Xo‘ja, Muso Saidjonov, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev va Sadriddin Ayniy kabi ko‘plab ziyolilar yosh buxoroliklarning yetuk namoyondalari bo‘lishgan.



Yosh buxoroliklar

Yosh buxoroliklar mamlakatda quyidagi ishlarni amalga oshirishni ko‘zlashgan edi:

- amirlikdagi yer-suv masalasiga katta e’tibor berish;
- milliy armiyani shakllantirish uchun harbiy maktablar ochish;
- moliya masalasida kirim-chiqimlarni hisoblash;
- ma’orif sohasida amirlik xazinasi hisobidan maktablar va oliy o‘quv yurtlari ochish.
- yakka hokimlik (monarxiyani) yevropacha konstitutsion monarxiyaga almashtirish.

1910-yil 10-dekabr kuni amir Abdullahad vafot etgach, taxtni uning o‘g‘li Said Olimxon egalladi. Amir Olimxon hali siyosiy kuchga ega bo‘lmagani uchun yosh buxoroliklarga yon berishga majbur bo‘ladi va islohot o‘tkazish uchun va’dalar beradi. Ammo 1917-yil Rossiyada bo‘lib o‘tgan fevral inqilobidan so‘ng, imperiya hukumatining ag‘darilishi amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yuboradi. Yosh buxoroliklar amirni islohot o‘tkazishga undaydilar.



IJODIY FAOLIYAT

1. Yosh buxoroliklar mamlakatda amalga oshirilmoqchi bo‘lgan ishlari uchun qanday imkoniyatlar kerak edi?
2. Amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni keskinlashuviga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?

MA’LUMOT UCHUN

Amir Abdulahad o‘g‘li Sayid Olimxonni 1893-yilda Peterburgga o‘qishga jo‘natdi. Bu yerda u 3 yil davomida harbiy ishlar va davlat boshqaruvi asoslarini o‘rgandi. Amirlik taxtiga o‘tirganidan keyin Sayid Olimxon Buxoroda davlat asoslari va diniy tizimni o‘zgartirish taraddudida bo‘lmadi. Ammo Rossiyadagi voqealar va amirlikning o‘zidagi muxolafatchi harakatlar uni chora-tadbirlar ko‘rishga va Yosh buxoroliklarning (jadidlar) mamlakatni demokratlashtirish va islohotlar o‘tkazish to‘g‘risidagi talablariga yon berishga majbur qildi.

1917-yil bahorida bosh qozi amirning mavjud tuzum asoslariga daxl qilmaydigan va xalqning ahvolini ko‘p ham o‘nglamaydigan farmonini o‘qib eshittirdi.

Farmonda odil sudlov, xiroj, zakot va boshqa soliqlarni undirishning barqaror asoslarini yaratish haqida so‘z borardi. Sanoat va savdoni rivojlantirishga ham e’tibor qaratilgandi. Amaldorlarga xizmat yuzasidan vazifalarni ijro etish chog‘ida qo‘shimcha ustama haq olish taqiqlandi. Buning o‘rniga davlat tomonidan qat’iy belgilab qo‘yilgan maosh ta’sis etildi. «So‘ngra biz tomonimizdan, – deyiladi farmonda, – xususan, shariat amri bilan mamlakatda foydali bilimlarni rivojlantirish va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘riladi». Farmonda bosmaxona ochish, mahbuslarni zindonlardan ozod qilish haqida ham va’dalar berildi.

BILASIZMI?

Yosh buxoroliklar farmonni amalga oshirish maqsadida Yosh buxoroliklar qo‘mitasini tuzdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mullaxon o‘g‘li, Mirzo G‘ulom vazmin, bosiq harakatlar bilan farmonni qo‘llab-quvvatladilar. Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat va Usmon Xo‘ja kabilar yanada chuqur islohotlar o‘tkazishni talab qilib, o‘z tarafdorlarini zudlik bilan namoyish o‘tkazishga da’vat etdilar. 1917-yil 8-aprelda jadidlar Karki va Buxoroda namoyishlar o‘tkazishdi. Buxoroda namoyishga to‘plangan 150 kishiga Fayzulla Xo‘jayev va Abdurauf Fitrat boshchilik qilishdi. Shiorlarda «Yashasin Amir!» qatorida «Hurriyat, Adolat, Musavvat!» kabi boshqa mazmundagi da’vatlar ham bor edi. Namoyishga chiqqanlar Arkgacha yetib kelishganida amir sarbozlari ularni to‘xtatishdi.

Amir qo‘shini namoyishga chiqqanlarni tarqatib, hibsga ola boshladi. 30 dan ziyod namoyishchi hibsga olindi, ko‘plariga tan jarohati yetkazildi. Qutulib qolgan namoyishchilar boshqa shaharlarga qochib jon saqlashdi. Buxorodagi voqealar jadidlarni sergaklantirdi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Sayid Olimxon o‘zi chiqargan farmonga qanday munosabatda bo‘ldi?
2. Namoyishchilarning tarqatilishi va o‘qqa tutulishi xalqning Said Olimxonga bo‘lgan ishonchiga ta’sir ko‘rsatdimi? Nima uchun?

MA’LUMOT UCHUN

1920-yil yanvarda Toshkentda bo‘lgan Yosh buxoroliklarning so‘l qismi Fayzulla Xo‘jayev rahbarligida «Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi»ni tuzishdi. Ammo bu tashkilot nufuzli siyosiy kuchlarni o‘zida mujassam etmagan. Bu tashkilot O‘rta Osiyoni butunlay zabt etib, uni bolsheviklar qo‘l ostida bo‘lgan yangi davlat tarkibiga qo‘shib olishga harakat qilgan mustamlakachilarning kurash vositasiga aylandi.

Fayzulla Xo‘jayev rahbarlik qilgan Yosh buxoroliklar va bolsheviklarning birgalikdagi harakatlari bilan qo‘zg‘olon boshlanadi. 1920-yili avgustda Chorjo‘yda Muvaqqat inqilobiy qo‘mita tuziladi. Vaziyatdan foydalangan sovet davlati yaxshi qurollangan qo‘shin va mahalliy aholini dahshatga soluvchi harbiy aviatsiya bilan ta’minlangan yirik harbiy qismlarni Buxoroga tashladi.

Amir va uning qo‘shinlari deyarli hech qanday qarshilik ko‘rsata olmadi. Amir Olimxon Afg‘onistonga chekinishga majbur bo‘ldi.

1920-yil 2-sentyabrda bolsheviklar armiyasi qo‘shinlari Buxoroga kirdi. 6-oktyabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi birinchi hukumat Xalq Nozirlar Kengashi tuzilganligi e’lon qilindi.

IJODIY FAOLIYAT

Amir va uning qo‘shinlari deyarli hech qanday qarshilik ko‘rsata olmaganligiga Zirabuloq shartnomasining qanday aloqasi bor? Unda amir qancha qo‘shinga ega bo‘lishi ko‘rsatilgan edi?



BUXORO XALQINING HASRATI TARIXI



Bolsheviklar bu orada ko‘p hiyla-tadbir qo‘llashga, go‘yo do‘stlik liboslarini kiygandek bo‘lib, aslida makr-u hiyla tadbirlarini ishlatish yo‘liga, makkorlik yo‘liga o‘tdilar. Go‘yo sulh tuzish uchun Baranov degan tashqi ishlar vaziri bo‘lmish bir kimsani favqulodda elchi qilib, Toshkentdan Buxoroga yubordilar. Muxtor vakil bu bandayi ojiz huzuriga kelib uchrashdi. Shu kishi uzr bayon etib, gaplashdi, gaplarimizni eshitib, biz bilan kelishdi. U kishi iltimos qilib aytdiki, rus davlati ellik besh yildan beri Buxoro davlati bilan do‘stlik va oshnachilikda bo‘lib keldi, to shu paytgacha bizning davlatimiz Buxoro davlatidan barcha manfaatlarni ko‘rib kelmoqda, shu bilan birga, ikki davlat o‘rtasida bu orada hech qanday bir-biriga zarar ko‘radigan ishlarni bajo keltirishmadi. Istardimki, bugundan keyin ham bu ikki davlat o‘rtasida do‘stlik va oshnachilik gullab-yashnasa va bizga ham sizning davlatingizdan yordam va manfaat tegsa. Sizlardan bizlarga har qancha xizmat bo‘lsa, bizning jumhuriyat davlatimiz uni o‘rniga qo‘ysa. Lekin sizlardan bir iltimosimiz bor, o‘z askarlaringizni bizning temiryo‘l stansiyasidan olsangiz, chunki biz uni o‘zimizga istehkom qilmoqchimiz. Bizning askarlarimiz vahshiy va nodon odamlardir. Mabodo sizning askarlaringizni ko‘rib qolsa, unga to‘qnashib qolib, sizdek zoti shahona oldida bizni uyaltirib qo‘yishadi. Bu borada siz nimaiki istab, unga xohish bildirsangiz, o‘sha aytganingizni bajo keltiramiz.

Shu tariqa u bilan gaplashib, gaplarini eshitib, kelishuv tuzdik, unga imzo ham chekdik. Shu bilan u o‘z joyiga qaytib ketdi.

Ammo dushmanlarimiz bu nayrang bilan bizni g‘aflatda qoldirib, misoli bir yo‘lto‘sarlar kabi, urush e’lon qilmasdan hijriyning 1339-yili (1920) zulhijja oyining o‘n beshida yakshanba kechasi soat o‘n ikkida soqchilar va qo‘riqchilar ustiga hujum qilib kelib, o‘sha yerda temiryo‘l atrofiga qo‘yilgan barcha qorovullarni, taxminan, yuz ellik nafar kishini bandi qildilar.

Shu tariqa ular Buxoro askarlari ustiga yopirilib kelib hujum uyushtirdilar, shu bilan urushni boshlab yubordilar. Natijada vaqt yarim kecha soat ikkida ancha askar va harbiy qurollar jamlab, to‘p otish va o‘q yog‘dirish bilan birga temir qalqonli aravalar — broneviklar, temir qoplangan motorlar — bronepoyezdlar bilan urush boshlab yubordilar. Ular o‘n bitta tayyora bilan Buxoro shahri ustida havoda parvoz etib, bomba yog‘dirdilar. Bu bandayi ojiz o‘z askarimni majburan oldinga — frontga chiqarib, ixtiyorni taqdiri ilohiyga topshirib, to‘rt kechayu to‘rt kunduz urushdik. Bu urush asnosida dushman taxminan Buxoroning yarmini to‘p va pulemyotdan o‘qqa tutib, ko‘p talafot yetkazdi.

To‘p o‘qlarining ko‘pligi, bomba yog‘dirishlar, talafot va xarobaliklar Buxoro shahrida ortib ketib, kambag‘al beva-bechoralarni qattiq tashvishga solib qo‘ydi.


So‘nggi Buxoro amiri Sayid Olimxon

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Yosh buxoroliklar faoliyatidan nimalarni bilib oldingiz?
2. Amir Sayid Olimxon o‘z davlatida qaysi maqsadda islohotlar o‘tkazishga urinib ko‘rdi?
3. Jadidlar dasturi amir Olimxon mo‘ljallagan islohotlardan nimasi bilan farq qilardi?
4. Buxoro amirligining qulashi sabablarini sanab bering.



Buxoro amiri Sayid Abdulahadxon 1910-yil 3-fevralda Sankt-Peterburgdagi masjid poydevorini qurish marosimida.



Sankt-Peterburgdagi Buxoro amiri Sayid Abdulahadxon uchun qurilgan saroy.

XIVA XONLIGINING TUGATILISHI

BUGUN DARSDA

- Xalq harakatlari.
- Islohotlar uchun kurash.
- Xiva xonligining tugatilishi.

MULOHAZA UCHUN

1. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat qanday edi?
2. Xalq noroziligi harakatlarining maqsadlari nimadan iborat edi?

MA'LUMOT UCHUN

Muhammad Rahimxon II vafot etgach, imperiya hukumati yordamida taxtni uning o'g'li Asfandiyorxon (1910–1918) egallaydi. Rossiyadagi 1917-yil fevral voqealaridan keyin Yosh xivaliklar Asfandiyorxondan islohotlar o'tkazish to'g'risidagi manifestni imzolashni talab qildilar.



Asfandiyorxon

Islohotlar xon hokimiyati saqlangan, ammo Majlis (deputatlar palatasi) va Nozirlar kengashi (Vazirlar kengashi) bilan cheklangan konstitutsiyaviy monarxiyani tashkil etishni ko'zda tutgandi. Yosh xivaliklar, shuningdek, davlat mablag'lari sarflanishi ustidan nazorat qilish uchun moliya vazirligi, suv taqsimotini isloh qilish, xonlikning butun hududida yangi usul maktablarini tashkil qilish uchun qo'mita tuzishni, temiryo'llar va pochta-telegraf tizimi qurilishini ham talab qilishgandi.

1917-yilning 4-aprel kuni xon devonxonasi ro'parasida bir necha ming kishilik namoyish bo'lib o'tdi. Xon Polvonniyoz Hoji Yusupov va Husaynbek Matmurodov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi va 5-aprel kuni Yosh xivaliklar taqdim etgan manifestni imzoladi. Hujjatga muvofiq Xorazm konstitutsiyaviy monarxiya etib belgilandi.

1917-yil 26-aprelda bo'lib o'tgan Majlisning birinchi sessiyasida 30 nafar xivalik deputat va turkmanlardan 7 nafar vakil ishtirok etdi. Majlis Vazirlar kengashini sayladi. Ammo ikki oy o'tmasdan konservativ kuchlar harbiy to'ntarishni amalga oshirdi va Majlisni tarqatib yubordi. Yosh xivaliklar hibsga olinib, ulardan bir qismi otib tashlandi.

Manifest talablari

— Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatni mutlaq boshqarishni butkul barham toptirish.

— Xiva xoniga shahzodalar va vazirlarga tegishli bo‘lgan mablag‘lar va mulklarni xalq mulki deb e ’lon qilish.

— Kambag‘allar hayotini yaxshilash yo‘lida yirik zamindorlar yerlaridan foydalanish.

— Bolalarni bepul o‘qitish uchun xonlikning hamma joyida maktablar ochish.

— Shaharlar va aholi manzilgohlarida bepul shifoxonalar va sog‘lomlashtirish muassasalari ochish.

— Xiva xoni va beklari tomonidan kambag‘al aholidan tortib olingan yerlar, mulk va boshqa narsalarni qaytarib berish.


— Majburiy mehnatga jalb qilish (begor)ni butunlay yo‘q qilish.

Rossiya imperiyasining Xivaga yurishlari paytida yosh Qurbon Mamed (Muhammad) turkman yovmut yigitlari qatorida bosqinchilarga qarshi janglarda qatnashgan. Asfandiyorxon Junaydxonni turkman qabilalarining sardori etib tayinlagan (1915). Turkman oqsoqollari uni Junaydxon deb e’lon qilishgan.

BILASIZMI?

1917-yil oktyabr to‘ntarishidan keyin Rossiyada bolsheviklar hukumatni qo‘lga kiritdi. Turkistonda ham hokimiyat bolsheviklar qo‘liga o‘tdi va bu yerda ham sovet respublikasi tuzildi. Sovetlar xavfi oldida hukumatni yo‘qotishdan qo‘rqqan Asfandiyorxon bosh qo‘mondon etib turkmanlarning yovmut qabilasi sardori Qurbon Mamed (Muhammad) sardor Junaydxonni tayinladi. Saroyda mavqeyini oshirib olgan Junaydxon 1918-yilning oktyabr oyida davlat to‘ntarishini amalga oshirdi va Nurullaboy saroyida Asfandiyorxonga suiqasd uyushtirdi.

Taxtga Asfandiyorxonning akasi Said Abdulla o‘tirdi. Amalda hokimiyat Junaydxon qo‘lida to‘plangan edi.



MA’LUMOT UCHUN

1920-yil yanvar oyidan Xivaga qarshi hujumga o‘tgan sovetlar fevral oyining boshlarigacha bir qator shaharlarni qo‘lga kiritadilar. Natijada Said Abdullaxon taxtdan voz kechadi.

1920-yilning 27–30-aprel kunlari Xivada bo‘lib o‘tgan xalq vakillari Butunxorazm qurultoyi xonlik tugatilganligi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e’lon qildi. Qurultoy XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Qurultoy shuningdek, 15 kishidan iborat hukumat – Xalq Nozirlar Kengashini sayladi. Yosh xivaliklar rahbarlaridan Polvonniyoz Yusupov uning birinchi raisi bo‘ldi.



DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Manifest talablarini amalga oshirish uchun xon tomonidan qanday sharoitlar yaratilishi talab etilgan?
2. Rossiyada qanday vaziyat hukm surmoqda edi?
3. Rossiyadagi 1917-yil fevral va oktyabr to‘ntarishlari Xiva xonligiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

TURKISTON MUXTORIYATI

BUGUN DARSDA

- Muxtoriyat uchun kurash.
- Muxtoriyatning tugatilishi.
- Qo‘qon fojiasi.

MULOHAZA UCHUN

1. Turkiston muxtoriyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Rossiyada bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar Turkiston o‘lkasiga qanday ta’sir ko‘rsatgan edi?

MA’LUMOT UCHUN

1917-yil 26–28-noyabrda Qo‘qon shahrida Butunturkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo‘lib o‘tdi.Turkistonni boshqarish shakli to‘g‘risidagi masala qurultoyning diqqat markazida turdi.

Qurultoy qatnashchilari muxtoriyat va mustaqillik e’lon qilish fikrini qo‘llab-quvvatlashdi. 27-noyabrda tashkil topgan hukumat Turkiston Muxtoriyati deb ataldi. Ta’sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Muvaqqat kengashi va Turkiston Milliy majlisi qo‘lida jamlandi.

Shu tariqa, o‘lkada ikki hokimiyatchilik yuzaga keldi. Ularning biri millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi huquqini yoqlagan, milliy davlat mustaqilligini tiklashga qattiq bel bog‘lagan taraqqiyparvar ziyolilar, ishbilarmonlar hukumati, ikkinchisi, Rossiya imperiyasi hukmronligini yangicha sharoitlarda saqlab qolish siyosatini yuritgan bolsheviklar edi.

Demokratik musulmon ziyolilari talabi bilan Turkiston aholisining yevropalik qismi vakillari ham qurultoyda teng huquqli ishtirok etdilar. Qurultoyning 27-noyabr kuni qabul qilingan qarorida shunday deyiladi: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o‘z huquqlarini o‘zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qiladi».





«27-noyabr Qo‘qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon syezdida e’lon qilindi. Muborak va xayrli bo‘lsin! Kamina ham majlisda bo‘lushdan iftixor etaman. Yashasin Turkiston muxtoriyati!»

Behbudiy. «Hurriyat» gazetasi, 1917-yil.

Oldiniga bolsheviklar Turkiston Muxtoriyati hukumatining ta’sir doirasini cheklash va uni tugatish uchun yetarli harbiy kuchga ega bo‘lmagan. Ular 1918-yil 19-yanvardagina Orenburgni qo‘lga olib, Moskva bilan Turkiston o‘rtasida temiryo‘l qatnovini tiklaganlaridan so‘ng Toshkentga qurol-yarog‘ yetkazib berish imkoniga ega bo‘ladilar. Toshkentdagi bolsheviklar bundan ruhlanib, 1918-yil 31-yanvarda Qo‘qondagi Turkiston Muxtoriyati hukumatini tarqatib yuborish haqida qaror qabul qiladilar.

Elli(k) yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi, og‘zimiz qopondi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizg‘a tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyog‘lar ostig‘a olindi, to‘zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘yunsundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermadik, yashunturdik, imonlarimizga avrab saqladik: Turkiston muxtoriyati!

Fitrat. «Hurriyat», 1917-yil.

IJODIY FAOLIYAT


1. Fitrat o‘zining fikrlari orqali qaysi voqealarni nazarda tutmoqda?
2. Matndagi «yashunturdik, imonlarimizga avrab saqladik: Turkiston muxtoriyati!» so‘zlariga e’tibor qaratting. Uni *mustaqillik, hurlik, erkinlik, ozodlik,* kabi so‘zlarning mohiyati bilan qanday bog‘liqligi bor?
3. Muxtoriyat deganda nimani tushundingiz?

Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko‘rgan bo‘lsa ham, u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqlol uchun kurashga da’vat etdi.



MULOHAZA UCHUN

Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o‘rtasida katta e’tibor qozondi. Fitrat, Cho‘lpon, Hamza singari o‘zbek xalqining otashin shoirlari muxtoriyat hukumatini alqab, o‘tli she’rlar bitishdi. Fitrat muxtoriyat e’lon qilingan 27-noyabr tunini «Milliy laylatulqadrimiz» deb atadi. Turkiston o‘lkasining turli shahar va qishloqlarida muxtoriyatni olqishlab, ko‘p ming kishilik namoyishlar bo‘lib o‘tdi. O‘sha davrda chiqqan gazetalarning yozishicha, namoyish qatnashchilarining bayroqlarida «Yashasin Muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!» deb yozilgan so‘zlar hilpirab turardi.




MA’LUMOT UCHUN

O‘lkadagi ilk demokratik va xalqchil hukumat bo‘lgan Turkiston Muxtoriyatining faoliyati, afsuski, uzoqqa cho‘zilmadi. Bolsheviklar va Toshkent Soveti (rahbari: Ivan Tobolin) unga katta xavf deb qaradilar hamda zudlik bilan tugatishga harakat qildilar. Turkiston o‘lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining 1918-yil 19–26-yanvarda bo‘lib o‘tgan favqulodda IV syezdida Turkiston Muxtoriyati hukumatini kuch bilan tugatishga qaror qilishdi.

Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti 1918-yil 30-yanvar kuni harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil gvardiyachilardan tashqari yollangan qurolli guruhlardan ham keng foydalandi. Natijada Qo‘qon shahrida ko‘plab aholi halok bo‘ldi. Turkiston Muxtoriyati esa harbiy kuch ishlatish yo‘li bilan tugatildi.


1918-yil 22-fevralda Qo‘qon shahridagi Rus–Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan «tinchlik shartnomasi» imzolandi. Ushbu shartnomaning 2-moddasida: «Aholi o‘lka Xalq Komissarlari Soveti hokimiyati va barcha mahalliy sovet tashkilotlarini tan oladi», deb yozilgan edi.



DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Turkiston Muxtoriyati qanday sharoitda va kimlar tomonidan tashkil etildi?
2. Siz Turkiston Muxtoriyatini demokratik davlatchilik namunasi sifatida tavsiflab bera olasizmi?
3. Bolsheviklar Muxtoriyatga nima sababdan katta xavf sifatida qaragan?
4. Muxtoriyat hukumati mag‘lubiyatining asosiy sabablarini ko‘rsatib bering.
5. Turkiston Muxtoriyati tajribasidan qanday zarur saboqlar chiqarish mumkin?

TURKISTON O‘LKASIDA SOVET HOKIMIYATI BOSHQARUV TIZIMINING O‘RNATILISHI



BUGUN DARSDA

- Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR) tuzilganligining e’lon qilinishi.
- Turkiston komissiyasini tuzilishi.
- «Harbiy kommunizm» siyosati.
- YIS (NEP) va Sovet hokimiyati tomonidan xususiy mulkni tugatish ishlari.



MULOHAZA UCHUN

1. Bolsheviklar hokimiyatiga Turkistonda «sovet avtonomiyasi»ni o‘rnatishdan qanday manfaatdorlik bor edi?
2. 1918-yil Buxoro va Xiva davlatlarining chegaralarini xaritadan ko‘rsating.
3. Buxoro va Xiva xonligidan tashqari hududlarda qanday boshqaruv tarkibi mavjud edi? Bu hududlar kim tomonidan va qanday boshqarilgan?



MA’LUMOT UCHUN

Sovet hokimiyati Rossiyaga tegishli bo‘lgan chekka o‘lkalar, shu jumladan, Turkistonda ham «sovet avtonomiyasi» o‘rnatishga qattiq kirishdi. Bu ishni bajarish uchun sovet Rossiyasi poytaxti Moskvadan ko‘plab partiya va sovet xodimlari Turkiston o‘lkasiga yuborildi.

Turkiston Muxtoriyatini tor-mor etilishi va bu yerdagi siyosiy vaziyat Moskva e'tiborini Turkistonga qaratdi. Sovet hukumatining topshirig‘i bilan bolshevik P. Kobozev O‘rta Osiyoning favqulodda komissari qilib Toshkentga jo‘natildi.

1918-yil 30-aprelda «Rossiya Sovet federatsiyasi (RSFSR)ning Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi Nizom» qabul qilindi.

Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti va Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Nizomda Turkistonda davlat qurilishi asoslari, uning hududi, oliy qonunchilik va ijroiya idoralari, mahalliy idoralar tuzilishi, vazifalari va ularning RSFSR bilan o‘zaro munosabatlari belgilab berildi.

Ushbu nizomga ko‘ra, RSFSR tarkibida Turkistonda avtonom respublika – Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR) tuzilganligi e’lon qilindi. Unga Buxoro amirligi va Xiva xonligidan tashqari, Turkiston o‘lkasining geografik chegaralaridagi butun hudud kirdi.



Nizomda: «Turkiston Respublikasi avtonom ravishda boshqarilib, o‘z xatti-harakatlarini Rossiya Sovet Federatsiyasi markaziy hukumati bilan muvofiqlashtiradi», – deb qayd etildi. Moskva yana bir idora – Turkiston komissiyasini tuzadi. Turkiston ASSRdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liq barcha muhim masalalar ularning roziligi bilangina hal etila boshlangan.

IJODIY FAOLIYAT

1. Turkiston ASSR qanday tuzilma edi? U nima maqsadda tashkil etilgan?
2. Moskva Turkiston komissiyasini tuzishdan maqsadi nima bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Nima uchun?
3. Turkiston ASSRdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar Turkiston komissiyasi roziligi bilangina hal etilsa, mamlakat mustaqil bo‘ladimi?
4. Bu masala «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o‘z huquqlarini o‘zlari belgilash xususidagi» chaqirig‘iga qanchalik to‘g‘ri keladi?

MA’LUMOT UCHUN

- 1918–20-yillar «harbiy kommunizm» deb nomlandi. Uning mohiyati butun sanoat ishlab chiqarishi davlat qo‘lida jamlanib, qattiq markazlashtirish asosida boshqarishdan iborat bo‘lgan;
- dehqonlar o‘zi yetishtirgan mahsulotning ortiqchasini davlatga topshirgan (oziq-ovqat razvyorstkasi, ya’ni taqsimoti);
- davlat oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini taqsimlashni o‘z qo‘liga olgan; bozor yo‘qotilib, pul muomalasi natura (mahsulotlar) bilan almashtirildi;
- mehnatga yaroqli barcha aholi majburiy mehnatga jalb qilindi (mehnat militarizatsiyasi) va boshqalar.

Turkiston o‘lkasidan Markazga oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqib ketish tobora kuchaydi. 1920-yilda tashib ketilayotgan non mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat turlarining miqdori bir necha marta ko‘paygan.

O‘sha paytda don yetishtirishga ixtisoslashmagan Turkiston qishloq xo‘jaligi uchun bu katta miqdordagi hosil hisoblangan. Xalq ochlikdan qirilayotgan bir mahalda Turkistondagi oziq-ovqat zaxiralaridan bolsheviklar o‘zlarining harbiy maqsadlari uchun foydalangan.

«Harbiy kommunizm» siyosati o‘z mohiyatiga ko‘ra xalqqa qarshi qaratilgan bo‘lib, sotsializm qurish usuli sifatida mutlaqo yaroqsiz edi. Sovet hokimiyati Turkistondagi barcha fabrika-zavodlarni o‘z egalari qo‘lidan tortib olib, undan avvalo mudofaaga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalandi. «Harbiy kommunizm» siyosati natijasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanib kelgan jamiyatlar tarqatib yuborildi. Yirik va o‘rta sanoat korxonalari bilan birgalikda banklar, temiryo‘l transporti, bosmaxonalar davlat hisobiga o‘tkazildi.


Xususiy mulk egalari tekinxo‘rlar deb e’lon qilinib, fuqarolik huquqlaridan mahrum etildi. Bozor munosabatlari rad etildi. 1921-yil ko‘klamiga kelib mamlakatning iqtisodiy munosabatlarida keskin o‘zgarishlar yuzaga keldi.

NEP (**Yangi iqtisodiy siyosat**)ning asosi iqtisodiyot, xalq xo‘jaligiga rahbarlik qilishning harbiy-kommunistik usullaridan voz kechish,

IJODIY FAOLIYAT

Jahon tarixidan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. «Harbiy kommunizm» siyosatining mohiyati nimadan iborat edi?
2. Rossiyaning o‘zida bu siyosat qanday amalga oshirildi?
3. Nima uchun bolsheviklar sovet hokimiyatining dastlabki davri (1918–1920)da yuritgan siyosati «harbiy kommunizm» deb nomlagan?



Angren konidagi shaxtyor

ishlab chiqaruvchiga, avvalo dehqonlarga bir qadar erkinlik berishdan iborat edi.

Sovet hokimiyati tomonidan xususiy mulkni tugatish maqsadida O‘rta Osiyoda yer-suv islohoti amalga oshirildi. Yer-suv islohoti boy xo‘jaliklarini tugatish va ko‘chmanchi aholini o‘troq holatga o‘tkazish, katta yer egaligini yo‘qotib, yerlarni yersiz va kam yerli dehqonlar, batraklar, chorikorlar o‘rtasida mehnat normalari bo‘yicha taqsimlashdan iborat edi.

Islohotning dastlabki natijasiga ko‘ra yer tuzish jamg‘armasiga 1.722.626 desyatina yer qo‘shildi. Biroq sovet hokimiyati tomonidan ana shu resurslardan mahalliy aholiga faqat 600.000 desyatina yer ekin ekish va yaylovlar uchun ajratildi.



IJODIY FAOLIYAT

Jahon tarixidan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. NEP qachon qabul qilindi?
2. NEP dasturidan ko‘zlangan maqsad nima edi?
3. NEP Turkiston o‘lkasiga qanday ta’sir qildi?

O‘rta Osiyoda Sovet hokimiyati tomonidan xususiy mulkni tugatish 1921–1922-yillardan boshlandi. Dastlab Turkiston ASSR va Qozog‘iston ASSRda Yettisuv, Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand viloyatlarida katta yer egaligi yo‘qotildi. Mazkur islohot jarayonida vaqf yerlari ham tugatila boshlandi.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Turkistonda sovet avtonomiyasini tuzishdan ko‘zda tutilgan maqsad nima edi?
2. Turkiston sovet avtonomiyasi mazmunan va mohiyatan nega mahalliy aholining tub manfaatlariga javob berolmas edi?
3. Turkiston Kompartiyasini tuzish zaruriyati qanday sabablar bilan bog‘liq edi?
4. Turkkomissiya faoliyati haqida nimalar deya olasiz?
5. Yangi iqtisodiy siyosatni joriy etishdan kuzatilgan asosiy maqsadlarni bilasizmi?
6. Turkistonda o‘tkazilgan yer-suv islohotining birinchi bosqichida nimalarga asosiy e’tibor qaratildi?

TURKISTON ASSR, BXSR VA XXSRda SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI QUROLLI HARAKATLAR

BUGUN DARSDA

- Istiqlolchilik harakatining boshlanishi.
- Istiqlolchilarning maqsadlari, harakatning tugatilishi.

MULOHAZA UCHUN

Turkiston muxtoriyatining tugatilishi natijasida o‘lkada sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash boshlangan. Milliy-ozodlik harakati uzluksiz sal kam 20 yil, 1918–1935-yillargacha davom etgan.

Ularga Katta Ergash, Kichik Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Ibrohimbek, Fuzayl Maxsum singari milliy yetakchilar bosh bo‘lganlar.

Istiqlolchilik harakati goh kuchayib, goh pasayib turgan. Harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi uchun kurash bo‘lib qolaverdi.

MA’LUMOT UCHUN

Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi kurash 1918-yil fevral oyi oxirlarida boshlandi. Harakatning bosh g‘oyasi Turkiston mustaqilligi edi. Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati 1919-yil yozining oxiri va kuzida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi qo‘shinning sovet hukumatiga qarshi hujumi Farg‘ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919-yil 12-oktyabrda Pomirning Ergashtom ovulida bo‘lgan anjumanda Madaminbek boshchiligida Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi.





Istiqlolchilar harakati a’zolarining uchrashuvi.
1921-yil. Farg‘ona



Hukumat tarkibiga 16 nafar mahalliy aholi vakili kiritilgan edi. Madaminbek hukumat boshlig‘i bo‘lish bilan birga qo‘shinning Oliy bosh qo‘mondoni etib ham tayinlandi.

1919-yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo‘l ostida 30 000 nafarga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbek qo‘l ostida 20 000, Katta Ergash qo‘rboshida 8 000 nafar askar bo‘lgan. Ana shu uchta lashkarboshi vodiydagi jangovar harakatlarni yo‘naltirib turdilar. Farg‘ona vodiysiga bolsheviklar tomonidan qo‘shimcha kuchlarning tashlanishi natijasida 1920-yil yanvar oyining o‘rtalariga kelib jangovar tashabbus qizil armiya qo‘liga o‘tdi. Katta Ergash qo‘rboshining qo‘shini mag‘lubiyatga uchragach, Shermuhammadbek asosiy kuchlarini olib, Oloy vohasiga chekindi.

Madaminbek vaqtdan yutish uchun Farg‘ona fronti qo‘shinlari qo‘mondonligiga yarashish muzokaralarini boshlashni taklif qildi. Natijada Madaminbek bilan 2-Turkiston

o‘qchi diviziyasining boshlig‘i N. Veryovkin-Roxalskiy o‘rtasida 1920-yil 6-martda Skobelev shahrida yarash bitimi imzolandi.

Biroq oradan ko‘p o‘tmay, 1920-yil mayda sovet qo‘mondonligi tomonidan qo‘rboshilar o‘rdasiga yuborilgan Madaminbek noaniq vaziyatda o‘ldirildi. Turkistondagi harakat 1920-yilning yozi va kuzida o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda endilikda Buxoro va Xorazmda ham qizil armiyaga qarshi kurash boshlandi.



BILASIZMI?

BXSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Usmon Xo‘ja, harbiy ishlar noziri Abdulhamid Oripov hamda Muhiddin Maxsum Xo‘jayev, Ali Rizo Afandi, Surayyo Afandi, Qulmuhamedov va boshqa milliy rahbar xodimlar o‘z lavozimlarini tark etib, muxolifatdagi qurolli harakat saflariga o‘tib ketgani ko‘p narsadan dalolat beradi.



MA’LUMOT UCHUN

Buxoroda amirlik tuzumi ag‘darilgach, 1920-yil sentyabr oyida Sharqiy Buxoro (Ko‘lob, Kalif, Baljuvon viloyatlari)ga kelgan sobiq amir Olimxon katta kuch to‘plab, qizil armiyaga qarshi kurashga rahbarlik qildi. 1921-yil mart oyida bir qator janglarda mag‘lubiyatga uchragan Olimxon Afg‘oniston davlatiga o‘tib ketdi.

G‘arbiy Buxoro hududida Mulla Abdulqahhor, Sharqiy Buxoro hududida Ibrohimbek va Davlatmandbek kabi qo‘rboshilar harakatga rahbarlik qilishdi.

Qisqa muddat davomida Mulla Abdulqahhor boshchiligida poytaxt Buxoro tumanlarida lashkar to‘plandi va qizil armiyaga qarshi jangovar harakatlar olib borildi. Uning qo‘l ostida Buxoroning g‘arbiy qismida 20 nafar qo‘rboshi birlashgan. Mulla Abdulqahhor qo‘rboshi 1924-yilning oxirida Qizilqumda qizil askarlarga qarshi bo‘lgan janglarning birida halok bo‘ldi.

Ibrohimbek qo‘l ostidagi Sharqiy Buxoro hududida yangi Buxoro hukumati tugatilib, uning o‘rniga amirlik davridagi boshqaruv usuli joriy qilingan. Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi tomonidan Ibrohimbek bilan boshqa qo‘rboshi guruhlari o‘rtasida nizo chiqarish uchun tavsiyalar beriladi. Shunga qaramay, Ibrohimbek qo‘rboshi ko‘p yillar davomida Sharqiy Buxoroda qizil armiyaga qarshi fidokorona kurashdi.

Buxorodagi istiqlolchilik harakati rahbarlari o‘rtasida Turkiyadan kelgan generallar – Anvar Posho va Salim Posho alohida ajralib turadi. Anvar Posho 1921-yilning kuzida Mulla Nafis qo‘rboshi bilan uchrashib, maxsus bayonot bilan chiqadi hamda turkistonliklar va buxoroliklarning sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi kurashiga qo‘shilganligini e’lon qiladi. Anvar Poshoning sa’y-harakatlari bilan Sharqiy Buxoroda birlashgan qismlar tashkil etildi va u turk zobitlari bilan mustahkamlandi, g‘arbcha qo‘mondonlik uslubi joriy qilindi. Anvar Posho 1922-yil avgustda Sharqiy Buxoroning Baljuvon atrofidagi Obidara qishlog‘ida qizil askarlarga qarshi bo‘lgan jangda halok bo‘ldi.



Istiqlolchilar



MA’LUMOT UCHUN

Xorazmda Junaydxon boshchiligidagi qurolli guruhlar safida turkman va o‘zbeklardan tashqari qozoq va qoraqalpoqlar ham ko‘pchilik edi. Ko‘hna Urganch, Toshhovuz, Mang‘it, Qo‘shko‘pir, Chimboy, Qo‘ng‘irot va To‘rtko‘lda harakat qilgan o‘nlab sardorlarning guruhlari qizil askarlarga jiddiy zarba bergan. Junaydxon tarix sahifalarida murakkab va ziddiyatli shaxs sifatida bitilgan. U avval Rossiya imperiyasi va Xiva xonligiga qarshi kurashgan bo‘lsa, 1918-yil o‘rtalaridan e’tiboran qizil askarlarga qarshi mustaqillik uchun jangga kirgan.

Junaydxon 1924-yil 17-iyunda o‘zining 20 nafar hamrohi bilan Afg‘onistondagi Hirot shahriga yetib keldi. Manbalarda aytilishicha, u bu yerda turib o‘z qo‘shinlari safini to‘ldirishga tayyorlangan. Oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan, Junaydxon XXSR hududiga qaytib keldi va istiqlolchilik harakatiga boshchilik qilishda davom etdi.

Harakatning mohiyatini sovet qo‘mondonligi vakillari ham e’tirof etishga majbur bo‘ldilar. Turkiston frontining qo‘mondoni M. Frunze: «Bosmachilikka qarshi kurash tamomila yangi, ayricha xususiyati bo‘lgan, o‘ziga xos dushman bilan kurash demakdir», deb yozgan edi. Uning gapiga ko‘ra «Yo‘qolsin sovet hokimiyati!» va «Mustaqil bir musulmon davlatini tuzamiz!» iboralari harakatning lo‘nda g‘oyasini ifodalardi.



1921-yil iyun–sentyabr oylarida vodiyda 200 dan ortiq qo‘rboshi guruhlari harakat qilgan.

IJODIY FAOLIYAT

1. Istiqlolchilik harakatining eng zaif tomoni nimalardan iborat bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
2. Matnni o‘qib fikr bildiring.

«... Turkiston marvaridi bo‘lgan Farg‘ona ikki yildan ortiqroq vaqtdan beri qonli urush maydoni holatidadir... Bu yerdagi sovet hokimiyati ilk tuzilish davrida rus va yerlik ishchi, dehqon ommalarini o‘ziga tortish o‘rniga mehnatkash xalqni o‘zidan uzoqlashtirish uchun qo‘lidan kelgancha harakat qildi...

Bu yerda harakat qilgan qizil askar qismlari, inqilobni himoya qilgan ba’zi rahbarlar yerli mehnatkash xalqning tub manfaatlari bilan hisoblashmadi, uning arz-u dodiga quloq solmadi. Bosmachilik harakati shu asosda vujudga keldi».

M. Frunze



MA’LUMOT UCHUN

1924-yil kuzida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida qurolli kurashning birinchi davri yakunlandi.

Uning ikkinchi davri (1925–1935-yillar) esa yana 10 yil davom etib, o‘zining xarakteri va kuchlar nisbati jihatidan avvalgi davrdagidan ancha farq qiladi.

Bu davrda asosan Sharqiy Buxoro, Xorazm vohasi va Farg‘ona vodiysining ayrim hududlarida janglar davom etdi. 1935-yilga kelib Turkistondagi istiqlolchilik harakati mag‘lubiyatga uchradi. Tirik qolgan kurashchilarning aksariyati xorijiy davlatlarga muhojir bo‘lib jo‘nab ketishga majbur bo‘ldi.


Istiqlolchilik harakatining eng zaif tomoni uning Turkiston mintaqasida yagona markaz ostida to‘liq birlasha olmaganligi va harbiy tayyorgarlikning yetarli darajada emasligida edi.

Shuningdek, istiqlolchilik harakatiga aloqador bo‘lmagan ba’zi jinoiy to‘dalar talonchilik va bosqinchilik bilan shug‘ullanib, ko‘plab begunoh aholini o‘ldirishdi. Bundan qizil armiya qo‘mondonligi va bolsheviklar ustomonlik bilan foydalanishdi. Ular maxsus josuslar, turli ayg‘oqchilar va sotqinlar yordamida harakat ichidagi birlikni parchalash, ba’zi guruhlar rahbarlari o‘rtasidagi tarqoqlik va o‘zaro ixtiloflarni yanada avj oldirishga urindilar.

Sovet davrida ushbu istiqlol harakatining vakillari «bosmachilar» deb atalgan.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Qanday sabablar Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatni keltirib chiqardi?
2. Farg‘onadagi harakat rahnamolari orasida kimlarning nomlarini alohida ajratib ko‘rsatgan bo‘lardingiz?
3. Madaminbek shaxsini qanday baholaysiz?
4. Samarqanddagi harakat rahnamolari orasida kimlarning nomlarini alohida ajratib ko‘rsatgan bo‘lardingiz?
5. Vodiy qo‘rboshilarining bir-birlari bilan yetarli darajada birlasha olmaganligining sabablarini qanday izohlaysiz?
6. Nima sababdan BXSR hukumati a’zolarining ayrimlari qo‘rboshilar tomoniga o‘tib ketdilar?
7. Buxoro va Xorazmda qizil armiyaga qarshi istiqlolchilik harakatining boshlanishiga nimalar sabab bo‘ldi?
8. Istiqlolchilik harakatining mag‘lubiyatga uchrashi bilan bog‘liq omillarni sanab bering.




O‘RTA OSIYODA HUDUDIY CHEGARALANISH

BUGUN DARSDA

- O‘rta Osiyoda milliy chegaralanish.
- TASSR, BXSR va XXSRlarning tugatilishi.
- O‘zbekiston SSRning tashkil topishi.

MULOHAZA UCHUN

7-sinf «O‘zbekiston tarixi» darsligidan o‘lkamiz qachondan boshlab «Turkiston» nomi bilan atala boshlanganini eslang. O‘lkamiz hududining bunday nomlanganligi bo‘yicha qanday omillar mavjud?



Turor Risqulov

MA’LUMOT UCHUN

O‘rta Osiyoni hududiy chegaralab bo‘lish masalasi 1924-yil boshlaridan amalga oshirila boshlandi. 1924-yil fevral–iyun oylarida SSSRdagi markaziy organlar, Turkiston, Buxoro, Xorazm kommunistik partiyalari va Rossiya kommunistlar partiyasi (bolsheviklar) (RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi milliy chegaralanish masalalari yuzasidan jadal ish olib borishdi.

Turkiston va Buxoro Kompartiyalari Markaziy Komitetlari huzurida maxsus komissiyalar tuzildi.

Turor Risqulov boshchiligidagi bir guruh milliy kommunistlar 1920-yildayoq turkiy xalqlar yagona bo‘lib, ularning tarixiy ildizlari, dinlari, an’analari va madaniyati mushtarakdir, yagona Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo‘lmaydi, degan g‘oyani ilgari surdilar. Biroq Markaz kommunistlari bu fikrni inkor etib, uni «panturkizm», «panislomizm», «burjua millatchiligi va o‘ng og‘machiligi» deb baholadi.

IJODIY FAOLIYAT

Jahon tarixi darsligidagi ma’lumotlarga tayanib «panturkizm», «panislomizm», «burjua millatchiligi», «kommunist» singari tushunchalarga izoh bering. Ularning o‘lkamiz tarixiga qanday daxldorligi bor?

MA’LUMOT UCHUN

Sovet hokimiyatining chegaralanish siyosatiga dastavval Turkiston ASSR, BXSR va XXSR rahbarlari qarshi bo‘lishgan. 1924-yil fevralda Buxoro Kompartiyasi chegaralanish masalasi yuzasidan Fayzulla Xo‘jayev tomonidan yozilgan tezislarni qabul qildi.

Unda RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosining bu sohadagi qarashlari xato ekanligi tanqid qilingan edi. 1920-yil 10-martda bo‘lgan Turkiston ASSR MIK va Turkiston Kompartiyasining birlashgan kengashida Sultonbek Xo‘janov, Sanjar Asfandiyorov, N. Paskutskiy kabi partiya xodimlari Sovet Sotsialistik Respublikalarining O‘rta Osiyo federatsiyasini tuzish taklifi bilan chiqdilar.

Shu bilan birga S. Xo‘janov Turkiston yagona va butun, uning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emas, deb ta’kidladi.

Bundan tashqari, 1923-yil dekabrda Farg‘ona vodiysi vakillari RSFSR tarkibida Farg‘ona muxtor viloyatini tashkil etish to‘g‘risidagi taklif bilan chiqqan edilar. Xullas, munozaralar tobora qizib bordi.

XXSR rahbarlarida ham alohida qarashlar bo‘lgan. 1924-yil 8-mayda bir guruh Xorazm rahbarlari RKP(b) MKga «Xorazmda milliy masalani hal qilish to‘g‘risida maktub» yuborib, unga Xorazmni chegaralanishga qo‘shmaslikni iltimos qildilar. Ular o‘zlarining shu nuqtayi nazarlarini respublikaning olisda joylashganligi, iqtisodiy jihatdan ajralib turganligi bilan asosladilar. Bu nuqtayi nazarni qo‘llab-quvvatlagan Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komiteti mas’ul kotibi Qalandar Odinayev 1924-yil iyulda o‘z vazifasidan olib tashlandi va XXSR hududi milliy chegaralanishga tortildi.

Sultonbek Xo‘janov milliy masalada «og‘machilik»ka yo‘l qo‘yishda ayblangan va 1937-yil 16-iyunda qamoqqa olingan va otishga hukm qilingan (1938-yil 8-fevral). 1957-yilda oqlangan.





Xorazm xalq sovet respublikasining gerbi va tangasi

IJODIY FAOLIYAT

1. S. Xo‘janov Turkiston yagona va butun, uning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emas, deb ta’kidlaganida nimani nazarda tutgan?
2. O‘ylab ko‘ring-chi, sovet hukumatiga nima uchun milliy chegaralanish kerak edi? Bundan ko‘zlangan asosy maqsad nima bo‘lgan?

MA’LUMOT UCHUN

1924-yil 15-iyulda RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va oblastlarning muvaqqat byurosini tashkil etdi. O‘zbeklar byurosi tarkibiga Fayzulla Xo‘jayev, Rustam Islomov, Akmal Ikromov, Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Muxtorjon Saidjonov, Kalugin a’zo sifatida, Inoyatov nomzod sifatida kiritildi.

1924-yil 12-iyunda I. V. Stalinning taklifi bilan RKP(b) MK Siyosiy byurosining «O‘rta Osiyo respublikalarini milliy-hududiy chegaralash to‘g‘risida»gi maxsus qarori qabul qilingan.

IJODIY FAOLIYAT

1. *«Milliy respublikalar tuzish zarurligi g‘oyasining tashabbuskorlari o‘z fikrlarini Turkistondagi tub xalqlar hayotida tengsizlik mavjudligi va milliy mojarolar kuchayib borayotgani bilan asosladilar».*
   Yuqoridagi fikrni izohlang. Aslida nima nazarda tutilgan? Javoblaringizni istiqlolchilik harakatlari bilan bog‘lab tushuntiring.
2. Milliy chegaralanish davrida xo‘jalikka oid iqtisodiy omillarning, mavjud suv resurslari va sug‘orish tizimlari umumiy ekanligining hisobga olinmaganligi nimalarga sabab bo‘ldi?
3. Suv resurslari deganda nimalar nazarda tutilgan?
4. Bu chegaralanish O‘zbekistonning iqtisodiga qanchalik ta’sir ko‘rsatadi?

MULOHAZA UCHUN

1918–1924-yillarda mavjud bo‘lgan Turkiston ASSR, BXSR, XXSRning tub xalqlari asrlar davomida turmush tarzi va an’analari jihatidan bir-birlariga juda yaqin bo‘lishgan. Turkistondagi turli davlatlarning har birida o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, tojiklar azaldan yonma-yon yashagan. Bu tarixan tarkib topgan mushtarak hodisa edi. Turkiston mintaqasining xalqlari shu tuproqni, Turonzaminni qadimdan o‘zlarining yagona Vatani deb bilganlar.



Hududlarni qaytadan belgilash va chegaralash tarafdorlari til tafovutlari, milliy tafovutlarga diqqatni ko‘proq qaratib, xo‘jalikka oid iqtisodiy omillarni, mavjud suv resurslari va sug‘orish tizimlarining umumiy ekanligiga e’tibor qaratmadilar.



Xivadagi madrasa hovlisida majlis

MA’LUMOT UCHUN

Turkiston ASSR siyosiy rahbariyati orasidagi yevropaliklar bilan mahalliy xalqlar vakillari o‘rtasidagi ixtiloflar, ayrim mahalliy kommunistlarining guruhbozlik ko‘rinishlari o‘z-o‘zidan Turkiston xalqlari o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘chirildi.

RKP(b) MK Bosh kotibi I. V. Stalin, RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi raisi Y. Rudzutak va boshqalar O‘rta Osiyoda milliy mojarolar mavjudligini ta’kidlashdan charchashmadi. Xullas, milliy masala Markaz tomonidan sun’iy ravishda bo‘rttirib yuborildi va bu holat yangi tashkil qilinadigan milliy respublikalar va viloyatlar hududini tubdan qayta belgilash uchun hal qiluvchi asosiy dalil sifatida ilgari surildi.


1924-yil 27-oktyabrda Moskvada bo‘lgan Butunittifoq (SSSR) Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining III sessiyasi O‘rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi.

1924-yil sentyabr–oktyabr oylarida O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishi O‘rta Osiyo respublikalari, RSFSR va SSSRning oliy organlarining qarorlariga muvofiq kuchga kirdi.

MA'LUMOT UCHUN

O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi:

- ✓ O'zbekiston SSR;
- ✓ Turkmaniston SSR;
- ✓ O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR (1929-yilgacha);
- ✓ RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati;
- ✓ RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR;
- ✓ Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpoq muxtor viloyati.
- ✓ Keyinchalik Qoraqalpog'iston ASSR, 1936-yildan O'zSSR tarkibiga kirgan.





DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. XXSR vakillari o'z hududini milliy-hududiy chegaralanishga qo'shish lozim emasligini nimalar bilan asoslagan edi?
2. Milliy respublikalar tuzish zarurligi g'oyasining tashabbuskorlari o'z fikrlarini qanday asosladilar?
3. Sovetlarning O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazishdan asosiy maqsadi nima edi?
4. XX asrning 20-yillari o'rtalariga kelib O'rta Osiyoning siyosiy xaritasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
5. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida qanday respublika va viloyatlar tashkil etildi?

O‘ZBEKISTON SSRning TASHKIL TOPISHI



O‘rta Osiyoni milliy chegaralsh komissiyasi

BUGUN DARSDA

- O‘zbekiston SSRning tuzilishi, uning hududi va aholisi.
- O‘zbekiston SSRda ma’muriy-hududiy bo‘linishlar.
- O‘zbekiston SSRning poytaxtlari.

MULOHAZA UCHUN

1. SSSR qachon tashkil topgan edi? Uning tarkibidagi respublikalarning huququy maqomini qanday baholaysiz?
2. Qaysi mezonlar asosida mazkur hududlar O‘zbekiston SSR hududiga kiritilgan deb o‘ylaysiz?

Turkiston ASSR da 9 ta uyezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi; Buxoro respublikasining 9 ta viloyati; Xorazm respublikasining 23 ta tumani bo‘lgan.

1924-yil oxirida O‘rta Osiyo respublikalarida hammasi bo‘lib 8 131 062 kishi yashagan bo‘lib, ularning qariyb yarmisi O‘zbekistonda istiqomat qilgan. Qurultoyda respublikaning oliy organlari: O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (O‘zSSR MIQ) va O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti (O‘zSSR XKS) tuzilgan.

MA’LUMOT UCHUN

1925-yil 13–17-fevral kunlari Buxoroda bo‘lib o‘tgan Butun-o‘zbek (O‘zbekiston SSR) Sovetlarining I ta’sis qurultoyida «O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to‘g‘risida Deklaratsiya» qabul qilindi.


Deklaratsiyada yangi tashkil topgan O‘zbekiston SSR tarkibiga Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Zarafshon (Buxoro), Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Tojikiston ASSR kirganligi alohida ta’kidlandi.

Qurultoyda Fayzulla Xo‘jayev O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi, «Qo‘shchi» uyushmasi faoli Yo‘ldosh Oxunboboyev O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi lavozimlariga saylanishdi.

MA’LUMOT UCHUN

Samarqand shahri respublikaning markazida joylashgan edi. Bu holat yangi tashkil qilingan O‘zbekiston SSR hududining barcha qismlarida sovet tashkilotlari ishini jonlantirishga yordam berdi.

Mahalliy hokimiyat organlari mustahkamlanib, ularning markaziy hukumat muassasalari bilan aloqalari kuchaygandan so‘ng O‘zbekiston poytaxti 1930-yil 20-sentyabrda respublikaning eng muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi bo‘lgan Toshkent shahriga ko‘chirildi.



O‘zbekiston SSR tashkil topgan paytda 1925-yil fevral–aprel davomida Buxoro shahri, 1925-yil apreldan 1930-yil sentyabrgacha Samarqand shahri O‘zbekiston SSR poytaxti sanalgan.

BILASIZMI?

O‘zbekiston SSR hukumatining raisi Fayzulla Xo‘jayev bir kechada poytaxtni Samarqanddan Toshkentga ko‘chirib keltirgan edi.

MA’LUMOT UCHUN

O‘zbekiston SSRda 1925-yil 29-yanvarda ilk bor ma’muriy-hududiy bo‘linish o‘tkazilib, 7 viloyat (Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm) va alohida Konimex tumani tashkil etildi. 1926-yil 29-sentyabrda 10 ta okrug (Xorazm, Buxoro, O‘rta Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Xo‘jand, Qo‘qon, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo) va alohida Konimex tumani tuzildi.

«Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom» ga ko‘ra, Turkiston general-gubernatorligi viloyatlar (oblast), tuman (uyezd), jabhalar (uchastka), bo‘lislar (volost) va oqsoqolliklarga bo‘lingan.

IJODIY FAOLIYAT

«Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ga ko‘ra, Turkiston general-gubernatorligida qanday hududiy birlashmalar bo‘lgan va ular qanday nomlangan?

MA’LUMOT UCHUN

O‘zSSR tuzilishi arafasida, 1925-yil 6–12-fevralda eski Buxoro shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kommunistik partiyasining I ta’sis syezdida O‘zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti mas’ul sekretarlari qilib Vladimir Ivanov va Akmal Ikromovlar saylandi.

Sovet hokimiyati yillarida respublika siyosiy hayotida O‘zbekiston Kommunistik partiyasi asosiy rol o‘ynagan. O‘zbekiston partiya tashkiloti respublika va o‘zbek xalqi manfaatlarini hisobga olmasdan Moskvada ishlab chiqilgan qarorlarni bajarib kelgan.

O‘zbekiston Kompartiyasi aslida Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi (KPSS)ning O‘zbekiston SSRdagi filiali hisoblangan.

IJODIY FAOLIYAT

1. Hozirgi kunda O‘zbekistonda nechta viloyat va tuman bor?
2. Bugungi kunda mamlakatimizda qanday hududiy birliklar mavjud va ular qanday ataladi?
3. O‘zbekiston Kompartiyasini tuzishdan qanday manfaatdorlik ko‘zlangan?
4. O‘zbekiston SSR Rossiya o‘lkalariga qanday mahsulotlar yetishtirib bera boshlagan? Bu qachongacha davom etgan?



MA’LUMOT UCHUN

1927-yil 30-martda O‘zSSR birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Butun Ittifoqda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham mehnatkashlarning eng ommaviy tashkiloti – kasaba uyushmalari (profsoyuzlar) ham partiya komitetlariga to‘la-to‘kis qaram bo‘lib qoldi. 1925-yil 21-mart O‘zbekiston kasaba uyushmalariga asos solindi. O‘zbekiston kasaba uyushmalari respublika soveti (Uzsovprof) Butunittifoq Kasaba uyushmalari Markaziy Soveti (VSSPS) rahbarligida ish olib borgan.

1925-yilda O‘zbekiston leninchi kommunistik yoshlar ittifoqi (O‘zLKSM) tashkil etildi.

O‘zbekistondagi dehqonlarni g‘oyaviy jihatdan birlashtirib turgan tashkilotlardan biri «Qo‘shchi» ittifoqi bo‘lgan. U 1920–1933-yillarda faoliyat ko‘rsatgan.

1925-yilda 200 000 kishini o‘ziga birlashtirgan bu ittifoq ham asta-sekin bolsheviklarning qishloqdagi zo‘ravonlik siyosatining asosiy tayanchiga aylantirilgan.

Barcha tuzilmalar (tashkilotlar, uyushmalar) sovet mafkurasini mustahkamlashga va uni rivojlantirishga xizmat qiligan.

IJODIY FAOLIYAT

Jahon tarixidan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savolga javob bering:

Butunittifoq leninchi kommunistik yoshlar ittifoqi (VLKSM) qachon tashkil topgan edi va uning asl maqsadi nima edi?



MA'LUMOT UCHUN

1926-yil 1–12-dekabrda O‘zbekiston SSR tarkibida Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Tojikiston ASSR) tuzilganligi haqida deklaratsiya qabul qilindi.

1929-yil 16-oktyabrda Tojikiston ASSR o‘rniga Tojikiston SSR tashkil topdi va u O‘zbekiston SSR tarkibidan chiqdi.

1936-yil 5-dekabrda Qoraqalpog‘iston ASSR hududi O‘zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Bugungi kunda qoraqalpoq xalqi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasida yashab, bunyodkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqda.

VKP (b) – Butunittifoq kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi. KPSS (Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi)ning 1925–1952-yillardagi nomi.




BILASIZMI?

1926-yilda Tojikiston ASSR hududi 135.620 km^2, aholisi 739.503 kishi bo‘lgan. Qoraqalpog‘iston 1925–1932-yillarda Qozog‘iston, 1932–1936-yillarda RSFSR tarkibida bo‘ldi.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. «O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to‘g‘risida Deklaratsiya»ga muvofiq tashkil topgan O‘zbekiston SSR qaysi hududlardan iborat edi?
2. O‘zbekiston SSR poytaxti nima sababdan dastlab Samarqandga ko‘chirilib, undan Toshkentga ko‘chirilgan edi?
3. O‘zbekiston Kommunistik partiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat bo‘lgan?
4. Butunittifoqning kasaba soyuzi va komsomol yoshlar tashkilotlari nima maqsadda tashkil etilgan edi?
5. Milliy-hududiy chegaralanishdan keyin O‘rta Osiyo respublikalari xaritasidagi O‘zbekiston SSR hududini hozirgi O‘zbekiston xaritasi bilan taqqoslang. Bir xillik va farqli jihatlarini ikkita ustunda qiyoslang.

SOVET HOKIMIYATI AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARNING MOHIYATI. INDUSTRLASHTIRISH SIYOSATI VA UNING NATIJALARI




BUGUN DARSDA

- Quloqlashtirish siyosati.
- Kollektivlashtirish.
- Yakka dehqon xo‘jaliklarining tugatilishi.



MULOHAZA UCHUN

1. «Quloqlar» – «mushtumzo‘rlar» degan iborani eshitganmisiz?
2. Sho‘rolar xalqqa nimalarni va’da bergan edi? Aslida ularning harakati qanday edi?
3. 1918-yilgacha yerga egalik qilish shakli qanday edi?



MA’LUMOT UCHUN

O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilgandan so‘ng 1925–1929-yillarda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Islohotning ikkinchi bosqichi birinchisidan farqli o‘laroq katta yer egaligini (rasmiy hujjatlarda «quloqlar» – «mushtumzo‘rlar» deb yuritilgan) butunlay cheklash va ularni sinf sifatida tugatish masalasini qo‘ydi.

«Agrar inqilob»ning strategiya va taktikasi (1925-yil noyabr)da tasdiqlandi. Bu bosqich «Suv va suvni natsionalizatsiya qilish to‘g‘risida» va «Yer-suv islohoti to‘g‘risida»gi dekretlari bilan boshlandi.

Bu islohot O‘zbekistonda joylardagi shart-sharoit va tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda o‘tkazildi.

Bosqichi	Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich	Uchinchi bosqich
Hududi	Farg‘ona, Toshkent, Samarqand viloyatlari	Zarafshon viloyati (Buxoro va O‘rta Zarafshon okruglari)	Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglari
Davri	1925–1926-yillar	1927-yil	1928–1929-yillar



MA’LUMOT UCHUN

Yer-suv islohotini o‘tkazish to‘g‘risidagi dekretga asosan Toshkent va Samarqand viloyatlarida 40–50 desyatina va undan ortiq sug‘oriladigan yerlar davlat yer fondiga o‘tkazilishi va dehqonlarga bo‘lib berilishi nazarda tutilgan edi. Yer bilan birgalikda barcha ishchi hayvonlari (ho‘kiz, ot va b.), dehqonchilik asbob-uskunalari ham musodara qilindi.

1925–1929-yillarda o‘tkazilgan islohotlar natijasida barcha viloyatlarda 5 000 ga yaqin boy xo‘jaliklar tugatildi, 23 000 dan ortiq o‘ziga to‘q xo‘jaliklarning «ortiqcha» yerlari tortib olindi. Har bir boy va o‘ziga to‘q xo‘jalikning o‘ziga 7–10 desyatinagacha bo‘lgan yer qoldirilishi mumkin edi. Biroq o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklarining egalari samarali foydalanishgan va ishlab chiqarishni kengaytirishga harakat qilishgan.

IJODIY FAOLIYAT

Nima deb o‘ylaysiz, nega yer-suv islohotlari va «quloqlashtirish» siyosati aynan 20-yillarda boshlandi?

O‘zbekistonda boy xo‘jaliklar quyidagi ikki toifaga bo‘lingan:

1) 40–50 desyatina va undan ortiq sug‘oriladigan yeri bor boy xo‘jaliklar;

2) 10–40 desyatinagacha yeri bor o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklari. Keyinchalik o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklari «quloqlar» deb nomlandi.





MA’LUMOT UCHUN

Kollektivlashtirishning majburiy sur’atda amalga oshirilishi hamda kolxoz va sovxozlarning tashkil qilinishi. Yangi iqtisodiy siyosat tufayli o‘z xo‘jaligini tiklab olgan xo‘jaliklarni quloq qilish maqsadida 1930-yil «Kollektivlashtirish va quloq xo‘jaliklarini tugatish to‘g‘risida»gi qaror qabul qilindi.

Kollektivlashtirish mutasaddilari dehqonlarning majlislarida kolxozga kirmaganlar suvdan mahrum etiladi, sanoat mollari bilan ta’minlanmaydi, ularga katta soliq solinadi hamda yashash joyidan surgun qilinadi, deb dag‘dag‘a qilishdi. Natijada ko‘pchilik tumanlarda kollektivlashtirish bir necha hafta ichida amalga oshirildi. O‘zbekistonda dastlabki kolxozlar (jamoa xo‘jaliklari) va sovxozlar (davlat xo‘jaliklari) tashkil qilindi.

Respublikadagi dehqon xo‘jaliklarining 75 foizi umumiylashtirilgan sektorga, ya’ni kolxoz va sovxozlarga birlashdi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish rasman 1932-yili tugallandi.

Yakka dehqon xo‘jaliklarining bir qismi kolxozlardan tashqarida qoldi, lekin ularga iqtisodiy jihatdan tazyiq o‘tkazish yanada kuchaydi.

Bunday xo‘jaliklarga solinadigan qishloq xo‘jalik soliqlari oshirildi, davlatga majburan topshiriladigan mahsulot hajmi ham kolxozlarga nisbatan 50 foizga ko‘paytirildi. 1939-yilga kelib O‘zbekistonda yakka dehqon xo‘jaliklariga butkul barham berildi.

1929-yili sovet jamiyatida bozor munosabatlari muhiti barham topdi.





BILASIZMI?

1934–1937-yillarda O‘zbekistondan quloqlashtirish siyosati oqibatida ko‘plab badavlat dehqon xo‘jaliklari quloq qilingan. Sovet hokimiyati yillarida quloqlikka tortilib, surgun qilinganlardan tirik qolganlarining erkin fuqarolik maqomi olingan va ularning o‘z yurtiga qaytish jarayoni og‘ir kechib, taxmiman 20 yildan ko‘proq vaqtni, ya’ni 1934–1956-yillarni o‘z ichiga oladi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Sovet hukumati boy xo‘jalik va to‘q xo‘jalik o‘rtasidagi farqlarni qanday mezon asosida yuzaga keltirgan?
2. To‘q xo‘jaliklarning qanday turdagi moddiy boyliklari musodara qilingan edi?
3. Yer-suv islohotining oqibatlari nimalarga olib keldi?
4. Uyga vazifa: yer-suv islohoti o‘tkazilishiga oid jadvalni to‘ldiring.

Bosqichi	Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich	Uchinchi bosqich
Hududi			
Davri			
Jarayonlari			
O‘ziga xosligi			
Oqibatlari			

5. Taqdiri quloqlashtirish siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan yaqin qarindoshingiz (ota-bobolaringiz) hayoti haqida esse yozing.



MA’LUMOT UCHUN

Mamlakatda qishloq xo‘jaligini zo‘ravonlik bilan kollektivlashtirish jarayonida 1928-yili sanoatni industrlashtirish ham amalga oshirildi. O‘zbekiston uchun sanoat qurilishini keng sur’atda jadallashtirish nihoyatda zarur edi. 1927-yilda O‘zSSR xalq xo‘jaligida qishloq xo‘jaligining salmog‘i 62,6 %, sanoatning salmog‘i 37,4 % ni tashkil etar, shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishining 90 foizi qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlashga asoslangan edi.

Iqtisodiyot xomashyo yo‘nalishida bo‘lgani sababli respublika sanoati faqat bir tomonlama ixtisoslashtirilgan. Buning ustiga industrlashtirish siyosati qishloq hisobidan amalga oshirildi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining xarid narxlari pasaytirildi. Natijada dehqonlar qashshoqlashib, mamlakatda oziq-ovqat muammosi keskinlashdi.

Birinchi besh yillik davrida (1928-yil oktyabr – 1932-yil dekabr) O‘zbekistonda 289 ta yangi sanoat korxonasi qurildi va ishga tushirildi. Yengil sanoatning ko‘nchilik, poyabzal ishlab chiqarish, tikuvchilik sohalari va ip-gazlama ishlab chiqarish sur’atlari oshib bordi.

1928-yil kuzigacha mamlakat xalq xo‘jaligi bir yillik, besh yillik rejalari joriy bo‘ldi. Birinchi besh yillik rejasi 1928-yil oktyabrda boshlanib, 1932-yil dekabrda muddatidan 9 oy oldin yakunlandi.

IJODIY FAOLIYAT

O‘ylab ko‘rib, xulosa chiqaring.

Mahalliy millatlardan malakali mutaxassislar tayyorlash o‘rniga O‘zbekistonga, asosan, yevropalik aholi ko‘chirib keltirildi. Ular poytaxt Toshkent, yangi qurilayotgan shaharlar va viloyat markazlariga joylashtirilib, yaxshi maoshli ish, navbatsiz xonadon bilan ta’minlandilar. Universitet va institutlarga imtiyozli asoslar bilan o‘qishga qabul qilindilar.

Qishloqlardan kelgan o‘zbek yigit-qizlari esa shaharda muqim joylasha olmay, turli qiyinchiliklar va jiddiy yetishmovchiliklar natijasida asosan «qora ishlar» va maishiy sohada xizmat qilishga majbur bo‘lishdi.

MA’LUMOT UCHUN

Industrlashtirish O‘zbekistonda dastlab sekinlik bilan amalga oshirildi. Ana shu davrda O‘rta Osiyo respublikalarida paxtachilik va mashinasozlik sanoatining to‘ng‘ichi bo‘lgan Toshkent qishloq xo‘jaligi mashinasozligi zavodi barpo etildi.

Toshkent to‘qimachilik kombinati va Chirchiq elektr kimyo kombinati qurilishi tez sur’atlar bilan olib borildi. Elektr stansiyalari quvvati 482 mln kilovattga yetdi. XX asr 30-yillarida Chirchiq–Bo‘zsuv GESlar kaskadi barpo etildi.

O‘zbekistonda sanoat korxonalarining texnik darajasi haddan tashqari past, muhandislar, texniklar va zamonaviy texnikani biladigan malakali ishchilar yetishmas edi. Biroq sanoat korxonalariga malakali xodimlar va tajribali ishchilar RSFSRning markaziy shaharlaridan olib kelingan.

Chirchiq-Bo‘zsuv GESlar kaskadi









MA’LUMOT UCHUN

Bu davrda eng muhim muammolardan biri kadrlar masalasi edi. Chunki davlat hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlarida milliy kadrlar juda oz bo‘lib, ish yuritish ham rus tilida olib borilardi.

O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo‘jayev tub xalqlardan mahalliy kadrlar tayyorlash va ularni yuqori lavozimlarga ko‘tarishda jonbozlik ko‘rsatdi. Uning tashabbusi bilan O‘zSSR MIK huzurida 1925-yil martda Bobon Mavlonbekov raisligida «Davlat apparatini mahalliylashtirish Markaziy komissiyasi» tuzildi. Akmal Ikromov, Rahim Inog‘omov va boshqalar unga a’zo bo‘lishdi. Markaziy komissiyaning Samarqand, Zarafshon, Toshkent, Farg‘ona va respublikaning boshqa viloyatlarida ham bo‘limlari tashkil qilindi.

Mahalliylashtirish komissiyasi rahbariyati zimmasiga O‘zbekistondagi o‘quv yurtlari, ilmiy va madaniy-oqartuv (xalqning bilim va ongini oshirish) tashkilotlari, sanoat korxonalarini mahalliylashtirish asosiy rejasini ishlab chiqish yuklatildi.

MA’LUMOT UCHUN

1925-yil noyabrda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kommunistik partiyasining II syezdida «Partiya, sovet, xo‘jalik, kasaba uyushmalari va kooperativ tashkilotlariga mahalliy aholini jalb qilish» masalasi ko‘rib chiqildi. Syezdda boshqaruv va rahbarlik ishlariga ishchi, dehqon va ziyolilardan mahalliy kadrlar tayyorlash zarurligi uqtirildi.

1927-yil O‘zbekiston SSR MIK huzuridagi «Davlat apparatini mahalliylashtirish Markaziy komissiyasi»ning nomi «Davlat apparati va sanoatni O‘zbeklashtirish Markaziy komissiyasi» deb o‘zgartirildi.

Komissiya qaroriga ko‘ra o‘zbek aholisi ko‘proq bo‘lgan tumanlardagi barcha davlat, jamoat, kooperativ muassasalari va tashkilotlarida ish yuritishni o‘zbek tilida olib borishlari shart edi.

1931-yil SSSR MIKning «O‘zSSR apparatini o‘zbeklashtirish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilinib, unga ko‘ra O‘zbekiston davlat apparatini O‘zbeklashtirish Markaziy komissiyasi faoliyati to‘xtatildi. Markaz tomonidan boshqa ittifoqdosh respublikalarda bo‘lgani singari O‘zbekiston SSRda ham mahalliylashtirish jarayoni to‘xtatilib, u «burjua millatchiligi» deb e’lon qilindi

O‘zbeklashtirish siyosatiga jiddiy zarba berilib, ruslashtirish jarayoni o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi.

IJODIY FAOLIYAT

1927-yil 16–24-noyabrdagi syezdda qabul qilingan qarorda davlat apparatini milliylashtirish va o‘zbeklashtirish to‘g‘risida shunday deyilgan edi:

«O‘zbeklashtirish tushunchasi, aslini olganda, O‘zbekiston respublikasi territoriyasidagi davlat apparati va ish yuritishni o‘zbeklashtirishni ko‘zda tutadi, lekin kamsonli millatlarga o‘z ona tillarida xizmat ko‘rsatishni aslo istisno qilmaydi, balki, aksincha taqozo qiladi. Kamsonli millatlar ko‘pchilik yashagan tumanlarda sud organlari, maktablar o‘z ishlarini ularning ona tilida olib borishlari shart. Kamsonli millatlarni mamlakatni idora qilishga, jamiyat hayotiga jalb qilish kerak. Kamsonli millatlardan kadrlar tayyorlash masalasiga zo‘r e’tibor berish lozim».

DARSDAN IJOBIY SABOQ CHIQARIB

1. O‘zSSR xalq xo‘jaligida qishloq xo‘jaligining ulushi baland bo‘lishining sabablari nimada?
2. O‘zSSRda industrlashtirish davrida amalga oshirilgan ishlarda asosan, qaysi sohalarga e’tibor qaratildi?
3. «Kadrlarni mahalliylashtirish» deganda nimani tushundingiz?
4. O‘zbekistonda kadrlarni mahalliylashtirish siyosati tashubbuskorlari kim edi? Mahalliylashtirish qanday tartibda olib borildi?
5. O‘zbekistonda kadrlarni mahalliylashtirish siyosatining natija va oqibatlari qanday bo‘ldi?

O‘ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATI YURITGAN MADANIY SIYOSAT

BUGUN DARSDA

- Ta’lim va fan sohasidagi ishlar.
- Savodsizlikka qarshi kurash.
- Alifboning o‘zgartirilishi.
- Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish.

MULOHAZA UCHUN

1. Jadid maktablarinig maqsad-vazifalari sovet maf-kurasiga mos keladimi?
2. *Savodsizlik* deganda nimani tushunasiz?

MA’LUMOT UCHUN

Bolsheviklar barcha sohalar kabi ma’naviy hayotga ham o‘z ta’sirlarini o‘tkazdilar. Ular dastlabki yillarda sovet maktablari va texnikumlar ochishga alohida e’tibor qaratdilar. Jadid maktablari yopildi. Eski usul maktablari va vaqf maktablari ham tugatildi. Respublikada universitet va institutlar tashkil etildi. Biroq universitet va institutlardagi talabalar, dars bergan o‘qituvchilar o‘rtasida mahalliy millatlar vakillari ozchilikni tashkil qilgan.

1932-yil 14-oktyabrda O‘zbekiston ilmiy tekshirish muassasalariga rahbarlik qiluvchi O‘zbekiston SSR Fanlar komiteti tuzildi.



Toshkent va Samarqand Davlat universitetlari






MA’LUMOT UCHUN

O‘zbekiston SSR Sovetlarining V qurultoyida 8 yoshdan to 15 yoshgacha bo‘lgan hamma bolalarni majburiy yetti yillik ta’limga tortish hamda respublika shahar va qishloqlarida yangi maktab binolari qurish dasturini ishlab chiqish taklifi kiritildi.

Ikkinchi besh yillik davrida hamma umumiy ta’lim maktablaridagi o‘quvchilarning soni tez sur’atlar bilan o‘sib, 931 800 nafarga yetdi, ularning 725 mingga yaqini qishloq maktablarida o‘qirdi. Respublika maktablarida o‘qish 18 tilda olib borilgan. O‘zbek tilida o‘qitiladigan maktablarning soni o‘n yil ichida 10 marta oshgan.

Xotin-qizlar o‘rtasida savodsizlikni tugatish borasida ko‘p joylarda maxsus savod maktablari ochildi. 1937-yili 139.000 nafar xotin-qizlar o‘qish va yozishni o‘rganib oldilar.



IJODIY FAOLIYAT

1. Ta’limning 18 tilda olib borilishining asosiy sabablari nima edi?
2. Bugungi kunda mamlakatizimda ta’lim nechta tilda olib boriladi?

BILASIZMI?

O‘rta Osiyoda oliy ta’limning beshigi, Turkiston xalq dorilfununi (hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti) bir qancha oliy o‘quv yurtlariga asos bo‘ldi, 1940-yili respublikada 30 ta oliy, 100 ga yaqin o‘rta maxsus o‘quv yurtlari ishlab turdi.



MA’LUMOT UCHUN

Sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilliklarida O‘zbekistonda imlo 3 marta o‘zgartirildi. Bu holat mahalliy aholini savodsiz qilishga, uning asriy qadriyatlaridan mahrum qilib, sovet madaniyati ruhida tarbiyalashga hamda ruslashtirish siyosatini amalga oshirishga mo‘ljallangan edi.


1929-yil may oyida Samarqandda o‘tgan O‘zbekiston adiblari, imlochilari va yetakchi ziyolilari konferensiyasida o‘zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o‘tkazish haqida qaror qabul qilindi, 1-dekabrda O‘zbekistonda arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tildi.

Biroq tez orada yozuvni kirillitsaga o‘tkazish to‘g‘risida yangi qaror qabul qilindi. 1940-yil 8-mayda bo‘lgan O‘zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida lotin yozuvidan kirill (rus grafikasi) asosidagi o‘zbek yozuviga o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. O‘zbekiston bilan birga O‘rta Osiyoning boshqa respublikalari va Ozarbayjon ham rus grafikasiga o‘tkazildi.

IJODIY FAOLIYAT

Jahon tarixi darslarida olgan bilimlaringizga tayanib, kirill alifbosiga qachon, kimlar tomonidan asos solinganligini eslang. Bu yozuv Rossiya hududiga qanday kirib kelgan?

Islom dini mintaqaga kirib kelgach, asrlar davomida yurtimizda yaratilgan asarlar arab alifbosidagi eski o‘zbek yozuvida yozilgan edi. Bolsheviklar esa bunday adabiyotdan voz kechib, sovet adabiyotini va proletar madaniyatini yaratishga intildilar.



MA’LUMOT UCHUN

Ijtimoiy hayotda shiddatli ziddiyatlar hukm surgan bu murakkab davrda adabiyot va san’at milliylik, insonparvarlik, xalqchilik kabi tamoyillarga sodiqligini saqlab qoldi.

O‘zbek yozuvchi va shoirlaridan Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Sadriddiy Ayniy, Hamza va boshqalar o‘z asarlari bilan milliy qadriyatlarni saqlash va himoya qilishga urindilar. Bu davr adabiyot maydoniga G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Qahhor, Usmon Nosir, Mirtemir, Oydin Sobirova, Uyg‘un, Komil Yashin, G‘ayratiy, Sulton Jo‘ra, Amin Umariy kabi bir qator iste’dodli yosh shoirlar, adiblar va dramaturglar qo‘shildilar.



Chapdan o‘ngga: *1-qator:* G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Komil Yashin, Oybek, Zulfiya. *2-qator:* Asqad Muxtor, Mirmuhsin, Hamid G‘ulom, Mamarasul Boboyev.

Bu davr respublikadagi ijodkorlar uchun turli izlanishlar, dunyoqarash jihatidan bir-birlaridan farq qiluvchi talaygina yo‘nalishlarning qattiq to‘qnashuvlari bilan to‘lib-toshgan hamda ko‘plab talafotlar berilgan va ba’zilar uchun fojia bilan tugagan va shu bilan birga yangi-yangi iste’dodlar dunyoga kelgan va kurtak yozgan davr bo‘ldi.



Abror Hidoyatov Otello obrazida

MA’LUMOT UCHUN

O‘zbek milliy musiqasini rivojlantirishda o‘zbek kompozitorlaridan To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Mutavakkil Burhonovlar katta mehnat qildilar.

Ajoyib rejissyorlar va aktyorlar Mannon Uyg‘ur, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto‘rayeva, Razzoq Hamroyev, Olim Xo‘jayev, Shukur Burhonov va boshqalar tufayli o‘zbek teatr san’ati gullab-yashnadi. Komil Yormatov, Nabi G‘aniyev, Rahim Pirmuhammedov singari kinematografiya arboblari yetishib chiqdi.

Raqs san’ati va xonandalikda Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Muhiddin Qori Yoqubov, Komiljon Otaniyozov, Karim Zokirov va boshqalar yuksak mahoratga erishdilar.

O‘zbek musiqa va vokal san’atining rivojlanishida 1936-yili Toshkentda ochilgan davlat konservatoriyasi muhim rol o‘ynadi.



MA’LUMOT UCHUN

Sovet hokimiyati Sharq ayollarini «ozodlik»ka chiqarish, eski turmush tarziga hujum qilish, ayollar chachvon va paranjisini tashlashni kun tartibiga qo‘ydi.

«Hujum» kompaniyasi 1926-yil sentyabrda O‘rta Osiyo xotin-qizlari kengashida e’lon qilinib, uni 1927-yil 8-martdan boshlashga qaror qilindi.

1927-yil 8-martda ommaviy mitinglar boshlandi. Ularda 100 000 dan ortiq xotin-qizlar paranjilarini gulxanda yoqdilar. Lekin bolsheviklar partiyasining o‘zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarishni tezlashtirish siyosati yomon oqibatlarga olib keldi. «Hujum»ga qarshi bo‘lganlar ayollarga nisbatan zulm o‘tkaza boshladilar.

Afsuski hududning milliy qadriyatlari va o‘ziga xosligi inobatga olinmasligi natijasida «Hujum» harakati eng faol o‘tkazilgan 1927–1928-yillarda O‘zbekistonda 2500 dan ortiq faol xotin-qizlar fojiyali halok bo‘lishdi.

BILASIZMI?

Sovet hukumati «Hujum» kompaniyasini o‘tkazishdan quyidagi maqsadlarni ko‘zlagan edi:

birinchidan, o‘zbek xalqining tarixan tarkib topgan milliy axloqiy sharqona an’ana va qadriyatlarini yo‘qotish va ma’naviyatimizga zarba berish;

ikkinchidan, «xotin-qizlarni ozod qilish» bahonasida sanoat korxonalari, kolxoz va sovxozlarda arzon-garovda ishlaydigan qo‘shimcha ishchi kuchlari sifatida ulardan foydalanish edi.



Paranjisini tashlagan xotin-qizlarning uchrashuvi

MA’LUMOT UCHUN

1930-yilda respublika hunarmandchilik kooperatsiyasining 50 dan ortiq artellarida 5 000 nafardan ko‘proq mahalliy ayollar ishlardi. Ularning ko‘pchiligi tikuvchilik korxonalarida mehnat qilganlar.

Xotin-qizlar yirik sanoat korxonalariga ham jalb qilina boshlandi. Bu holat ayollarning sog‘lig‘iga jiddiy shikast yetkazardi.

Bu davrda o‘zbek xotin-qizlari rahbarlik lavozimlarida ham ishlash layoqatini ko‘rsatdilar. 1927-yili respublikadagi tuman ijroiya qo‘mitalari a’zolarining 20 foizi, okrug ijroiya qo‘mitalari a’zolarining 17 foizi ayollar edi.

Jahon Obidova O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi raisining o‘rinbosari, Tojixon Shodiyeva esa Prezidium a’zosi bo‘lgan. Biroq keyinchalik bu 2 nafar taniqli o‘zbek ayollari sovet hokimiyati tomonidan qatag‘on qilindi.

XX asr 30-yillarida ayollar orasidan mashhur olimalar, shoiralar, yozuvchilar, muhandislar, shifokorlar, san’atkorlar, muallimlar yetishib chiqa boshladi. O‘sha yillarda Halima Nosirova, Tamaraxonim, Sora Eshonto‘rayeva, Mukarrama Turg‘unboyeva kabi o‘zbek qizlarining iste’dodi yarq etib ko‘zga tashlandi.



Jahon Obidova
Yo‘ldosh Oxunboboyev bilan

Mukarrama Turg‘unboyeva



DARSDAN IJOBIY SABOQ CHIQARIB

1. Sovetlar Turkiston xalq ta’limini tashkil etish, rivojlantirishga qanday nuqtayi nazardan yondashdilar?
2. O‘lka xalq ta’limi tizimida yuz bergan xato, kamchiliklar, murakkabliklar va muammolar haqida nimalar deya olasiz?
3. Respublika oliy ta’lim tizimini shakllantirish qanday maqsadlarda amalga oshirildi?
4. O‘zbekistonda «Hujum» harakatini o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad nima edi?
5. 1920-yillarda respublikada o‘tkazilgan «Hujum» harakati xotin-qizlar hayotiga qanday o‘zgarishlar olib kirdi?
6. Paranjidan «ozod» qilingan xotin-qizlar dastlab qaysi sohalarga jalb qilindi?

SOVET HOKIMIYATINING O‘ZBEKISTONDAGI QATAG‘ON SIYOSATI

BUGUN DARSDA

- SSSRda totalitar tuzumning qaror topishi va uning mohiyati.
- O‘zbekistonda dastlabki qatag‘onlarning boshlanishi.
- Huquq va maorif tizimida qatag‘onning avj oldirilishi.
- 1937–1938-yillarda davlat arboblari, ziyolilar, ulamolar va harbiylarning qatag‘on qilinishi.
- «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi hamda «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi.

MULOHAZA UCHUN

1. «Qatag‘on» deganda nimani tushunasiz?
2. Qatag‘on qurbonlari haqida nimalarni bilasiz?
3. «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi qayerda joylashgan?

MA’LUMOT UCHUN

Sovet rejimi o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach, uning xususiyatlari tobora oshkora namoyon bo‘la boshladi. Bu holat xususan milliy respublikalardagi rahbar xodimlarga munosabatda yaqqol ko‘zga tashlandi.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillar boshida O‘zbekiston SSRda *o‘n sakkizlar guruhi* (Abdurahim Hojiboyev, Inomjon Xidiraliyev, Muxtorjon Saidjonov va b.), *inog‘omovchilik* (O‘zSSR Maorif xalq komissari Rahim Inog‘omov va b.), *qosimovchilik* (O‘zSSR Oliy sudi raisi Sa’dulla Qosimov va b.), *badriddinovchilik* (O‘zSSR Oliy sudining prokurori Shamsutdin Badriddinov va b.), *«milliy ittihodchilar» va «milliy istiqlolchilar»* (Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 87 nafar kishi), *«narkompros» ishi* (O‘zSSR Maorif xalq komissari Mannon Ramziy, uning o‘rinbosari Botu va b.), *«botir gapchilar»* (Qo‘qonda Ashurali Zohiriy boshchiligidagi 19 nafar kishi) va boshqa siyosiy ishlar o‘ylab topildi. Natijada o‘zbek xalqining ko‘plab yetuk farzandlari qatag‘on qilindi.



Ashurali Zohiriy

Bu davrda kommunistik partiya saflarini «tozalash» kampaniyasi natijasida O‘zbekiston kompartiyasi a’zolarining 25,6 foizi firqadan chiqarildi.



Qatag‘onga uchragan odamlar surgun qilinmoqda

MA’LUMOT UCHUN

Milliy rahbar xodimlar lavozimlaridan chetlatildi. XX asr 20-yillarining oxiriga kelib, sovetlar millat yetakchilarini jismoniy jihatdan yo‘qotishga kirishdi.

O‘zbekiston SSR Oliy sudining raisi Sa’dulla Qosimov 1929-yil mart oyida lavozimidan bo‘shatilib, qamoqqa olindi. S. Qosimov va uning 6 nafar safdoshi «bosmachilar»ni qo‘llab-quvvatlashda, «aksilinqilobchi millatchi tashkilotlar» a’zolari bilan aloqa bog‘laganlikda, islom dinini himoya qilishda ayblanib, ularga «qosimovchilik» yorlig‘i bosildi. Sud ularni 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qildi. Ularning butun mol-mulki davlat hisobiga musodara qilindi.

Oradan ko‘p o‘tmay navbatdagi ish – badriddinovchilik o‘ylab topildi. 1932-yil 5-may–15-iyunda O‘zbekiston Oliy sudining sobiq prokurori Shamsutdin Badriddinov va uning 5 nafar safdoshi ustidan sud jarayoni o‘tkazildi. Ular ham uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindilar.

BILASIZMI?

Sovet rejimi milliy rahbar xodimlarni qatag‘on qilish bilan birga maorif sohasidagi ziyolilarga ham tazyiq o‘tkaza boshladi.

1929-yil 5-noyabrda Toshkentda ma’rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 38 nafar kishi qamoqqa olindi. Oradan ko‘p o‘tmay qamoqqa olinganlar soni 87 kishiga yetdi. Ularga «Milliy Ittihod» va «Milliy Istiqlol» tashkilotlarining a’zolari degan ayb qo‘yildi. Tergov jarayoni keyinchalik Moskvaga ko‘chirildi. Bu holat sovetlarning milliy-ma’naviy hayotga zug‘umidan dalolat edi.

1931-yil 25-aprelda Moskvada bo‘lib o‘tgan sud majlisida Munavvarqori boshchiligidagi millatning 15 nafar fidoyisi bo‘lgan «Milliy Istiqlol» a’zolari otib o‘ldirishga, qolgan 72 nafar kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. O‘zbek xalqining 15 nafar farzandi Moskva atrofida otib tashlandi. Qamoqdan ham deyarli hech kim Toshkentga qaytib kelmadi.

MA’LUMOT UCHUN

Qamoqqa olingan ko‘plab yurtdoshlarimiz ommaviy ravishda 1938-yil 4-oktyabrda qatl qilingan.

XXSR harbiy ishlar noziri, alohida O‘zbek otliq askarlar polkining komandiri va komissari, 19-tog‘li otliq O‘zbek diviziyasi komandiri lavozimlarida ishlagan Mirkomil Mirsharopov sovet rejimi tomonidan Maykopda 1937-yil 28-oktyabrda qamoqqa olindi.

U O‘zbek diviziyasini milliylashtirish va bu diviziya yordamida O‘zbekistonni SSSR tarkibidan ajratib olish va mustaqil davlatni barpo etishga urinishda ayblandi. Dastlabki O‘zbek diviziyasi tarqatib yuborildi hamda M. Mirsharopov boshchiligida 18 nafar o‘zbek harbiy komandirlari va askarlari 1938-yil 10-oktyabrda otib tashlandi.



O‘zbek diviziyasi komandiri Mirkomil Mirsharopov

IJODIY FAOLIYAT

1. Xalqning ziyoli qatlamlarini qirg‘in qilishdan ko‘zlangan maqsad nima bo‘lgan?

2. Nima uchun bolsheviklar turli uydirmalarni o‘ylab topishgan?

3. «Milliy rahbar xodimlarni lavozimlaridan chetlatib, ularni avval «g‘oyaviy» jihatdan tormor qilayotgan sovet rejimi XX asr 20-yillarining oxiriga kelib, ularni jismoniy jihatdan yo‘qotishga kirishdi», — deyilganida nimani tushundingiz?

XX asr o‘zbek madaniyatining 3 nafar yorqin yulduzlari – Fitrat, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy bir kunda – 1938-yil 4-oktyabrda Toshkent shahri atrofida otib tashlandi.

MULOHAZA UCHUN

1937–1938-yillarda to‘qib chiqarilgan soxta ayblar bo‘yicha O‘zbekistonda 41 000 nafardan ortiq kishi hibsga olinib, ulardan 37 000 nafardan ko‘prog‘i jazolandi, 6 920 nafar kishi esa otishga hukm qilindi.

Faqat davlat va jamoat arboblari, yozuvchi, shoir va olimlardan 5 758 nafar kishi qamoqqa olinib, ulardan 4 811 nafari otib tashlangan edi. Bu ma’lumotlar respublikamiz miqyosida qizil terror qanchalik keng miqyosda shafqatsiz ravishda amalga oshirilganligining yaqqol isboti hisoblanadi.



«Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi

MA’LUMOT UCHUN

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qatag‘on qilinganlarning ko‘pchiligi huquqiy jihatdan oqlandi. Ularning pok nomlari tiklandi. Mustabid sovet rejimi davrida Bo‘zsuv kanali bo‘yida – millat fidoyilarining aksariyati otib tashlangan joyda – ularning xotirasiga bag‘ishlab yodgorlik o‘rnatildi.

2000-yil 12-mayda Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi ochildi.



BILASIZMI?

O‘zbekiston SSRda bu davrda ko‘plab madrasalar, masjidlar va xonaqohlar buzib tashlandi. Buzilmay qolgan madrasalar va masjidlar xo‘jalik omborlariga aylantirildi, qizil askarlar garnizonlari uchun manzilgohlar qilib qayta jihozlandi, chetdan kelganlar uchun turarjoy sifatida berildi va boshqa turli maqsadlarda foydalanildi. Madaniy-ma’rifiy merosimiz bo‘lgan qo‘lyozma asarlar va boshqa kitoblarning katta qismi yo‘q qilindi.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. «O‘n sakkizlar guruhi» va «qosimovchilik» kabi siyosiy ishlarni to‘qib chiqarish va ularning faoliyatiga siyosiy tus berishdan ko‘zda tutilgan maqsadlar nima edi?
2. Nima sababdan XX asr 30-yillari ikkinchi yarmiga kelib respublika rahbariyati qatag‘on qilindi, ularga qanday ayblar qo‘yilgan?
3. Ilg‘or o‘zbek ziyolilarini qatag‘on qilish nima uchun kerak bo‘lib qoldi?
4. Totalitar tuzum ma’murlarining inson huquqlari va erkinliklari masalasidagi munofiqligi, riyokorligini siz qanday izohlaysiz?
5. Siz yashayotgan shahar va tumanda qatag‘on qilinganlardan kimlarni bilasiz, ular haqida so‘zlab bering.
6. Qatag‘onga uchragan siyosiy arboblar va adiblar ismlarini alohida ustunlarda tahlil qiling.

O‘ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA

BUGUN DARSDA

- II Jahon urishida O‘zbekistonning ishtiroki.
- Urush yillari O‘zbekiston sanoat tizimida yuz bergan o‘zgarishlar.
- O‘zbek xalqining bag‘rikengligi.

MULOHAZA UCHUN

1. II Jahon urushi qachon boshlandi?
2. Unda qaysi davlatlar ishtirok etdi?
3. «Germaniya va Sovet Ittifoqi o‘rtasida o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida»gi shartnoma nima haqida edi? U qaysi davlatlar o‘rtasida imzolangan?



IJODIY FAOLIYAT

Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Gitler «Barbarossa» rejasini qachon tasdiqladi va oradan qancha vaqt o‘tgandan so‘g SSSR hududiga bostirib kirdi?
2. «Uchlar ittifoqi» qachon va qaysi davlatlar o‘rtasida tuzilgan? Bu ittifoqning urushga qanday aloqasi bo‘lgan?

BILASIZMI?

1939-yilning kuzida Estoniya, Latviya va Litva bilan tuzilgan o‘zaro yordam berish haqidagi shartnomalar asosida SSSR mazkur mamlakatlarga harbiy bazalarini joylashtirgan edi. 1940-yil yozida SSSR Boltiqbo‘yi davlatlariga qo‘shimcha Qizil Armiya qo‘shinlarini kiritib, sovet respublikalarini tashkil etdi. Ruminiya SSSRga Bessarabiya va Shimoliy Bukovinani berishga majbur bo‘ldi.


Ikkinchi jahon urushi 1939-yil 1-sentyabrdan 1945-yil 2-sentyabrga qadar davom etgan. Unda qariyb 1,7 milliard kishi qatnashgan.

MULOHAZA UCHUN

SSSR 1939-yil 14-dekabrda agressiyachi mamlakat sifatida Millatlar ligasidan chiqarildi, Sovet-Finlyandiya urushi vaqtidagi yo‘qotishlar ko‘lami Germaniyada sovet Qizil Armiyasi kuchsiz, degan tasavvur shakllanishiga olib keldi.

BILASIZMI?

O‘zbekistonliklar yapon militaristlari bilan bo‘lgan janglarda, shuningdek, Sovet–Finlyandiya urushida ishtirok etdi. Xususan, keyinchalik artilleriya general-leytenanti bo‘lgan Fayzulla Norxo‘jayev Hasan ko‘li bo‘yidagi harbiy harakatlarda, keyinroq Sovet Ittifoqi Qahramoni bo‘lgan Amirali Saidbekov Sovet–Finlyandiya urushida qatnashgan edi.





Fayzulla Norxo‘jayev

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi safarbar etildi. Bu esa, har uch nafar o‘zbekistonlikdan biri jangga borganini ko‘rsatadi.





MA’LUMOT UCHUN

1941-yil 22-iyun kuni gitlerchilar Germaniyasining SSSRga hujum qilishi Sovet Ittifoqi deb atalmish hududga birlashtirilgan xalqlar uchun og‘ir sinovlardan iborat urushni boshladi.

23-iyun kuni Toshkentda ko‘p ming kishilik miting bo‘lib o‘tdi. Turli korxona hamda muassasalarning ishchi va xizmatchilari, o‘qituvchilar, talabalar fashizimga qarshi kurashga, frontda va front orqasida dushman ustidan g‘alaba qozonishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Urush butun mamlakat xo‘jaligi, uning hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. 1941-yil 30-iyunda Davlat mudofaa komitetining tuzilishi bilan mamlakatdagi butun hokimiyat uning qo‘liga o‘tdi. Davlat mudofaa komitetining qarorlari urush davri qonunlari kuchiga ega edi.



Urushning dastlabki kunlarida qabul qilingan ko‘rsatmalar, qarorlarda front ortini mudofaa manfaatlariga bo‘ysundirish va barcha ishlarni harbiy izga solish, dushman egallagan hududlarda partizanlik guruhlarini tashkil etish zarurligi qayd etildi.

Front va front oldi hududlaridan O‘zbekistonga 1 million 500 ming kishi, jumladan, 200 mingdan ziyod yetim bolalar, zavod va fabrikalar hamda ularning mol-mulklari evakuatsiya qilindi. Hali korxonalar ish boshlamagan sharoitda evakuatsiya qilinganlarni pul, kiyim va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga e’tibor berildi.





Zavodning ko‘chirib keltirilishi

IJODIY FAOLIYAT

Evakuasiya bo‘yicha Kengash qanday vazifani muhokama qilgan?

Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e’zozlash — odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

MA’LUMOT UCHUN

Yetim bolalarga g‘amxo‘rlik qilish – umumxalq harakatiga aylandi. Minglab o‘zbekistonliklar bolalarni o‘z oilalariga olishdi. Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o‘rtog‘i Bahri Akromova turli millatga mansub 14 nafar bolani o‘z tarbiyasiga oldi. Urushdan og‘ir yarador bo‘lib qaytgan kattaqo‘rg‘onlik Hamid Samadov 13 nafar, umr yo‘ldoshini frontga kuzatgan samarqandlik Fotima Qosimova 10 nafar bolani asrab oldi.





Toshkentdagi harbiy gospital



BILASIZMI?

O‘zbekistonda frontda yarador bo‘lgan jangchilarni davolash bo‘yicha harbiy gospitallar tarmog‘i yuzaga keldi. Bu yillarda 120 dan ortiq evakuatsiya gospitali faoliyat yuritdi. Gospitallarda davolanganlarning asosiy qismi jangovar safga qaytdi.

BILASIZMI?

O‘zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jamg‘armasiga jami 649,9 mln rubl pul, 3 mlrd 669 mln 817 ming rubl obligasiyalar, 22 mln 374 ming rubl miqdoridagi qimmatbaho buyumlar, 55 kg dan ziyod qimmatbaho metallarni topshirishdi.

Ayollar avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan zargarlik buyumlarini ham berishdi. Mazkur mablag‘larning bir qismiga zirhli poyezdlar, samolyotlar, tanklar qurilib, frontga yuborildi.

MA’LUMOT UCHUN

O‘zbekiston o‘z aholisini, evakuatsiya qilinganlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minladi, bu mahsulotlar frontga, qamalda qolgan hamda ozod etilgan shahar va tumanlarga yubordi. Shuningdek, jang maydonlariga qurol, kiyim, dori-darmon va boshqa zarur mahsulotlar muntazam yetkazib berildi.

Frontga umumxalq yordami mudofaa jamg‘armasini tashkil etishda ham namoyon bo‘ldi. Urush yillari O‘zbekiston xalqi frontga o‘z delegatsiyalarini jangchilarga sovg‘alar bilan yubordi. 1941-yil dekabrida Toshkentdan Moskvaga oziq-ovqat mahsulotlari ortilgan eshelon yuborildi. Yo‘lda bombardimon qilinishiga qaramay eshelon G‘arbiy frontga yetib bordi. Bu haqida mashhur «Qirq birinchi yil olmasi» nomli film ishlangan.

Delegatsiyaning bir guruhiga Oliy Sovet Prezidiumi raisi Yo‘ldosh Oxunboboyev, ikkinchi guruhiga taniqli xalq ta’limi xodimi, o‘sha vaqtda frontda jang qilayotgan uch o‘g‘il otasi Hasan Islomov boshchilik qildi.

O‘zbekiston xalqining delegatsiyasi. 1941-yil





Kolxozchilar Sovet armiyasi jangchilariga shaxsiy mablag‘lari hisobiga qurilgan tanklarni topshirishmoqda, 1942-yil.





Ishchi ayollar jangchilar uchun jo‘natmalar tayyorlashmoqda. Toshkent, 1941-yil

MULOHAZA UCHUN

Fashizmga qarshi kurashishda front ortida matonat bilan mehnat qilgan, evakuatsiya qilinganlarga mehr bergan ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining – oddiy, shu bilan birga qalbidaryo va irodali insonlarning birdamligi muhim omillardan biri bo‘ldi.


Xalq kuchi va imkoniyatlarini jipslashtirishda o‘sha vaqtda respublikaga rahbarlik qilgan Usmon Yusupovning xizmati katta bo‘ldi. Usmon Yusupovni – «mamlakat ichkarisidagi marshal» deb atashar edi.

Urushning dastlabki vaqtidayoq jamoalarda zarbdorlar harakati rivojlandi. Kuniga ikki normani bajarib kelayotgan ishchilar uch va undan ortiq norma bera boshlashdi. Kunlik rejalar 350–470 foizgacha yetkazib bajarildi. «Frontchasiga ishlash» ortidagi millionlab vatandoshlarimizning mehnati dushmanni tor-mor keltirib, g‘alaba qozonish uchun zarur qurol va mahsulotlar bilan ta’minlash jihatidan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston 1941–1945–



Samolyotlar




Aviamotorlar

Mina va snaryadlar





Radio lampochkalar




Ko‘chma oshxonalar

O‘zbekiston xalqi jang maydonlariga katta miqdorda qurol-yarog‘, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa zarur mahsulotlarni yetkazib berdi.

Respublikadagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Shu davrda front hududlaridan O‘zbekistonga 151 ta zavod ko‘chirib keltirildi va g‘oyat qisqa fursatda ishga tushirildi.

yillar davomida



Aviabombalar

Granatalar





O‘zbekiston aholisi davlatga 4 milliondan ziyod tonna paxta, 1 mln 283 ming tonna don, 200 ming tonnaga yaqin guruch, 108 ming tonna kartoshka, 374 ming tonna meva-sabzavot, 36 ming tonna quruq meva, 57 ming tonnadan ortiq uzum, 1,5 mln tonnadan ortiq go‘sht, 5 mln 300 mingga yaqin charm-teri mahsulotlarini yetkazib berdi.

Sanitariya poyezdlari







MA’LUMOT UCHUN

Urushning dastlabki vaqtlaridayoq, sanoatni harbiy mahsulot ishlab chiqarishga moslab qayta ishga tushirish choralari ko‘rildi. Natijada, 1941-yil dekabriga kelib, respublikadagi 230 ta korxona mudofaa mahsulotlarini bera boshladi.

Frontga safarbarlik sharoitida ishchi kuchining yetishmasligi tobora keskinlashib bordi. Urushga ketganlar o‘rnini qariyalar, ayollar va o‘smirlar egallashdi. Yoshlardan ishchilar tayyorlashda fabrika-zavod ta’limi va hunar maktablarining o‘rni katta bo‘ldi. Keyinchalik, urushdan qaytgan nogironlar ham ular bilan bir safda mehnat qilishdi.



IJODIY FAOLIYAT

1. O‘zbek xalqining mudofaa jamg‘armasiga qo‘shgan hissasini qanday izohlaysiz?
2. Urushning boshlanishi bilan mamlakat ichkarisidagi holatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
3. QR kodlarda berilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqing. Ma’lumotlardan infografika tayyorlang.
4. Oybekning «Quyosh qoraymas», O‘tkir Hoshimovning «Urushning so‘nggi qurboni», O‘lmas Umarbekovning «Qiyomat qarz», Said Ahmadning «Ufq» asarlaridan birini o‘qing. Urush haqida qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldingiz? Fikrlaringizni asoslang.

MULOHAZA UCHUN

Urush sababli qishloq xo‘jaligidagi yo‘qotishlar O‘zbekiston kabi front orti hududlari tomonidan qoplandi. Urushning dastlabki yillarida paxtaga ajratiladigan maydonlar qisqartirildi va uning o‘rniga g‘alla, sabzavot-poliz ekinlari yetishtirilishi yo‘lga qo‘yildi. Qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan mashinalar va otlarning bir qismi armiya uchun jo‘natib yuborilgan, yonilg‘i va mineral o‘g‘itlar yetkazib berilishi kamayib borar edi. Natijada qo‘l mehnatiga ehtiyoj oshdi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish muammosini hal etish uchun 10 ta yirik va bir qator kichik irrigasiya inshootlari foydalanishga topshirildi, respublikada sug‘oriladigan yer maydonlari 345,7 ming gektarga kengaydi.

Yangi irrigasiya inshootlari sholi maydonlarini kengaytirishga ham imkon berdi.

MA’LUMOT UCHUN


Samarqand, Farg‘ona, Toshkent, 1943-yildan Qashqadaryo viloyatlarida O‘zbekiston uchun yangi ekin – qand lavlagiga unumli yerlar ajratildi. Qand lavlagini qayta ishlovchi Zirabuloq, Krasnogvardeysk, Qo‘qon va Yangiyo‘l qand zavodlari qurildi. 1945-yili 1,6 mln sentnerdan ortiq lavlagi davlatga topshirildi va bu butun SSSRda ishlab chiqariladigan qandning chorak qismini tashkil etdi. Bundan tashqari, kungaboqar, zig‘ir, makkajo‘xori, kunjut kabi oziq-ovqat mahsulotlari, kanopni yetishtirish ham yo‘lga qo‘yildi.

Urush yillari ish vaqti yoshi kattalar uchun 11 soatgacha, 16 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlarga 10 soatgacha belgilandi. Qishloq joylarda 12 yoshdan boshlab mehnat minimumi joriy etildi.





Toshkentga ko‘chirib keltirilayotgan zavodlar



Ayollar mehnat sirlarini o‘rganishmoqda




DARSDAN IJOBIY SABOQ CHIQARIB

1. Urush yillarida o‘zbek xalqining ko‘chirib keltirilgan xalqlarga ko‘rsatgan mehribonchiliklari nimalarda namoyon bo‘ldi?
2. Urush yillarida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
3. Uyga vazifa. Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Mudofaa fondi	Sanoat	Qishloq xo‘jaligi	Ko‘chirib keltirish

O‘ZBEKISTONLIKLARNING FRONTDAGI JASORATI VA QAHRAMONLIKLARI



BUGUN DARSDA

- O‘zbekistonliklarning jasorati.
- O‘zbekistonlik general Sobir Rahimov.
- Xotira maydoni, «Shon-sharaf» davlat muzeyi bo‘lgan ulug‘vor «G‘alaba bog‘i» yodgorlik majmuasi bunyod etilishi.



MULOHAZA UCHUN

1. O‘zbekiston Respublikasida 9-may qanday kun sifatida nishonlanadi?
2. Nima uchun bu kun «Xotira va qadrlash kuni» deb nomlangan?
3. Xalqimizning front ortidagi jasorati haqida qanday asarlar o‘qigansiz, yoki ko‘rgansiz?



BILASIZMI?

Ko‘ngillilar, chaqiruv yoshidagilar ham frontga safarbar etildi. Aslida urush boshlangan vaqtda, askarlar sonining keskin oshishi sharoitida kiyim va qurol yetishmasdi, ular tayyorgarlik ko‘rmasdan jang maydonlariga yuborilar edi. Bu esa, urushda katta insoniy yo‘qotishlarga sabab bo‘ldi. Front ortidagi tadbirlar, harbiy o‘quv mashg‘ulotlari, lend-liz orqali olingan mudofaa mahsulotlari sharoitni o‘nglab borishga imkon berdi.




MA’LUMOT UCHUN

Harbiy xizmatda bo‘lgan minglab o‘zbekistonliklar turli hududlar mudofaasida ishtirok etdi. Xususan, Brest qal’asi mudofaasida Avazmat Niyozmatov halok bo‘ldi.


1941-yil yozida Samarqandda tuzilgan motorlashtirilgan diviziya Yelnya yaqinida jangga kirdi. O‘qchi diviziya sifatida tashkil etilib, Moskva atrofidagi janglarda qatnashdi. Uning asosiy qismi oktyabr oyida Vyazma shahri atrofida qurshovda qolib halok bo‘ldi.

O‘zbekistonda 9 ta alohida o‘qchilar brigadasi, 5 ta kavaleriya diviziyasi tashkil etildi. Brigadalar va diviziyalar tarkibi mahalliy millatlar vakillariga mansub 40 yoshdan katta bo‘lmagan sog‘lom va baquvvat kishilar bilan to‘ldirildi.

1942-yil va 1943-yil boshlarida 90 va 94-alohida o‘qchi brigadalari Moskva mudofasi va Stalingrad janglarida ishtirok etdi.



Sobir Yunusov



Ikrom Jalilov



Qo‘chqor Turdiyev

MA’LUMOT UCHUN

Moskva bo‘sag‘alarini himoya qilgan 316-o‘qchi diviziya tarkibida Toshkent piyoda askarlar bilim yurtining kursantlari ham bor edi.

O‘zbekistonliklardan 1753 kishi «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlanishdi. Ular orasida Sobir Yunusov, Ikrom Jalilov va boshqalar bor edi.

O‘zbekistonlik jangchilar Leningrad, Kiyev, Odessa, Sevastopol va boshqa shaharlarni mudofaa qilishda ham mardlik namunalarini ko‘rsatishdi. Jumladan, 1941-yil 15-oktyabrda Xarkov viloyatidagi Trudolyubovka qishlog‘i uchun jangda 47-o‘qchi diviziya o‘qchisi Qo‘chqor Turdiyev dushmanga qarshi hujum uyushtirishda jasorat ko‘rsatdi. 1942-yil 27-martda unga SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan o‘zbeklardan birinchi bo‘lib Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

BILASIZMI?

Zebo G‘aniyeva Moskva uchun janglarda hamshira, minomyotchi va pulemyotchi sifatida ishtirok etdi. Keyin qisqa muddatda u snayperlikni o‘rganib oladi va Leningrad yo‘nalishidagi janglardan birida og‘ir yaradar bo‘ladi. Bunga qadar Z. G‘anieva 129 nafar fashistni yo‘q qilgan edi.




Zebo G‘anieva



General-mayor Sobir Rahimov polkovnik Rudenko va general adyutanti L. Yusupov bilan harakatlar rejasini tuzishmoqda

MA'LUMOT UCHUN

Stalingrad jangi Ikkinchi jahon urushida tub burilish yasadi. Kavkaz uchun janglarda Sobir Rahimov komandirligidagi 395-o'qchi diviziya o'zini ko'rsatdi va unga 1943-yilning 19-martida general-mayor unvoni berildi. Stalingrad janglarida Sobirjon Oxunjonov, Abdulla Ayupov kabi minglab o'zbekistonliklar ishtirok etishdi. Ular orasida Stalingraddagi «Pavlov uyi»ni himoya qilgan Kamol Turg'unov ham bor edi. Jami 2738 nafar o'zbekistonlik «Stalingrad mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandi. Kavkaz uchun janglarning yakuniy bosqichida Samig' Abdullayev dushman zarbalari ostida 3 mingga yaqin minalarni zararsizlantirdi hamda ko'rsatgan jasorati uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi.



Abdulla Ayupov



Kamol Turg'unov



Sobirjon Oxunjonov



Samig' Abdullayev

BILASIZMI?

Don daryosining o'ng qirg'og'idagi Kletskiy qishlog'i yaqinidagi tepaliklardan biri uchun jangda Mixail Kabribov boshchiligidagi 11 kishi 300 nafar dushmanni yo'q qilishga muvaffaq bo'ldi. Bu joyga «Sharqlik o'n bir qahramon tepaligi» nomi berildi. Ulardan 8 nafari o'zbekistonlik edi.

MA’LUMOT UCHUN

Kursk jangida Ahmadjon Shukurov, Valdemar Shalandin, Qayumjon Karimov kabi minglab o‘zbekistonliklar qatnashdi. Tub burilish antigitler koalitsiyasini mustahkamladi hamda Buyuk Britaniya va AQSh nihoyat o‘z qo‘shinlarini Fransiyaga kiritish orqali Yevropada ikkinchi frontni ochishga qaror qildi.

O‘zbekistonliklar Dnepr daryosini kechib o‘tishdagi janglarda oldingi saflarda bo‘lishdi. Bois Ergashev, Qudrat Suyunov kabi ko‘plab o‘zbekistonliklar Sovet Ittifoqi Qahramoni bo‘lishdi. Sovet Ittifoqi Qahramoni Abdulla Qurbonovning razvedkadan dushman kuchlari joylashuvi haqida muhim ma’lumotlarni keltirishi hal qiluvchi jangovar operatsiya boshlanishiga xizmat qildi.

1944-yil yozida Belorusiyaning fashistlardan ozod qilinishida Shodi Shoimov (vafotidan keyin Sovet Ittifoqi Qahramoni berilgan), Eson Jovbo‘riyev kabi minglab o‘zbekistonliklar jasorat ko‘rsatishdi. Partizanlar orasida ham G‘anitoy Toshniyozov, Luqmon O‘roqov kabi o‘zbekistonliklar ko‘pchilikni tashkil etardi. Razvedkachi partizan Mamadali Topivoldiyev esa Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi.



Bois Ergashev



Qudrat Suyunov



Abdulla Qurbonov

MA’LUMOT UCHUN

1944-yili Sovet Ittifoqi o‘z hududini to‘liq ozod qildi, sovet qo‘shinlari Sharqiy Yevropaga kirib keldi. 6-iyunda ikkinchi front ochildi. O‘zbekistonliklar Polsha, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Chexoslovakiya, Vengriya, Avstriya mamlakatlarini ozod qilishda qatnashdi. Asirlikka tushib, qochishga muvaffaq bo‘lgan o‘zbekistonliklar ham Yevropadagi Qarshilik ko‘rsatish harakatida faol ishtirok etishdi.



Mamadali Topivoldiyev



Eson Jovbo‘riyev

BILASIZMI?

Italiyadagi Qarshilik ko‘rsatish harakati qatnashchisi Ahmadjon Mamajonovga qahramon maqomidagi «Vatanparvar» guvohnomasi berildi. Fransiyadagi harakat qatnashchilari Hoshim Ismoilov, Tojiboy Ziyoyev ordenlar bilan taqdirlanishgan.

MA’LUMOT UCHUN


1945-yil 25-martda Polshaning Dansig (hozirgi Gdansk) shahri uchun bo‘lgan jangda general-mayor S. Rahimov og‘ir yaradar bo‘ldi va ertasiga vafot etdi. Unga 1965-yili Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. Shuningdek, Polshani ozod etishda Ahmadjon Qurbonov, Amirali Saidbekov ham qahramonlarcha halok bo‘ldi.

1945-yil 16-aprelda boshlangan Berlin operasiyasida o‘zbekistonliklar jasorat namunalarini ko‘rsatishdi. Oder daryosini Botir Boboyev birinchilardan bo‘lib kechib o‘tdi. 1945-yil 23-aprelda Berlin osmonida kuzatuvchi-uchuvchi Plis Nurpeysov halok bo‘ldi.


Berlin operatsiyasi 8-may kuni Germaniyaning so‘zsiz taslim bo‘lishi bilan yakunlandi. Shu kuni fashistlar Germaniyasining kapitulyatsiyasi haqida Akt imzolandi. Mazkur Akt hamda G‘alaba bayrog‘i o‘ramini Berlindan Moskvaga 9-may tongida olib kelgan uchuvchilar safida o‘zbek Abdusamat Taymetov ham bor edi. 9-may SSSRda «G‘alaba bayrami» deb e’lon qilindi.



Ahmadjon Qurbonov



Amirali Saidbekov



Botir Boboyev



Plis Nurpeysov

BILASIZMI?

1945-yil 23-aprel kuni Tojiali Boboyev Berlindagi Silez vokzaliga birinchi bo‘lib kirishga va bayroq o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi.

30-aprelda Gitler Germaniyasining bosh ramzi bo‘lgan Reyxstag gumbaziga birinchi bo‘lib bayroq o‘rnatgan 150-o‘qchi diviziya tarkibida o‘zbeklardan Karimjon Isoqov, G‘ulom Sultonov bor edi.

MA’LUMOT UCHUN

O‘zbek uchuvchilaridan Abdusattor Eshonqulov Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi. Frontning turli nuqtalarida Muqaddam Ashrapova, aka-uka Is’hoq va Habibulla Komilovlar kabi ko‘plab harbiy shifokorlar minglab jangchilar hayotini saqlab qolishdi. Hamshira Rixsixon Mo‘minova esa Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasining Florens Naytingeyl medaliga sazovor bo‘ldi.

MA’LUMOT UCHUN

Ikkinchi jahon urushida Germaniyaning ittifoqchisi bo‘lgan Yaponiyaga qarshi urush 1945-yil 9-avgustga o‘tar kechasi sovet qo‘shinlarining Uzoq Sharqdagi hujumi bilan boshlandi. Janglarda Mongoliya armiyasi qo‘shinlari ham ishtirok etdi. Qisqa muddatda Shimoli-sharqiy Xitoy va Shimoliy Koreya hududlari ozod qilindi, sovet qo‘shinlari Janubiy Saxalin va Kuril orollarini egalladi.

Kvantun armiyasini tor-mor keltirishda Odil Yoqubov, Pidamat Rismatov, Usmon Doniyorov, Fatxulla Po‘latov va boshqa ko‘plab o‘zbekistonlik jangchilar qatnashdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida **200 mingdan ziyod o‘zbekistonlik askar va ofitserlar** jangovar orden va medallar bilan taqdirlanishdi. Ulardan **301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni** unvoniga, **70 nafari uchala darajadagi «Slava» ordeni**ga sazovor bo‘ldi.




MULOHAZA UCHUN


Bundan tashqari, XX asrning 30-yillarida boshqa hududlarga quloq qilingan o‘zbeklar ham urushga safarbar etildi. Qatag‘on qilinganlarning farzandlari, qamoqda bo‘lganlar arizalariga ko‘ra jarima batalyonlariga yuborila boshlandi. Qamoqdan jarima batalyoniga yuborilganlardan Inoyat Navro‘zboyev keyinchalik Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi.



Inoyat Navro‘zboyev

Ko‘plab o‘zbekistonliklar yarador bo‘lib, harbiy safga qaytolmaganida ham mehnat frontida kurashni davom ettirishdi.


НАГРАДНОЙ ЛИСТ



«Ushbu qarorimiz zamirida O‘zbekiston xalqining jang maydonlarida va front ortida ko‘rsatgan beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash, yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadi mujassam».

Shavkat MIRZIYOYEV

IJODIY FAOLIYAT

Matnni o‘qing «beqiyos jasorati va matonat» so‘zlariga misollar keltring.

MA’LUMOT UCHUN

Buyuk G‘alabaning shonli 75 yilligida O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasiga bag‘ishlangan kitob-albom birinchi bor chop etildi.

2020-yili «Shon-sharaf» davlat muzeyi bo‘lgan ulug‘vor «G‘alaba bog‘i» yodgorlik majmuasi bunyod etildi.

Mazkur bog‘da shu kuni o‘tkazilgan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so‘zga chiqib, xalqimizning Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasiga oid yangi tarixiy ma’lumotlarni e’lon qildi.

1995-yili urushdan qaytmagan yurtdoshlarimiz haqida ma’lumotlar aks etgan 34 jildlik (keyinchalik yana qo‘shimcha 2 jild chop etilgan) Xotira kitobi hamda urush yillaridagi O‘zbekistonga bag‘ishlangan umumlashma jild nashr qilindi.

Ularning nomlari 1999-yili Toshkent shahrida bunyod etilgan Xotira maydoni ayvonlari tokchalariga o‘rnatilgan temir kitoblarga muhrlandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman markazlarida ham Xotira maydonlari barpo etildi.

1999-yildan boshlab G‘alaba bayrami «Xotira va qadrlash kuni» sifatida nishonlana boshlandi.

MULOHAZA UCHUN

Urushda 538 mingdan ziyod o‘zbekistonliklar halok bo‘ldi, 158 mingdan ortig‘i esa bedarak yo‘qoldi. Bu frontga yuborilgan har uch nafar o‘zbekistonlikning biri qaytmaganidan darak beradi...

O‘zbekistonda urush yillarida xalqimiz ko‘rsatgan jasorati va matonatini abadiylashtirish uchun 2017-yildan boshlab, har yili urush qatnashchilariga bir martalik pul mukofoti berilishi yo‘lga qo‘yildi.





«Matonat madhiyasi» obidasidagi onalarga bag‘ishlangan haykal

MULOHAZA UCHUN

G‘alabaga besh farzandini bag‘riga qayta bosolmagan Zulfiya aya Zokirova singari buvilarimiz matonati, sabru bardoshi evaziga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, G‘alaba bog‘ining markazida «Matonat madhiyasi» deb atalgan muazzam obida barcha O‘zbekiston onalariga qo‘yilgan haykal bo‘lib, ona Vatan ramzi bo‘lib qad rostladi.



MA’LUMOT UCHUN

Bog‘ hududida asirlikning og‘ir azoblariga qaramay Vataniga sodiq, qadriyatlarida qat’iy bo‘lgan mard o‘g‘lonlar xotirasiga bag‘ishlangan Amersfort konslagerida-gi 101 nafar o‘zbek asiri installyasiyasi barpo etilgan.

Darhaqiqat, urush yillarida buva-buvilarimizning jasorati va matonatini abadiylashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar zamirida qahramon xalqimizga munosib hurmat ko‘rsatishdek ulug‘ niyat o‘z ifodasini topgan.

DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Urushning dastlabki kunlarida, Moskva uchun janglarda fashist bosqinchilariga qarshi janglarda o‘zbekistonlik jangchilar ko‘rsatgan jasorat haqida so‘zlab bering.
2. Urushda tub burilish yasashga o‘zbekistonlik jangchilar qanday hissa qo‘shdilar?
3. Sobir Rahimovning jasoratini bilasizmi?
4. «Xotira va Qadrlash kuni» ilgari qanday nomlanar edi? Bu kun haqida nimalarni bilasiz?
5. Amersfort konslageridagi 101 nafar o‘zbek asirlarining matonati zamirida qanday qadriyat mujassam?

Qo‘shimcha o‘qish uchun

GVARDIYACHI GENERAL-MAYOR SOBIR RAHIMOVNING DAFN QILINISHI

Toshkent, 27-may. Toshkent mehnatkashlari o‘zbek xalqining sodiq o‘g‘li, vatanimizning ozodligi va mustaqilligi uchun dushmanga qarshi kurashda qahramonlarcha halok bo‘lgan gvardiyachi general-mayor Sobir Rahimov bilan so‘nggi marta vidolashdilar.

Birinchi o‘zbek generali Rahimovning xoki solingan idish O‘zbekiston Oliy Sovetining zaliga qo‘yildi. Ikki kun ichida generalning xoki solingan idish yonida o‘n minglarcha mehnatkashlar bo‘ldi.

Motam mitingida O‘zbekiston Xalq Komissarlari Sovetining raisi Abdurahmonov, O‘rta Osiyo harbiy okrugi qo‘shinlari qo‘mondoni general-mayor Lipatov va respublikaning xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchisi Hasan ota Islamovlar so‘zga chiqdi.

O‘zbekiston KP (b) Markaziy Komitetining sekretari o‘rtoq U.Yusupovning so‘zidan keyin general Rahimovning xoki solingan idish chor qirrali yaxlit marmar tosh ichiga qo‘yildi.

O‘zbekiston mehnatkashlari o‘zlarining sodiq o‘g‘lining xotirasini abadiy saqlaydi. Birinchi o‘zbek generali Sobir Rahimovga Toshkentda haykal qo‘yiladi («Qizil askar haqiqati» gazetasi, 1945-yil 30-may, 35-son).

BILASIZMI?

«G‘alaba bog‘i»da o‘zbekistonlik jangchilarning so‘nmas xotirasiga bag‘ishlab, «Mangu jasorat» monumenti barpo etildi. Uning markaziy qahramoni urush yillarida nafaqat O‘zbekiston, balki O‘rta Osiyo xalqlaridan chiqqan yagona general Sobir Rahimovdir.



«G‘alaba bog‘i»dagi «Mangu jasorat» monumenti

O‘ZBEKISTON FANI VA MADANIYATI G‘ALABA UCHUN XIZMATDA

BUGUN DARSDA

- O‘zbekiston fani, adabiyoti va san’ati namoyandalarining fashizmga qarshi kurashga qo‘shgan hissalari.
- Ikkinchi jahon urushi yillarida diniy munosabatlar.

MULOHAZA UCHUN

1. Ikkinchi jahon urushi yiliarida evakuatsiya qilingan rus, belorus, ukrain va boshqa xalqlar adabiyot vakkillarining ijodi qanday kechdi?
2. Ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi alloma tavalludining 500 yilligi nishonlandi?



Abdulla Qahhor



Hamid Olimjon



G‘afur G‘ulom



Mirtemir

MA’LUMOT UCHUN

Urushning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekiston yozuvchilari, bastakorlari, rejissyor va rassomlari o‘z asarlari bilan xalqning g‘alaba muqarrarligiga ishonchini mustahkamlashga xizmat qildilar.

Oybekning «Yovga o‘lim!» va Hamid Olimjonning «Qo‘lingga qurol ol!» she’rlari insonni Vatan himoyasiga da’vat qiluvchi chaqiriq bo‘lib yangradi.


G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Amin Umariy, Oydin, Zulfiya, Mirmuhsin, Hamid G‘ulom, Turob To‘laning jangovarlik ruhidagi asarlari ham matbuot sahifalarida muntazam e’lon qilib borildi.

Front oldi hududlaridan evakuatsiya qilingan Aleksey Tolstoy, Korney Chukovskiy, Anna Axmatova, Yanka Kupala, Yakub Kolas, Svetlana Somova kabi rus, ukrain, belorus yozuvchi va shoirlari bilan adabiy hamkorlik ishlari olib borildi.

Jumladan, «Biz yengamiz!» almanaxi va «O‘zbekiston shoirlari – frontga» antologiyasi chop etildi.

1944-yili o‘zbek romanchiligining yuksak namunalaridan biri bo‘lgan akademik shoir Oybekning «Navoiy» romani chop etildi.

Oybek «Front bo‘ylab» nasriy jangnomasini yozdi, O‘zbekiston xalq rassomi O‘rol Tansiqboev «Urush yo‘llarida» nomli turkum asarlarini yaratdi.


Korney Chukovskiy


Yanka Kupala

MA’LUMOT UCHUN

Frontda tashkil etilgan o‘zbek tilidagi gazetalarda Jalolxon Azizxonov, Mirzakalon Ismoiliy, Adham Rahmat, Nazarmat, Meli Jo‘ra, Ibrohim Rahim kabi qator yozuvchi va shoirlar faoliyat olib borishdi.

Shuhrat, Sharof Rashidov, Vali G‘ofurov singari adabiyot vakillari jangohlarda dushmanga qarshi kurashdilar.

Obidjon Abdurahmonov, Sulton Jo‘ra, Burhon Tursunov kabi ko‘plab yozuvchi va shoirlar jang maydonlaridan qaytmadi.

30-yillarda qatag‘on qilingan mashhur o‘zbek shoiri Usmon Nosir 1944-yili Kemerovodagi lagerda vafot etdi.


Usmon Nosir

Urush Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi nishonlanadigan yili boshlandi. Shunga qaramay, 1941-yil dekabrida qamalda qolgan Leningrad shahrida joylashgan Ermitaj muzeyida ilmiy anjuman o‘tkazildi.

IJODIY FAOLIYAT

QR kodda berilgan G‘afur G‘ulomning «Sen yetim emassan» she’rini diqqat bilan tinglang. Unda ko‘tarilgan g‘oya bilan o‘tilgan mavzulardagi ma’lumotlarni umumlashtirib taqdimot tayyorlang.

BILASIZMI?

Muxtor Ashrafiy 1942-yili yaratgan va fashizmga qarshi kurashga bag‘ishlagan «Qahramonlik simfoniyasi» uchun davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Kompozitor mukofot pulini samolyot va tank kolonnalarini qurish fondiga topshirdi.





«Qahramonlik simfoniyasi» 1945-yil sentyabrida AQShda ijro etildi va bir yil ichida Amerika radiouzatish kompaniyasi asar yozilgan plastinkani ommaviy chiqardi.



MA’LUMOT UCHUN

Urush yillarida O‘zbekiston san’ati ustalari 30 dan ortiq konsert brigadalari tarkibida frontdagi jangchilarga 35 mingdan ortiq va O‘rta Osiyo Harbiy okrugi gospitallari, harbiy qismlariga 20 mingta konsert berishdi.

Front brigadalari tarkibida Tamaraxonim, Halima Nosirova, Sora Eshonto‘rayeva, Mukarrama Turg‘unboyeva, Muhiddin Qori-Yoqubov, Abror Hidoyatov, Olim Xo‘jayev, Gavhar Rahimova, Karim Zokirov singari san’atkorlar bor edi.



1941-yil noyabrigacha O‘zbekistonga Ukraina, Belorus va Rossiyadan 22 ta ilmiy tadqiqot instituti, 16 ta oliy o‘quv yurti, 2 ta kutubxona evakuatsiya qilindi.

MA’LUMOT UCHUN

1943-yil 4-noyabrda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tashkil etildi. Unga taniqli o‘zbek matematik olimi Toshmuhammad Qori-Niyoziy (1897–1970) ilk prezident etib saylandi. Akademiyaning mutaxassislari tomonidan Farhod GESi loyihasi ishlab chiqildi. 1945-yilga kelib, Fanlar akademiyasi yirik ilmiy markazga aylandi, uning tarkibida 20 ta ilmiy tadqiqot instituti, 2 ta laboratoriya va 1 ta tajriba stansiyasi mavjud edi.



Toshmuhammad Qori-Niyoziy



O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi binosi

MA’LUMOT UCHUN

Ikkinchi jahon urushi yillarida Germaniya va uning ittifoqchilariga qarshi «Antifashist davlatlar ittifoqini» tuzish chog‘ida G‘arb davlatlari Sovet hukumati oldiga bir qator demokratik talablarni qo‘ydilar. Shu talablar bajarilgan holdagina Sovet hukumati bilan harbiy siyosiy ittifoq tuzishga rozi bo‘lishlarini bildirdilar. Ulardan biri dindorlarga va dinga qarshi siyosatni tubdan o‘zgartirish talabi edi.

G‘arb davlatlari talabi va aholini urushga safarbar qilish zarurati hukumatni din va diniy tashkilotlarga nisbatan siyosatni vaqtincha bo‘lsa-da o‘zgartirishga majbur etdi. Mamlakatda kommunistlar mafkurasi o‘rnatilgan bo‘lishiga qaramay, aholining asosiy qismini ma’lum dinga e’tiqod qiluvchilar tashkil etgan. Diniy siyosatni o‘zgartirmay turib, ularni Germaniyaga qarshi kurashga jalb etish mushkul edi. Ushbu omillar sababli kommunistlar hukumati uchun diniy masala dolzarblashdi va diniy siyosat vaqtincha o‘zgartirildi.

Din va diniy tashkilotlarga nisbatan siyosatning vaqtincha o‘zgartirilganligi quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

1. Dindorlarni ta’qib qilish va dinga qarshi targ‘ibot vaqtincha to‘xtatildi. Ayrim ruhoniylar qamoqdan ozod qilindi. Dinga qarshi faol targ‘ibot yuritayotgan «Jangovar xudosizlar ittifoqi» tugatildi va «Bezbojnik» («Xudosiz») jurnali yopildi;

2. Davlat nazorati ostida diniy tashkilotlar qayta tashkil qilindi va ularning faoliyati kengaytirildi.

1943-yilda Ichki ishlar vazirligi qoshida Rus pravoslav cherkovi ishlari vakilligi, 1944-yilda barcha dinlar uchun mas’ul «Din ishlari bo‘yicha vakillik» tashkil qilindi. Butun Rossiya bo‘ylab cherkov va ibodatxonalar Sinod (pravoslav cherkovining boshqaruv organi)ga qaytarildi.



MA’LUMOT UCHUN

1943-yil 20-oktyabrda Toshkent shahrida musulmon vakillari qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining ta’sis etilishi asosiy masala qilib qo‘yildi. Hay’at ta’sis qo‘mitasini tuzib, Eshon Boboxon boshchiligida «O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi» tashkil etilishi haqida qaror qabul qildi. Eshon Boboxon 1943-yili O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining muftiysi etib saylandi.

Urushdagi sharoit o‘zgarib sovetlar hokimiyatining saqlanib qolishi aniq bo‘lib qolgach, hukumat yana dinga nisbatan siyosatini o‘zgartirdi. 1944-yil sentyabrda kommunistlar partiyasi markaziy qo‘mitasi yana dinga qarshi eski ta’qiblarini boshladi.



Eshon Boboxon

BILASIZMI?

1944-yili Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligida vakillar birinchi bor Saudiya Arabistoniga haj safariga yo‘l oldilar. Safar davomida ular Eron, Iroq, Livan va Misrda ham bo‘lib, ilk bor xorijdagi dindorlar bilan muloqotda bo‘lish, shaxsiy aloqalar o‘rnatish imkoniga ega bo‘ldilar. 1945 va 1946-yillarda ham yana boshqa guruhlar haj safarlarini amalga oshirishdi. Shu bilan yana ma’lum bir muddatgacha sovet musulmonlarining haj safariga borishlari to‘xtab qoldi.

DARSDAN IJOBIY SABOQ CHIQARIB

1. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi haqida so‘zlab bering.
2. O‘zbekistonga G‘arbdan qanday ilmiy muassasalar ko‘chirib keltirildi?
3. Oliy ta’lim sohasida ahvol qanday edi?
4. Urush yillarida ijod etgan yozuvchi va shoirlardan kimlarni bilasiz? Ushbu yillarda qanday asarlar yaratildi?
5. Uyga vazifa. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

O‘zbek yozuvchilari	Ko‘chib kelgan yozuvchilar	O‘zbek olimlari	Ko‘chib kelgan olimlar


O‘ZBEKISTON XALQ XO‘JALIGINING URUSHDAN KEYINGI YILLARDAGI RIVOJLANISHI

BUGUN DARSDA

- O‘zbekiston xalq xo‘jaligining tinch rivojlanish yo‘liga o‘tishi.
- Urushdan keyingi qatag‘onlik siyosati.

MULOHAZA UCHUN

1. Kolxozlashtirirsh siyosatidan ko‘zlangan maqsad nima edi?
2. 1933–39-yillardagi qatag‘on siyosatida asosan kimlar taqib qilingan edi?



MA’LUMOT UCHUN

Ikkinchi jahon urushi yillarida aholisining 10 foiziga yaqinini yo‘qotgan (halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan), iqtisodining 60 foizini urush xarajatlariga yo‘naltirgan O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga kelishga ulgurmay turib, endi paxta «fronti»da jonbozlik ko‘rsatishiga to‘g‘ri kelgan.

Moskvaning paxtachilikni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston oldiga juda baland reja qo‘yishi natijasida 1949- va 1950-yillarda reja topshiriqlari bajarilmadi.

To‘rtinchi besh yillikda (1948–1952-yy.) paxtachilikka ajratilgan maydon 148 ming gektarga ko‘paydi, respublikaning tabiiy va insoniy imkonlarini shafqatsiz ishlatish hisobiga paxtaning yalpi hosili shu davrda keskin oshdi. Paxta ekiladigan maydonlar kolxozchilarning shaxsiy yer mulklari va uy xo‘jaliklari hisobidan keskin kengaytirildi.

1950-yilda sovet siyosiy rahbariyati tomonidan kolxozlarni yiriklashtirish va ularni mutaxassislar bilan ta’minlash siyosati boshlandi.

Mazkur siyosat nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy-mafkuraviy maqsadlarni ham ko‘zlagan edi. Mavjud mayda kolxozlar o‘rniga yanada yirikroq kolxozlar tuzildi. Sovet hukumati joylardagi partiya idoralari orqali kolxozlar faoliyati ustidan qat’iy nazorat o‘rnatdi. Bu O‘zbekistonda ham kolxoz qurilishi jarayonining siyosiylashtirilganidan dalolat beradi.



MA’LUMOT UCHUN

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonda xomashyo yetishtirish sohasi jadal sur’atlar bilan rivojlantirildi. Neft, ko‘mir qazib olish, elektr energiyasi, mineral o‘g‘itlar, po‘lat ishlab chiqarishni jadal sur’atlarda oshirib borish iqtisodiyotning xomashyoga yo‘naltirilganligini yanada mustahkamladi.

Mazkur davrda sovet tuzumining qatag‘on siyosati davom etib, bu jarayon fan va madaniyat namoyandalariga qarshi o‘tkazilgan kampaniyalarda o‘z aksini topdi. Markazning ko‘rsatmasi bo‘yicha, respublika siyosiy rahbariyati ilm-fan, adabiyot va san’atning ba’zi vakillarini «feodal o‘tmishni ideallashtirishda va undagi ayrim arboblarning o‘zbek halqi tarixidagi roliga «nomarksistik» yondashish orqali baho berganliklari uchun ayblagan edi.

O‘zbekiston SSR kommunistik partiyasi markaziy komitetining 1952-yil fevraldagi X plenum qarorlarida bir qator o‘zbek olimlari va madaniyat arboblarining ijodlari qattiq tanqid qilindi, xalq og‘zaki ijodi asarlariga o‘ta salbiy baho berildi. «Alpomish» xalq dostonini esa mutlaqo jaholatparastlikda ayblashdi. Biroz keyinroq «feodal o‘tmishni ideallashtirganliklari» uchun Oybek, Maqsud Shayxzoda, Shukrullo, Hamid Sulaymonov va boshqalar qatag‘on qilindi.

IJODIY FAOLIYAT

1. 1949 va 1950-yillarda Moskvaning paxtachilikni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston oldiga qo‘ygan rejasi nega bajarilmadi? Sabablarini ko‘rsating.
2. Sovet hukumati joylardagi partiya idoralari orqali kolxozlar faoliyati ustidan qat’iy nazorat o‘rnatishidan maqsadi nima edi?




IJODIY FAOLIYAT

Jahon tarixidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering.

1. Nima uchun respublikalarda non va oziq-ovqatning narxi oshib ketdi?
2. Shu yillarida qishloq xo‘jalik sohasida qanday siyosat olib borilgan?
3. Shukrulloning «Kafansiz ko‘milganlar» asarida 50-yillar sovet qatag‘on siyosati aks etgan.

1960-yillar boshida shaharlarda, hatto non ham yetishmasdi. 1962-yil 1-iyundan hukumat vaqtincha go‘sht va yog‘ning narxini oshirishga majbur bo‘ldi. Bu odamlar, avvalo, ishchilar orasida norozilikni keltirib chiqardi. 1963-yildan boshlab hukumat chetdan g‘alla sotib ola boshladi.






MA’LUMOT UCHUN

Bu davrda O‘zbekistonda turli sanoat korxonalari qurilgan. Mirzacho‘l, Surxon-Sherobod va Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi natijasida ekin maydonlari kengaytirilgan.

Sovet Ittifoqi boshqaruviga kim kelishidan qat’i nazar, undagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot asoslari keyingi yillarda o‘zgargan emas. 1970-yillarda «SSSRda rivojlangan sotsialistik jamiyat» qurilgani e’lon qilingan bo‘lsa-da, amalda sovet hokimiyati qo‘l ostida yashayotgan xalqlarning turmush darajasi dunyoning ilg‘or mamlakatlarinikidan ancha orqada qoldi.

1970–1980-yillarning o‘rtalaridagi davr O‘zbekiston dehqonchiligi uchun juda og‘ir kechdi. Paxta maydonlarining kengayib borishi O‘zbekiston ekologiyasining buzilishiga sabab bo‘ldi.

XX asrning 60-yillaridan sug‘oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan-yilga kamaya bordi. Oqibatda Orol dengizida suv sathi jadal sur’atlarda pasayib, u quriy boshladi. Dengiz suvining sho‘rlanishi kuchayib, baliq va boshqa suv jonivorlari keskin kamayib ketdi. Orol dengizining qurib borishi Markaziy Osiyo mintaqasi hamda qo‘shni davlatlar ekologiyasiga misli ko‘rilmagan darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi.



Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi



IJODIY FAOLIYAT

1. «O‘zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlantirilishi» deganda nimani tushundingiz?
2. Sanoat korxonalari qanday maqsadlarda qayta jihozlandi?
3. Hunarmandchilikning rivoj topishiga nimalar to‘siq bo‘ldi? Sizningcha, yakka tartibdagi hunarmandchilikning taqiqlanishiga nima sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin?

BILASIZMI?

1959-yil 15-martda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimiga Sharof Rashidov (1917–1983) saylandi. U bu lavozimda umrining oxirigacha samarali faoliyat ko‘rsatdi.

Sharof Rashidov atoqli davlat, siyosat va jamoat arbobi hamda mashhur yozuvchi bo‘lgan. 1917-yil 8-noyabrda Jizzaxda tug‘ilgan. U 1950–1959-yillarda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi lavozimida iste’dodli tashkilotchi va mohir rahbar sifatida yaxshi taassurot qoldirdi. Sh. Rashidov rahbarligida O‘zbekiston iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishda muayyan muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Paxtachilikni rivojlantirish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, 1966-yildagi zilziladan so‘ng Toshkentni qayta tiklash ishiga u ko‘p kuch-quvvat va g‘ayratini sarfladi. Toshkent metropoliteni qurilishi uning tashabbusi bilan boshlangan. Metropolitenning birinchi navbati (9 ta bekat) 1977-yil noyabrda ishga tushirildi.



1977-yil 7-oktyabrda qabul qilingan SSSR-ning yangi Konstitutsiyasi milliy respublikalar huquqini rasmiy chekladi va Markazga keng vakolatlar berdi. 1978-yilda O‘zSSR ham o‘z konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitusiyada belgilangan qoidalar faqat qog‘ozda bo‘ilb, amalda o‘sha davrdagi hukmron partiyaning g‘oyalari quvvatlanar, barcha tashkilotalarda asosiy rahbarlik lavozimlari kommunistlar partiyasi qo‘lida edi.

O‘zbekistonda ham xuddi butun Ittifoqda bo‘lgani singari respublika Oliy Soveti hech qaysi masalani partiya komitetlaridan ruxsat olmasdan hal qila olmagan.

Komsomol va boshqa tashkilotlar partiya idoralarining ko‘rsatmalarini bajarishga majbur bo‘lganlar. Buyruqlarni bajarmagan rahbarlar o‘z lavozimlaridan ozod etilgan. Sovet hokimiyati davrida partiya nomenklaturasi (partiya organlari bilan kelishib tayinlanadigan lavozimlar) deb atalgan tartib-qoida mavjud bo‘lgan.

Bu qoidaga ko‘ra, mas’ul lavozimlarga faqat partiya a’zolari, ya’ni kommunistlar tayinlangan. Shu bilan birga, turli darajadagi Sovetlar, komsomol hamda jamoat tashkilotlari rahbarlari kommunistik partiya rahbariyati (Markaziy Komitet, viloyat, shahar va tuman partiya komitetlari) tarkibiga kiritilgan. Shu tariqa, partiya organlari bu tashkilotlar bilan qo‘shilib, ularni o‘ziga bo‘ysundirib olgan.

IJODIY FAOLIYAT

Ekologik muammolarning kelib chiqishi haqida taqdimot tayyorlang. Taqdimotda quyidagilarga e’tibor qarating:


- paxta maydonlarining kengayishi va buning oqibati.
- ekologiyaning buzilishiga ta’sir etgan omillar.
- Orol muammosining kelib chiqishiga O‘zbekiston rahbariyatining munosabati.
- BMT ning 72-sessiyasida Orol bilan bog‘liq muammoning ko‘tarilishi va xalqaro tashkilotlarning munosabati.



MA’LUMOT UCHUN

XX asrning 60–80-yillarida O‘zbekistonda mahalliy aholidan tashqari turli mintaqalardan ko‘chib kelgan ruslar, tatarlar, ukrainlar, koreyslar va boshqa xalqlar — umumiy hisobda 127 ta millat va elatlar yashagan. 1970–1980-yillari respublikada ruslashtirish siyosati yanada kuchaydi. Bu siyosat o‘zbek adabiy tilining rivojlanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ammo o‘sha davrda bu «yagona sovet xalqi shakllanishidagi qonuniy jarayon» sifatida qabul qilindi.

O‘zbekistonda zamonaviy kon-metallurgiya sanoatiga asos solinishi uning industrial qiyofasini o‘zgartirib yubordi. Ko‘plab yangi shaharlar va posyolkalar (shaharchalar) qurildi. Ayniqsa, ittifoqqa bo‘ysunuvchi va «yopiq shaharlar» deb ataluvchi Navoiy, Zarafshon va Uchquduq kabi shaharlarga boshqa mintaqalardan ishchi kuchi jadallik bilan olib kelindi. Yopiq shaharlar mahalliy hokimiyatga bo‘ysunmagan. Bu joylarda maxfiy korxonalar joylashgan bo‘lib, ular faqat Markazga hisob berardi.



1956-yili Buxoro viloyatida Gazli neft-gaz koni topildi. Jahondagi eng yirik gaz konlaridan biri hisoblangan bu konning umumiy zaxirasi 500 mlrd kubometr gaz bo‘lgan.

XX asr 50-60-yillarida Qizilqum sahrosi markaziy tumanlarining sanoat jihatidan o‘zlashtirilishi oltin va uran qazib olish sanoatining paydo bo‘lishiga olib keldi.

1958-yil 3-sentyabrda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga poydevor qo‘yilishi bilan Navoiy shahriga asos solindi.



DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Kon-metallurgiya sanoatiga mamlakat tashqarisidan kadrlar va ishchi kuchini jalb etishdan ko‘zlangan maqsad nima edi?
2. Nima uchun Navoiy, Zarafshon va Uchquduq kabi shaharlar «yopiq shaharlar» deb atalgan?
3. Sovet jamiyati siyosiy tizimiga qaysi tashkilotlar kirgan? Ularning faoliyatidagi qanday masalalarda to‘siqlar bo‘lgan?
4. 1978-yilgi Konstitutsiyaning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’siri qanday bo‘ldi?
5. Jamoat tashkilotlari huquqlarining cheklanishi qanday oqibatlarga olib keldi?
6. O‘ylab ko‘rib, xulosa chiqaring va munosabat bildiring:

O‘zbekistonning yerosti boyliklaridan qimmatbaho resurslarni so‘rib olgan Ittifoq korxonalari olingan foydaning atigi 1 foizini mahalliy byudjetga o‘tkazgan.

1980–1990-YILLARDA O‘ZBEKISTON

BUGUN DARSDA

- Paxta yakkahokimligi va ijtimoiy muammolarning kuchayib borishi.
- «Paxta ishi» va uning respublikadagi ijtimoiy holatga ta’siri.

MULOHAZA UCHUN

Jahon tarixidan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. 1980-yillarga kelib SSSR davlatining iqtisodiy rivojlanishida qanday muammolar yuzaga keldi? Bu muammolarning O‘zbekistonga ta’siri bo‘ldimi? Nima uchun?
2. Iqisodiy muammolar qanday siyosiy muammolarga sabab bo‘ldi?

MA’LUMOT UCHUN

1980-yillarga kelib sovet imperiyasi qurmoqchi bo‘lgan «sotsialistik» tuzumning nochorligi namoyon bo‘lib qoldi. Biroq birdan-bir siyosiy hukmron va og‘irlashib borayotgan ahvol uchun javobgar kuch – kommunistlar mazkur haqiqatni tan olishlari mumkin emasdi. Shu bois sobiq Sovet Ittifoqi rahbari Yuriy Andropov mavjud barcha muammolar va yo‘qotishlarda «aybdorlar»ni topish va ularni «sovet xalqi»ga ko‘rsatishga bel bog‘ladi. Bunday «aybdorlar» tezda Moskva, Krasnodar viloyati va O‘zbekiston SSRda «topildi». Ya’ni bir qator shaxslarga mansabni suiiste’mol qilish, davlat muklini o‘zlashtirish, katta miqdorda pora olish ayblari qo‘yildi.





IJODIY FAOLIYAT

Sovet hokimiyatining, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy va keyinchalik siyosiy asosiga «afg‘on urushi»ning ta’siri bo‘lganmi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.



BILASIZMI?

«Baynalmilal yordam» ko‘rsatish bahonasi bilan tinch Afg‘onistonga bostirib kirish juda qimmatga tushdi: u yerda doim saqlangan yuz ming nafar harbiyni oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-yarog‘ va boshqa zaruratlar bilan ta’minlash uchun o‘n yilda 100 000 000 000 rubldan ortiq mablag‘ sarflangandi. Eng fojialisi, mazkur g‘ayriinsoniy urushda 14 500 kishidan ortiq sovet harbiysi, jumladan, 1 515 nafar o‘zbekistonlik halok bo‘ldi, 100 000 dan ortiq kishi og‘ir yaralandi yoki uyiga nogiron bo‘lib qaytdi.

MA’LUMOT UCHUN

1984-yil 23-iyunda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi qarorlari bilan Markaz tomonidan O‘zbekistonda «paxta ishi» deb atalgan siyosiy qatag‘onlar boshlandi.

SSSR Bosh prokurori huzurida alohida muhim ishlar bo‘yicha maxsus tergovchilar guruhi tuzilib, ularning dastlabkisi 1983-yil boshlarida O‘zbekistonga yuborilgan edi. Ana shunday maxsus tergov guruhlarining asosiylaridan biri T. Gdlyan va N. Ivanov rahbarligida 1983-yil aprelda tuzilgan edi. Ular keyinchalik Markazdan respublikaga kelgan «desantchilar»ga tayanib, O‘zbekistonda navbatdagi qatag‘onni amalga oshirdi.



1985–1990-yillarda O‘zbekistonda «paxta ishi» degan uydirma bo‘yicha jami 40 000 kishi tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izolyatorlarida prokuror sanksiyasisiz hibsga olindi, 5 000 nafar kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi. Tergov jarayonida inson huquqlari toptalib, tutqunlarga jismoniy va ruhiy tazyiq o‘tkazildi. Ularning oila a’zolari va qarindosh-urug‘lari ham qamoqqa olindi. Kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi.

IJODIY FAOLIYAT

1. 1980-yillardagi qatag‘on siyosati undan avvalgi davrda bo‘lgan qatag‘onlardan nimasi bilan farq qiladi?
2. QR kodda berilgan matnning 145-betidan 165-betigacha o‘qing va shu davrdagi jarayonlarga munosabat bildiring.

BILASIZMI?

Moskvaning asl muddaosini yaxshi anglagan Sh. Rashidov navbatdagi «siyosiy tozalashlar» tig‘ini qo‘lidan kelgancha susaytirishga uringan bo‘lsa-da, uni butunlay bartaraf etishga kuchi yetmadi. Unga va o‘zbek millatiga o‘tkazila boshlangan har tomomlama og‘ir va uzluksiz tazyiq o‘z ishini qildi – 1983-yil 31-oktyabrda u yurak xurujidan vafot etdi.

MA’LUMOT UCHUN

Sovet rejimining «paxta ishi» oqibatida O‘zbekistonda minglab kishilar nohaq ravishda jazolandi. Xalq xo‘jaligi sohalarida qo‘shib yozish, poraxo‘rlik va korrupsiyaga aloqador jinoyatlar SSSRning deyarli barcha hududlarida yuz bergan bo‘lsa ham «tajriba maydoni» sifatida O‘zbekiston tanlandi hamda jinoiy ishga aloqador kishilardan tashqari ko‘plab odamlar aybsiz jazoga tortildi. Kommunistik mafkuraning qatag‘on siyosati bu bilan cheklanmasdan paxta ishini o‘zbeklar ishiga aylantirishga urindi.






BILASIZMI?

1970–1980-yillar mobaynida davlat byudjetidan mablag‘ ajratish 11 foizdan 8 foizga qisqardi, o‘quv binolarining yetishmasligi yaqqol sezilib qoldi.

1987-yilda respublika umumta’lim maktablarining 5596 tasi (72,1%) da o‘qish ikki smenada tashkil etilgan bo‘lsa, 1989-yilda Toshkent shahrida 30 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 25 ta maktab hatto uch smenada ham ishlashiga to‘g‘ri kelgan. Respublika miqyosida jami 150 ming o‘quvchi uch smenada o‘qishga majbur bo‘ldi.

Sovet davlati va hukmron partiya ruslashtirish siyosatini umumta’lim maktablari orqali ham davom ettirib, rus madaniyati, tarixi va adabiyotini maktablarda yanada chuqurroq o‘qitishga e’tiborni qaratdi. Masalan, o‘zbek tilida ta’lim oladigan maktablarning har bir sinfiga rus tili va adabiyotini o‘rganish uchun 3390 soat ajratilgani holda rus tilida o‘qitiladigan maktablar uchun o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishga 560 soat yoki qariyb 6 baravar kam soat berildi.



MA’LUMOT UCHUN

Ruslashtirish siyosati bilan bir vaqtda yoshlarga ateistik tarbiya berish ham kuchaytirildi. Islom dinini «u buzg‘unchi g‘oyalardan iborat», deya isbotlashga harakat qilindi. Barcha oliy pedagogika o‘quv yurtlari va bilim yurtlarida turli xil ateistik to‘garaklar, klublar tashkil etildi.

1980-yillarga kelib «Sovet ittifoqi» deb atalgan ulkan imperiyaning qulashi aniq bo‘lib qolgach, hukumat yana dindorlarga hujum boshladi. Bu safar kurashning tig‘i asosan davlat idoralari va muassasalarida mas’ul lavozimlarda ishlayotgan partiya a’zolariga qaratildi. Ular ota-onasi yoki biror qarindoshi vafot etsa, janozaga borganliklari uchun ta’qib ostiga olindi. 1986-yil KPSS XXVII syezdining «Ateistik tarbiya va uni takomillashtirish tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori ijrosi bo‘yicha «Yoshlar va ateistik tarbiya», «Lenin tamoyillari ateistik tarbiyada», «Din afyundir», «Ilmiy kommunizm kommunistik tarbiyaning ajralmas qismi» kabi ma’ruza va davra suhbatlari tashkil etildi.

«Din afyundir» degan g‘oya yana qayta tiklandi. Diniy kitoblar, shu jumladan, arab imlosida yozilgan barcha turdagi kitoblar «reaksion» deb e’lon qilindi. Uyidan arab yozuvidagi kitob chiqqan hamda namoz o‘qib, ro‘za tutgan partiya xodimlarini ta’qib qilish davom ettirildi.

Dinga qarshi kurash niqobida xalqimizning qadimiy urf-odatlari, qadriyatlari yakson qilindi. Ming yillar davomida nishonlanib kelinayotgan Navro‘z diniy bayram sifatida butunlay taqiqlandi.



MA’LUMOT UCHUN

Mamlakat siyosiy hayotida 1982–1985-yillarda yuz bergan o‘zgarishlar O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi.

KPSS MK Aprel (1985-y.) plenumi sovet jamiyati hayotining barcha sohalarini chuqur isloh qilish yo‘lini e’lon qildi. Qayta qurishning asosiy tarkibiy qismlari deb ijtimoiy hayotni demokratlashtirish va tub iqtisodiy islohot o‘tkazish belgilandi.

Qayta qurishning birinchi bosqichi (1985–1986-yillar) ma’muriy tashkiliy tadbirlarning an’anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlanadi. Mazkur bosqichda ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asnosida inson omilini faollashtirish mo‘ljallangan edi.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987–1989-yillar) jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo‘ydi. Xususan, 1987-yil yanvar va 1988-yil iyunda bu vazifalar yanada aniqlashtirildi va uning asosiy maqsadi sovet jamiyatini to‘liq demokratlashtirishdan iborat ekanligi ta’kidlandi.

Qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligining ma’lum ma’noda kuchayishiga imkoniyat yaratdi. Ammo mamlakatda tub demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkin bo‘lmadi.



BILASIZMI?

Mamlakatda bo‘lgan qayta qurish jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tuzilishida bir qator o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. KPSSning sovet jamiyatidagi rahbarlik va yetakchilik mavqeyiga putur yetdi, saylov tizimini o‘zgartirish to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

Qayta qurish pirovardida siyosiy jihatdan safsatabozlikka aylanib, tub demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish va boshlangan islohotlarni oxirigacha yetkazish imkoniyatini bermay mag‘lubiyatga uchradi. M. S. Gorbachyov g‘oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkin emas edi. Chunki sotsializm doirasidagi mulkiy munosabatlar, ijtimoiy sohadagi siyosat, milliy va diniy siyosat, yakkapartiyaviy rahbarlik va mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya va oshkoralik bilan kelisha olmagan.

MA’LUMOT UCHUN

Markaz jilovni qo‘ldan bermaslik uchun butun imkoniyatlarni ishga solayotgan bir sharoitda 1989-yil may–iyun oylarida Quvasoyda yoshlar o‘rtasida bo‘lgan bezorilik vodiyda millatlararo to‘qnashuvni (mesxeti turklari bilan mahalliy yoshlar o‘rtasida) keltirib chiqardi. U Farg‘ona vodiysi va Toshkent viloyatiga tarqalib, xavfli tus oldi.

1989-yil 7-8-iyunda Qo‘qon shahrida mahalliy aholi qatnashgan tinch namoyish harbiy qism askarlari tomonidan o‘qqa tutilishi natijasida 50 dan ziyod namoyishchilar halok bo‘ldi. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, 1989-yil 3–12-iyunda Farg‘ona viloyatida bo‘lgan millatlararo to‘qnashuvlar va namoyishchilarning harbiylar tomonidan o‘qqa tutilishi natijasida 103 nafar kishi halok bo‘lgan, 1 011 nafar kishi jarohatlangan va 757 xonadonga o‘t qo‘yilib, vayron etilgan.

Farg‘ona fojialaridan keyin O‘zbekistonning yangi siyosiy rahbariyati bu masalada prinsipial mavqeni egalladi.



DARSDAN SABOQ CHIQARIB

1. Matnni o‘qing. Matn asosida mustamlaka davrida dinga nisbatan bo‘lgan siyosatga baho bering.

«1984-yilda O‘zbekiston Kommunistik partiyasi markaziy komitetining XVI plenumida partiya a’zolari o‘z yaqinlarining dafn marosimida, janozalarida ishtirok etishi «siyosiy jihatdan zararli, sotsial jihatdan xatarli», deb baholandi.

2. Yuzaga kelgan muammolar ta’lim sohasiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
3. T. Gdlyan va N. Ivanov rahbarligida 1983-yil aprelda tuzilgan maxsus tergovchilar guruhining maqsadi nima edi?
4. «Qayta qurish» siyosati deganda nimani tushunasiz?
5. Farg‘ona fojialarining boshqa hududlarga ham tarqalishiga nimalar sabab bo‘lgan?
6. Farg‘ona fojiasi nima sababdan sodir bo‘ldi, uning oqibatlarini bilasizmi?

Qo‘shimcha o‘qish uchun

SHAROF RASHIDOV



1941-yili boshlangan urush ko‘plar qatori Sh. Rashidovning ham hayotiy rejalarini o‘zgartirib yubordi. Shu yili noyabrda Frunze (hozirgi Bishkek) piyodalar harbiy bilim yurtini tezlashtirilgan dastur asosida tugatgandan keyin kichik politruk (Sovet Armiyasida shaxsiy tarkibning siyosiy tayyorgarligi bilan shug‘ullanuvchi komandir) Sh. Rashidov Kalinin frontiga jo‘natildi. Sh. Rashidovga yaqin bo‘lgan kishilarning aytishicha, u o‘zining urush davridagi hayoti haqida ko‘p gapirishni yoqtirmasdi.



…1966-yil 26-aprel tongida Soat 5 dan 23 daqiqa o‘tganda Toshkentda Rixter shkalasi bo‘yicha 8–9 ball kuchlanishdagi zilzila yuz berdi. Yerning qattiq qimirlashi 10–12 sekund davom etdi. Bu 10 kvadrat kilometr maydondagi binolarning vayron bo‘lishiga olib keldi. Yer qimirlashi gorizontal emas, vertikal holda yuz berganligi uchun vayronagarchiliklar va qurbonlar nisbatan kam edi. 8 kishi halok bo‘ldi, yuzlab odamlar jarohatlandi. 2 million kvadrat metrdan ziyod turarjoylar, 236 ta ma’muriy binolar, 700 ga yaqin savdo va umumiy ovqatlanish obyektlari, 26 ta kommunal korxona, 181 ta o‘quv yurtlari, 36 ta madaniyat idoralari, 185 ta tibbiyot va 245 ta sanoat korxonalari binolari buzildi. 78 ming oila yoki 300 ming kishi boshpanasiz qoldi. Butun yil davomida 7 ballgacha bo‘lgan yer silkinishlari takrorlanib, odamlarni doimiy bezovta qilib turdi. Zilzilaning ertasi kuni Toshkentga KPSS Markaziy Komitetining birinchi sekretari L. Brejnev va SSSR Ministrlar Sovetining raisi A. Kosigin yetib keldi. Sh. Rashidov poytaxtdagi ahvol bo‘yicha axborot bergandan so‘ng, mutaxassislar ishtirokida Toshkentni qayta tiklash bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Sh. Ergashevning
«Erk istar ko‘ngil» kitobidan.

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIK VA MUSTAQILLIK SARI INTILISHNING KUCHAYISHI

BUGUN DARSDA

- O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi.
- O‘zbekiston SSR siyosiy rahbariyatidagi yangi o‘zgarishlar.
- Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati.
- O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e’lon qilinishi.

MULOHAZA UCHUN

- Jahon tarixi bilan bog‘lang. 1990-yillarga kelib dunyoning siyosiy xaritasida qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Buning sababi nima edi?

MA’LUMOT UCHUN

Sovet Ittifoqi rahbariyati, ayniqsa, maxsus xizmatlar milliy respublikalarni, jumladan, O‘zbekistonni qo‘l ostida ushlab turish uchun bor kuchlarni ishga soldilar. Masalan, Farg‘ona, Qo‘qon, Quvasoy, Guliston, Parkent, Bo‘kada millatlararo mojarolar chiqarish orqali odamlar diqqatini chalg‘itish, ularni bo‘lg‘irish orqali milliy-ozodlik harakatini so‘ndirishga qattiq bel bog‘ladilar.



MA’LUMOT UCHUN

Bu o‘ta qaltis va og‘ir davrda – 1989-yil 23-iyunda O‘zbekiston SSR rahbarligiga Islom Karimovning kelishi davlat mustaqilligini tiklash jarayoniga respublikadagi ilg‘or va hur fikrlovchi boshqaruvchilarni ham uyushtirish imkonini tug‘dirdi. Negaki, partiya, ijro va vakillik idoralari, harbiylashtirilgan tuzilmalarda O‘zbekistonni ozod ko‘rish, mustaqil rivojlanish yo‘liga uzil-kesil o‘tish qarashi bilan yongan shaxslar kam emasdi.

Mustaqillik sari maqsadga muvofiq harakat o‘z samarasini bera boshladi. 1990-yil 24-martda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Islom Karimovni O‘zbekiston SSRning prezidenti etib saylaydi.

Shu yilning 20-iyunida Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu tarixiy hujjatning qabul qilinishi davlat mustaqilligimizni tiklash sari qo‘yilgan zalvorli qadam bo‘ldi.

1989-yil 21-oktyabrda respublika Oliy Sovetining XI sessiyasi «O‘zbekiston SSR davlat tili haqida»gi Qonunni qabul qilib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berdi.





Bu kabi keskin va ilg‘or o‘zgarishlar boshqa respublikalarda ham yuz bera boshlagani sharoitida Moskvadagi imperiyaparast kuchlar 1991-yil 19-avgustda davlat to‘ntarishi uyushtirish orqali SSSRni saqlab qolishga urinib ko‘rdilar. Biroq ushbu xatti-harakat uch kundan oshmay, muvaffaqiyatsizlikka uchradi. O‘zbekistonda mustaqillik sari intilishlar yanada avj oldi.

O‘zbekiston SSR Prezidentining 25-avgustdagi farmoni bilan respublika ichki ishlar vazirligi va davlat xavfsizligi qo‘mitasi O‘zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi, SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston SSR Prezidentiga bo‘ysundirildi.

Nihoyat, o‘zbek xalqining necha-necha avlodi orziqib kutgan kun keldi. 1991-yilning 31-avgustida O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining o‘n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash bayonoti va «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida» Qonuni qabul qilindi.

Shunday qilib, 1991-yil 31-avgustda o‘zbek xalqi bir asrdan ortiq qaramlik davridan so‘ng o‘z milliy davlatchiligini tiklash baxtiga erishdi. Dunyo siyosiy xaritasida juda qadimiy davlatchilik an’analariga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi.

Bu nodir voqea kamida 3500 yillik o‘tmishga ega o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga zarhal sahifalar bo‘lib yozildi.

Mustaqillik xalqimizning XX asrda erishgan eng yuksak yutug‘i, ajdodlarimiz to‘kkan qutlug‘ va tabarruk qonning mahsuli hisoblanadi.



DARSDAN IJOBIY SABOQ CHIQARIB

1. 1989-yil 23-iyundan O‘zbekistonning Ittifoqdagi o‘rnida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
2. Mustaqillik Deklaratsiyasi qanday huquqiy ahamiyatga ega hujjat bo‘lgan?
3. «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonun qanday maqsadlarni o‘ziga qamrab oldi?
4. QR kodda berilgan deklaratsiyani o‘qing. Uning mazmunini gapirib bering. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar bu hujjat qanday maqomga ega bo‘lganligini mulohaza qiling. Fikringizni 3-savolda berilgan qonun bilan asoslang.

Atamalar izohi

Avtonomiya *(yunoncha – qonun)* – biror-bir hududning qonun bilan chegaralangan davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi.

Biy sudlari – qabila urf-odatlariga tayanib ish ko‘radigan sud.

Bolshevik *(ruscha bolshoy, bolshe – katta; ko‘p)* – Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasining 1903-yil II syezdida partiya a’zolarining ko‘pchiligi asosida tashkil topgan guruhi bolsheviklar, kamchiligi esa minsheviklarga ajraldi.

«Bosmachilik» – Turkistonda 1918—1925-yillarda keng xalq ommasi vakillarining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan qurolli harakatiga hukumat tomonidan berilgan nom.

Byuro *(fr. devonxona, idora)* – ba’zi muassasa, tashkilotda rahbarlik ishini olib borish maqsadida saylanadigan yoki ta’sis etiladigan kollegial organ.

Chachvon – otning dumi qilidan to‘qilgan, paranji ostidan yuzga tutiladigan to‘r parda.

Deklaratsiya — hukumatning, biror tashkilotning muhim bir hujjatni, qonunni, voqeani ko‘pchilik e’tiboriga yetkazuvchi bayonoti

Delegat *(lotincha – yuborgan)* – biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil.

Desyatina *(ruscha desyat – o‘n)* – metrik sistema qabul etilgunga qadar Rossiyada qo‘llangan, 1,09 gektarga teng yer maydoni o‘lchovi.

Duma *(ruscha – o‘ylash, fikrlamoq)* – Rossiya imperiyasining qonun chiqaruvchi hokimiyati, shahar dumasi – shaharning o‘zini o‘zi boshqarish organi.

Eserlar – S (es) – sotsial, R (er) – revolyutsion, ya’ni, sotsial revolyutsionerlar nomidan olingan bo‘lib, ular sovetlar ichida dehqonlar manfaatini hamoya qiluvchi guruh bo‘lgan.

Evakuatsiya *(lotincha – bo‘shatmoq, xoli qilmoq)* – odamlar, tashkilot, korxonalarni, badiiy va boshqa kadriyatlarni urush, tabiiy ofat kabilar xavfidan saqlash maqsadida bir joydan boshqa joyga ko‘chirish.

Federatsiya *(lotincha – ittifoq bo‘lib mustahkamlash)* – davlatlarning o‘z siyosiy mustaqilligini muayyan doirada cheklash yo‘li bilan yagona ittifoqqa birlashuvi.

Firqa (arab. – guruh, to‘da; partiya) – maqsadi, g‘oyasi, dunyoqarashining mushtarakligi jihatidan birlashgan kishilar guruhi.

Front – urush boshlanishi bilan qurolli kuchlar barpo etiladigan operativ-strategik birlashma, shuningdek, harbiy harakatlar maydonida qo‘shinlar old bo‘linmalarining yoyilishi va dushman bilan to‘qnashuv chizig‘i.

Gimnaziya – ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan va ular bo‘yicha chuqur ta’lim beradigan o‘quv muassasasi.

Ispravnik – uyezd politsiyasi boshlig‘i.

Jadid *(arabcha)* – «yangi» degan ma’noni bildiradi.

Jevachi *(jeva, jiba – qurol-aslaha)* – qurol-aslaha (jiba – himoya aslahalari) yasovchi hunarmand yoki qurolxona boshlig‘i.

Kadetlar – «konstitutsion demokratlar» birikmasining bosh harflaridan olingan. Rossiyada 1905-yilda tashkil topgan, konstitutsion-demoqratik partiya deb ataluvchi partiyaning a’zolari.

Kasanachilik – uyda yollanib ishlanadigan hunarmandchilik.

Kollektivlashtirish – mayda-mayda dehqon ho‘jaliklaridan ommaviy tarzda yirik kollektiv xo‘jaliklar (kolxozlar)ni tashkil qilish.

Konsentratsion lager *(lotincha – biror narsaning to‘planishi)* – bir joyga to‘plash, yig‘ish. Konsentratsion lager bu siyosiy mahbuslar qamaladigan maxsus lager.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Konservativ *(lotincha)* – eski tuzum tarafdorlari, islohotlar va o‘zgarishlarga qarshi turuvchilar.

Manifest *(lotincha)* – hukumatning muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojaati, qonun kuchiga teng hujjat.

Maorif *(arabcha)* – insonlarning bilimi va tafakkurini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya.

Matbuot *(arabcha – bosma asarlar, nashrlar)* – gazeta, jurnal va kitoblar majmuyi.

Monokultura – almashlab ekishga amal qilmagan holda dalada faqat bir xil ekinni muttasil yetishtirish.

Mutaassib *(arabcha – o‘ta fidoyi)* – dinga qattiq berilgan, uning aqidalariga ko‘r-ko‘rona amal qiluvchi.

Muvaqqat – vaqtincha, muayyan muddatga tuzilgan hukumat.

Muxolifat *(arabcha – teskari, qarama-qarshi)* – qarama-qarshi fikrda bo‘lgan, qarshi chiquvchi, qarshi.

Muxtoriyat – biron-bir hududning davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi.

Natsionalizatsiya *(inglizcha – millat, xalq)* – ayrim shaxs yoki birlashmalarning xususiy mulki bo‘lgan yer, ishlab chiqarish korxonalari, transport va boshqalarni davlat ixtiyoriga olish.

Paranji – ko‘pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko‘rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to‘n shaklidagi, soxta yengli yoping‘ich (yuz chachvon bilan berkitiladi)

Politsiya *(nemischa – ma’muriyat)* – jamoat xavfsizligini saqlovchi tashkilot.

Protektorat *(lotincha – homiy)* – mustamlaka mamlakat qaramligining bir shakli. Bunday mamlakat ichki siyosatida birmuncha mustaqil bo‘lsa-da, tashqi siyosati mustamlakachi davlat qo‘liga o‘tadi. Ikkinchi tomondan, ko‘plab mustamlakachi davlatlar iqtisodiy nochor davlatlarga «homiylik» ko‘rinishida egalik qilgan.

Pud – 16,38 kg ga teng og‘irlik o‘lchov birligi.

Qo‘rboshi – o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo xonliklari qurol-yarog‘ ombori (qo‘r) mutasaddisi hamda qurol-aslaha, turli yarog‘lar va to‘p yasash korxonalari (qo‘rxona) boshlig‘i bo‘lib, Turkiston o‘lkasida oktyabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davrda mahalliy politsiya boshlig‘i hamda keyinchalik, Turkistonda sovet rejimiga qarshi istiqlolchilik harakati rahbarlarining unvoniga aylangan.

Qozi sudlari – shariat qoidalari asosida ish ko‘radigan sud.

«Qo‘shchi» – qo‘sh haydovchi kishi, dehqon. «Qo‘shchi» dehqonlarni g‘oyaviy jihatdan birlashtirib turgan ittifoq bo‘lganligi uchun shunday nomlangan.

«Quloqlar» *(ruscha kulachestvo — mushtumzo‘r)* — mustabid sovet rejimining badavlat va o‘rta hol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosatidir.

Radikal *(lotincha – tubdan)* – keskin va qat’iy choralar tarafdori.

Referendum *(lotincha – xabar berilishi zarur bo‘lgan narsa)* – davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalalar bo‘yicha o‘tkaziladigan va ba’zan qonunlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan umumxalq so‘rovi, ovoz berish yo‘li bilan xalq fikrini aniqlash.

To‘ra – yuqori tabaqaga mansub kishi. Xiva xonligida xon qarindoshlari va yaqinlariga beriladigan unvon.

Tuzem – yerli xalq, mahalliy aholining mustamlakachilar tomonidan atalishi.

Uchastka pristavi – aholi yashash joyi nazoratchisi.

Uyezd – tumanlarga teng ma’muriy-hududiy bo‘linma.

Vassal – bir davlatning boshqa bir davlatga bo‘ysunish tartibi.

Volost – uyezd tarkibiga kirgan bir necha qishloq yoki ovullardan iborat hududiy bo‘linma.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

Kirish ... 3
Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklaridagi ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy ahvol ... 6
Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga yurishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi ... 19
Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi ... 26
Turkiston o‘lkasida siyosiy-ma’muriy boshqaruv tizimi ... 33
Turkistonda Rossiya imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari ... 39
Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta’siri ... 46
Turkistonda 1916-yilgi qo‘zg‘olonning boshlanishi ... 49
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Buxoro amirligi ... 53
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligi ... 58
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati ... 62
Turkistonda jadidchilik harakati ... 66
Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati ... 71
Turkistonda ilm-fan va madaniyat ... 80
Turkiston o‘lkasi 1917-yil fevral-oktyabr oralig‘ida ... 90
Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi ... 93
Xiva xonligining tugatilishi ... 99
Turkiston muxtoriyati ... 102
Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyati boshqaruv tizimining o‘rnatilishi ... 105
Turkiston ASSR, BXSR va XXSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar ... 109
O‘rta Osiyoda hududiy chegaralanish ... 116
O‘zbekiston SSRning tashkil topishi ... 121
Sovet hokimiyati amalga oshirgan islohotlarning mohiyati. Industrlashtirish siyosati va uning natijalari ... 126
O‘zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat ... 133
Sovet hokimiyatining O‘zbekistondagi qatag‘onlik siyosati ... 139
O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida ... 143
O‘zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari ... 155
Gvardiyachi general-mayor Sobir Rahimovning dafn qilinishi ... 163
O‘zbekiston fani va madaniyati g‘alaba uchun xizmatda ... 164
O‘zbekiston xalq xo‘jaligining urushdan keyingi yillardagi rivojlanishi ... 170
1980–1990-yillarda O‘zbekiston ... 177
Sharof Rashidov ... 184
O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy faollik va mustaqillik sari intilishning kuchayishi ... 185
Atamalar izohi ... 188

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

Tilabayev Sayipjon Bakijanovich, Kenjayev Dilshod Mutalibovich,
Mustafayeva Nodira Abdullayevna, Zamonov Akbar Turg‘inovich,
Sagdullayev Kozimxon, Po‘latova Sevara Akmalovna,
Ismatova Nargiza Kamaritdinovna, Rahimjonov Durbek Abidjanovich,
Irziyev Bahrom Shaymamatovich, Abdullayev Jamshid Djamilovich,
Qudratova Nilufar Shuhrat qizi

O‘ZBEKISTON TARIXI
(XIX ASR IKKINCHI YARMIDAN – XX ASR OXIRIGACHA)

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
10-sinf darsligi

Muharrir B. Azimov
Texnik muharrir M. Olimbekova
Sahifalovchi J. Azimov

2022-yil 30-avgustda bosishga ruxsat berildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
«Arial» garniturasi, ofset usulida chop etildi.
Bosma tabog‘i 24,0. Shartli bosma tabog‘i 22,32.
Adadi
Buyurtma

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olinganda-gi holati	Sinf rah-barining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rah-barining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslik asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslik-ning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomoni-dan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlan-gan, ayrim betlari chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yan tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.